

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK - QURILISH INSTITUTI

TEXNIK TIZIMLARDA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI”

KAFEDRASI


“QURILISHDA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI”

FANI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA


NAMANGAN-2021 y

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA-MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

 f-m.f.d. M. Dadamirzayev

" " 2021 yil

"TEXNIK TIZIMLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI"

KAFEDRASI

"QURILISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI"

FANI BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

II-SEMESTR

Bilim sohasi:	700 000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	730 000 – Arxitektura va qurilish
Ta'lim yo'nalishi:	60730200 – Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish
	60730700 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish
	60730300- Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha)
	60730400- Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (turlari bo'yicha)

“Qurilishda axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. –
Namangan, 2021. – 330 bet.

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik - qurilish institutining
2021 yil 31.08. da tasdiqlangan fanning o‘quv dasturi asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: N.A.Niyazova - NamMQI, “Texnik tizimlarda axborot
texnologiyalari” kafedrasini, katta o‘qituvchi, PhD.

Taqrizchilar: T. Jo‘rayev - NamMQI, ”Informatika va axborot texnologiyasi”
kafedrasini mudiri texnika fanlari nomzodi, dotsent.
A.To‘xtaboyev – NamMQI “Bino va inshootlar” kafedrasini
mudiri texnika fanlari nomzodi, dotsent.

O‘quv-uslubiy majmua “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari”
kafedrasining 2021 yil «31» 08 dagi «1.1» - son yig‘ilishida
muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya
etilgan.

Kafedra mudiri:  **PhD. A.I. Isomiddinov**

O‘quv-uslubiy majmua Sanoatni axborotlashtirish fakultetining kengashida
muhokamadan o‘tgan va tavsiya etilgan.

2021 yil «03» 09 dagi «2» -sonli bayonnoma.

Fakultet kengashi raisi:  **PhD. A.A. Qahharov**

Fanning o‘quv dasturi Namangan muhandislik-qurilish instituti institut O‘quv-
uslubiy Kengashining 2021 yil “18” 09 dagi 2 -sonli yig‘ilishida ko‘rib
chiqilgan va o‘quv jarayonida tavsiya etilgan.

Reg.nomeri: 2

O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i:  **Q. Inoyatov**

MUNDARIJA

I	SILLABUS	5
II	FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	11
III	NAZARIY MATERIALLAR	26
1	Axborot xavfsizligi va axborotlarni himoyalash usullari.	26
2	Mutaxassisliklarga ixtisoslashgan tizimlar va dasturlar.	37
3	Qurilishda axborot tizimlari.	48
4	Qurilishda axborot jarayonlarini algoritmlash va dasturlash.	83
5	Kompyuter grafikasi.	91
6	Qurilishda axborot tizimlarini loyixalash va qurish usullari. Elektron hujjat aylanishi tizimi.	116
7	Kompyuter grafikasi tushunchasi va turlari.	126
8	Corel DRAW dasturiga kirish. Dastur imkoniyatlari. Oyna interfeysi.	147
9	Qurilishda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari. AutoCAD dasturi haqida umumiy ma'lumotlar.	166
10	Uch o'lchamli ob'ektlar tuzish, ularni o'zgartirish buyruqlari.	171
11	Qurilish konstruksiyalarini loyihalashni avtomatlashtirish (Lira).	175
12	Kompyuterda uch o'lchamli modellashtirish. 3D Studio MAX dasturiga kirish.	189
13	Materiallar muxarriri. Yoruqlik manbai. Kameralar o'rnatish. Animasiya asoslari. Renderlash.	212
14	Qurilish ob'ektlarning axborot modelini loyixalash tizimlari.	231
15	Turar-joy va jamoa binolarni axborot modellashtirish xususiyatlari, arxitektura yodgorliklari, binolarning yuk ko'taruvchi tuzilmalari, sanoat maqsadlari, kam qavatli binolar axborot modelini loyixalash usullari.	247
IV	AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR	266
V	MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI	329
VI	GLOSSARIY	330
VII	ILOVALAR	363
VIII	ADABIYOTLAR RO'YXATI	388

**I. “Qurilishda axborotlar texnologiyalari” fanining 2021/2022 o’quv yili uchun
mo’ljallangan
SILLABUSI**

Fanning qisqacha tavsifi			
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Namangan muhandislik-qurilish instituti		Namangan shahri, Islom Karimov shoh ko’chasi, 12
Kafedra:	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari		Sanoatni axborotlashtirish fakulteti tarkibida
Ta’lim sohasi va yo’nalishi:	730000 - “Arxitektura va qurilish” ta’lim sohasi	60730200 – Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish, 60730700 - Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish	
Fanni (kursni) olib boradigan o’qituvchi to’g’risida ma’lumot:	PhD. Niyazova Naima Abdullajonovna	e-mail:	naima.niyazova82@gmail.com
Dars vaqti va joyi:	NamMPQ 2-binosi 406 auditoriya	Kursning davomiyligi:	02.09.2021-20.05.2022
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	seshanba, chorshanba kunlari 13.00 dan 15.00 gacha		
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari		
	Ma’ruza:	30+30	amali 30+30
Mustaqil ta’lim:	75+75		
Fanning boshqa fanlar bilan bog’liqligi (prerekvizitlari):	«Qurilishda axborot texnologiyalar» kursini barcha yo’nalishlarda o’qitilishi sababli quyida keltirilayotgan ishchi dasturining u yoki bu bo’limini o’rganish darajasi talabalarning qiziqishi va tanlagan yo’nalishiga bog’liq holda olib boriladi.		
Fanning mazmuni			
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	<p>Fanni o’qitishdan maqsad – talabalarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo’yicha bilimlarning nazariy asoslarini, arxitektura-qurilish sohasida zamonaviy AKT hamda dasturiy va texnik vositalardan foydalanish tamoyillarini o’rgatish hamda amaliyotda tatbiq etish ko’nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko’nikmalari, arxitektura va qurilish sohasiga axborot tizimlari va texnologiyalarini qo’llash bo’yicha uslubiy yondoshuvlari hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, shuningdek axborot texnologiyalari asosida shahar qurilishi, kommunal infratuzilma, bino va inshootlar qurilishi, muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji hamda qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali bo’lajak mutaxassislar tayyorlash.</p>		
Talabalar uchun talablar	<ul style="list-style-type: none"> ✓ talabalar tomonidan arxitektura va qurilish sohasida qo’llaniladigan axborot texnologiyalarini mavjud fanlar doirasida tasavvur va bilimga ega bo’lishi; ✓ boshqaruv jarayonlarida shaxsiy kompyuterlardan foydalanishning nazariy asoslari va ularni milliy iqtisodiyotning turli tarmoq va sohasiga tadbiiq qilish ko’nikmalariga ega bo’lishi; ✓ arxitektura va qurilish sohasidagi amaliy masalalarni mustaqil modellashtirish, arxitektura va qurilish sohasidagi axborot tizimlari va texnologiyalarini qo’llash maxsus dasturiy ta’minotlar bilan ishlash malakasiga ega bo’lishi kerak. 		
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o’qituvchi va talaba o’rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina unstitut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 17.00 dan 20.00 gacha		

FAN MAVZULARI VA UNGA AJRATILGAN SAOTLAR TAQSIMOTI:

Mavzular tartibi	Ma’ruzaning nomi va qisqacha mazmuni	Dars soatlari hajmi
2-semestr		
1	Qurilish va arxitektura soxasida axborot xavfsizligi va axborotlarni himoyalash usullari.	2
2	Qurilish va arxitektura soxasida axborot jarayonlarini algoritmlash va dasturlash.	2
3	Arxitektura va qurilish soxasida zamonaviy dasturlash texnologiyalari.	2
4	Arxitektura va qurilishda qurilish konstruksiyalarni vizual dasturlash texnologiyalari.	2
5	Arxitektura va qurilish soxasida axborot tizimlari.	2
6	Qurilishda axborot tizimlarini loyixalash va qurish usullari. Elektron hujjat aylanishi tizimi.	2
7	Kompyuter grafikasi tushunchasi va turlari.	2
8	Corel DRAW dasturiga kirish. Dastur imkoniyatlari. Oyna interfeysi.	2
9	Qurilishda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari. AutoCAD dasturi haqida umumiy ma'lumotlar.	2
10	Uch o'lchamli ob'ektlar tuzish, ularni o'zgartirish buyruqlari.	2
11	Qurilish konstruksiyalarini loyihalashni avtomatlashtirish (Lira).	2
12	Kompyuterda uch o'lchamli modellashtirish. 3D Studio MAX dasturiga kirish.	2
13	Materiallar muxarriri. Yoruqlik manbai. Kameralar o'rnatish. Animasiya asoslari. Renderlash.	2
14	Qurilish ob'ektlarning axborot modelini loyixalash tizimlari.	2
15	Turar-joy va jamoa binolarni axborot modellashtirish xususiyatlari, arxitektura yodgorliklari, binolarning yuk ko'taruvchi tuzilmalari, sanoat maqsadlari, kam qavatli binolar axborot modelini loyixalash usullari.	2
	Jami	30

Mavzular tartibi	Amaliy mashg'ulot nomi va qisqacha mazmuni	Dars soatlari hajmi
2-semestr		
1	Axborotlarni himoyalash usullari.	2
2	Internet axborot-qidiruv tizimlari.	2
3	Qurilish masalalarini ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash tillaridan foydalanib echish.	2
4	Qurilishni boshqarish dasturiy ta'minoti.	2
5	Qurilish korxonasida avtomatlashtirilgan ish joylarini tashkillashtirish.	2
6	Rastrli grafika dasturi yordamida ob'ektlari qayta ishlash.	2
7	Adobe Photoshop dasturiga kirish. Adobe Photoshop dasturi grafik ob'yektlarni yaratish.	2
8	Vektorli grafika dasturi yordamida ob'ektlar yaratish va ularni qayta ishlash.	2
9	Corel DRAW dasturiga kirish. Adobe Photoshop dasturida logotiplar yaratish.	2
10	Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimida ob'ektlarni loyihalash.	2
11	AutoCAD dasturi. Dastur interfeysi. Loyihalash jarayonlarida AutoCAD dasturidan foydalanish.	2
12	Uch o'lchamli kompyuterli modellashtirish dasturidan foydalanib ob'ektlarni yaratish.	2
13	3Ds MAX dasturi. Dastur interfeysi. 3Ds MAX dasturida uch o'lchamli ob'yektlarini yaratish. Materiallarni tahrirlash.	2
14	Qurilish konstruksiyalarini avtomatlashtirish dasturidan foydalanib ob'ektlarni yaratish.	2
15	Revit dasturi. Dastur interfeysi. Revit dasturidan foydalanib qurilish konstruksiyalarini loyihalash.	2
	Jami	30
Mavzular tartibi	MUSTAQIL TA'LIM	Dars soatlari hajmi
2-semestr		
1	Kompyuter xavfsizligi muammolari. Antivirus dasturlari.	2
2	Kompyuter grafikasining asosiy tushunchalari. Rastrli, vektorli va fraktal grafika.	2
3	Adobe Photoshop va Corel Draw dasturida ob'ektlar va figuralar xosil kilish, ularni xususiyatlarini o'zgartirish.	2
4	Auto CAD dasturida bino loyahasini yaratish.	2
5	LIRA dasturida qurilish konstruksiyalarini loyihalashni avtomatlashtirish.	2
6	3D MAX dasturi elementlari va uning imkoniyatlari. Revit dasturi imkoniyatlari.	2

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Qurilish va arxitektura soxasida axborot xavfsizligi va axborotlarni himoyalash usullari.

Axborot xavfsizligi tushunchasi. Axborot xavfsizligini ta'minlash. Axborotlarni himoyalashning texnik va dasturiy vositalari. Axborotlarni himoyalash usullari. Identifikasiya va autentifikasiya masalalari. Kompyuter tarmoqlariga ruxsatsiz ulanish, yovuz niyatli harakatlar va tarmoqda ishlash qoidalarini buzish. Kompyuter viruslari va ularning turlari. Kompyuter viruslaridan himoyalash. Kompyuter tarmoqlari xavfsizligini ta'minlash vositalari. Axborotlashtirish sohasida ichki va tashqi tahdidlar. Elektron raqamli imzo.

2-mavzu. Qurilish va arxitektura soxasida axborot jarayonlarini algoritmlash va dasturlash.

Algoritm va algoritmlash, algoritmnining xossalari, algoritmlarni yaratish usullari va turlari. Qurilish masalalarni kompyuterda yechish bosqichlari.

3-mavzu. Arxitektura va qurilish soxasida zamonaviy dasturlash texnologiyalari.

Dasturlash tillarining asosiy elementlari.

4-mavzu. Arxitektura va qurilishda qurilish konstruksiyalarni vizual dasturlash texnologiyalari.

Vizual dasturlash va vizual foydalanuvchi interfeyslarning asosiy afzalliklari va prinsiplari. Vizual dasturlash muxiti ob'ektlari va elementlari. Interfeys formulalari va komponentlari. Vizual dasturlash muxitida interfeysli dasturlar yaratish.

5-mavzu. Arxitektura va qurilish soxasida axborot tizimlari.

Axborot tizimlari, ularning mohiyati, qo'llanilishi va vazifalari. Axborot tizimlarining asosiy jarayonlari. Qurilishda axborot tizimlarini ta'minlovchi tarkibiy qismlar: texnik ta'minot, dasturiy ta'minot, matematik ta'minot, axborot ta'minoti va xuquqiy ta'minot.

6-mavzu. Qurilishda axborot tizimlarini loyixalash va qurish usullari. Elektron hujjat aylanishi tizimi.

Qurilishda avtomatlashtirilgan axborot tizimlari. Zamonaviy multimedia tizimlari. Davlat axborot tizimlari va resurslari. Axborot tizimlarining interaktiv xizmatlari. Avtomatlashtirilgan ish joylari haqida tushuncha. Avtomatlashtirilgan ish joylarining tamoyillari, turkumlanishi va xususiyatlari. Avtomatlashtirilgan ish joylarining tashkiliy-uslubiy va funksional tuzilishi.

7-mavzu. Kompyuter grafikasi tushunchasi va turlari.

Kompyuter grafikasiga kirish. Kompyuter grafikasi turlari. Adobe Photoshopga kirish. Dasturni sozlash. Asboblarning paneli. Rasm solish instrumentlari, transformasiyalash. Tasvirni korreksiyalash. Asboblarning palitrasi. Ranglar palitrasi. Rangli ma'lumotni taqdim etish rejimlari.

Turli effektlar hosil qilish. Montaj. Filtrlar. qatlamlar. Kanallar. Tasvirlarni qayta ishlash usullari.

8-mavzu. Corel DRAW dasturiga kirish. Dastur imkoniyatlari. Oyna interfeysi.

Corel DRAW qujjatlari. Shablonlardan foydalanish. Matn. Oddiy va figurali matn. Quymalar: gradientlar, naqshlar, teksturalar. Shaffoflik. Ob'ektlar va figuralar qosil qilish. Egri chiziqlarni muqarrirlash. Maket. Ob'ektlarni tekislash. Abris. Maxsus effektlar. Rastrlash, rastrli effektlar.

9-mavzu. Qurilishda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari. AutoCAD dasturi haqida umumiy ma'lumotlar.

Standart primitivlari. Geometrik ob'ektlarni tasvirlarini qurish. Ob'ektlar xususiyatlari. Ob'ektlarini o'zgartirish buyruqlari.

10-mavzu. Uch o'lchamli ob'ektlar tuzish, ularni o'zgartirish buyruqlari.

Renderlash. Qurilish ob'ektlarini chizmalarini loyixalash bosqichlari.

11-mavzu. Qurilish konstruksiyalarini loyihalashni avtomatlashtirish (Lira).

Lira dasturi haqida umumiy ma'lumotlar.

12-mavzu. Kompyuterda uch o'lchamli modellashtirish. 3D Studio MAX dasturiga kirish.

Dastur interfeysi. Uch o'lchamli modellashtirish usullari. Modifikatorlar, poligonal modellashtirish, tarmoq muxarriri, splaynlarni muxarrirlash, egri chiziqlar bilan ishlash.

13-mavzu. Materiallar muxarriri. Yoruqlik manbai. Kameralar o'rnatish. Animasiya asoslari. Renderlash.

3D Studio MAX dasturida ob'yetlarga material berish. Kameralar bilan ishlash. Animatsiyalar yaratish.

14-mavzu. Qurilish ob'ektlarning axborot modelini loyixalash tizimlari.

Qurilish ob'ektlarni axborot modelini loyixalash asosiy tushunchalari va bosqichlari. Axborot modelini modellashtirish dasturiy ta'minotlari. Revit dasturida axborot modellashtirishning uslubiy asoslari. Bir bino ma'lumotlari modeli doirasida ko'p qirrali dizaynni amalga oshirish metodologiyasi. Yagona modelini yaratishda Revit dasturining turli xil usullardan foydalanish.

15-mavzu. Turar-joy va jamoa binolarni axborot modellashtirish xususiyatlari, arxitektura yodgorliklari, binolarning yuk ko'taruvchi tuzilmalari, sanoat maqsadlari, kam qavatli binolar axborot modelini loyixalash usullari.

Revit dasturida binolarning axborot modellarini Dynamo plugin yordamida vizual dasturlash.

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300 – son qarori. lex.uz

	<ol style="list-style-type: none"> 2. S.S. Qosimov Axborot texnologiyalari: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T.: Aloqachi, 2006.-360 b. 3. Niyazova N.A, Ximmataliyev D.O. “Quriishda axborot texnologiyalari”. O‘quv qo‘llanma, “Fazilatorgtexservis” XK nashriyoti, Nam.: 2020 y. 4. Nazirov Sh.A., Nuraliyev F.M., To‘rayev B.Z. Kompyuter grafikasi va dizayn. O‘quv qo‘llanma. -T.: «Fan va texnologiya», 2015, 256 b. 5. Shadmanova U.A., Islamova F.S., Qurbonov E.Sh. Qurilishda axborot texnologiyalari Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 164 b. 6. Kenjabayev AT., Ikramov M.M., Allanazarov A.Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari —Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. —408 b. 7. Richard L. Halterman Fundamentals of C++ Programming. Copyright © 2019. All rights reserved. 634 pg. 8. Brian P. Hogan HTML5 and CSS3, Second Edition. Level Up with Today’s Web Technologies. Copyright © 2019 The Pragmatic Programmers, LLC. All rights reserved. 290 pg. 9. Raavi O’Connor Autodesk 3ds Max® 2019 Modeling and Shading Essentials. Copyright © 2019 Raavi Design. 466 pg.
<p>Qo‘shimcha adabiyotlar:</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. T., “O‘zbekiston”. 2016 y. 47 bet. 2. Randy H. Shih AutoCAD 2018 Tutorial - First Level: 2D Fundamentals Better Textbooks. Lower Prices. 3. BarBara Zukin Heiman. PH.D. and others Practical Photoshop® CS6, Level 1 Copyright © 2009–2019 by. 53 pg. 4. Aripov M. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma T.: “Noshir” 2019. 366-b 5. Aripov M. va b. Informatika, informatsion texnologiyalar Darslik T.: TDYUI 2018. 278-b. 6. Чумаченко И.Н. 3DS MAX. Самоучитель. М.: НТ Пресс 2020. 538с. <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 7. www.lex.uz 8. www.ZiyoNET.uz 9. www.tami.uz 10. www.e-darslik.uz 11. http://linux.manas.kg/books/how_intranets_work/ch32.htm 12. http://www.practical-photoshop.com 13. http://virtual-university-eurasia.org/

II. FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

1. Ma'ruza mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari

Ma'ruza mashg'uloti – oo'yuda o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanadi, bilimlarni birlamchi egallashga yo'naltirilgan.

Ma'ruzani asosiy belgilanishi – o'qitishni nazariy asosini ta'minlab berish, o'quv faoliyatga va aniq o'quv fanga qiziqishni rivojlantirish, kursantlarga o'quv kursi ustidan mustaqil ishlash uchun orientirlarni shakllantirish.

Ma'ruza materiallarining mazmuni va hajmiga talablar

Ma'ruza materiallarining *mazmuni* quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik;
- aniq, ishonchli misol, fakt, asosnoma va ilmiy dalillarning mavjudligi;
- faktga asoslangan (statistik va v.h.) materiallarni ko'p emasligi.

Ma'ruza materiallarining *hajmi* rejalashtirilgan mavzuni yoritish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Ma'ruzalar turlari vaularga xos xususiyatlari

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
<i>Kirish ma'ruzasi</i>	
Fan doirasida o'quv axborotini o'zlashtirish bo'yicha talabalar harakatining yo'naltiruvchi asosini ta'minlash.	Ta'lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o'quv fani mazmuni, uning o'quv jarayonidagi o'zni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi ahamiyati to'g'risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo'naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirish.
<i>Axborotli ma'ruza</i>	

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
O'quv mavzu bo'yicha tasavvurni shakllantirish	Bu an'anaviy ma'ruza turi: ma'ruza rejasiga muvofiq o'quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish.
<i>Muammoli ma'ruza</i>	
Muammoni belgilash va uni yechimini topishni tashkillashtirish an'aviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Yangi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarning bilishi o'qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi.
<i>Ko'rgazma ma'ruza</i>	
O'TVdan keng foydalanish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish, ko'rib chiqilayotgan ko'rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha sharhlashga olib keladi.
<i>Binar ma'ruza</i>	
Talabalarga munozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda yechishni namoyish etish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish ikki o'qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o'qituvchi va talabalarning dialogini o'zida namoyon etadi.
<i>Anjuman-ma'ruza</i>	
O'quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma'ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg'ulot ko'rinishida o'tkaziladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi mustaqil ish va so'zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to'ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.
<i>Umumlashtiruvchi ma'ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va	Ma'ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	negizini kursning yoki katta bo'limlarning ilmiy-tushunchali va kontseptual asosi tashkil etadi.
<i>Maslahatli-ma'ruza</i>	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turlicha stsenariy bo'yicha o'tishi mumkin. 1. "Savol-javoblar"- o'qituvchi bo'lim yoki to'liq kurs bo'yicha talabalar savollariga javob beradi. 2. "Savol-javoblar-munozaralar": o'qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
<i>Yakuniy ma'ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Kursni o'rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o'tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma'ruzada o'qituvchi kursning asosiy g'oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o'rganishda olgan bilimlarni qanday qo'llash yo'llarini ko'rsatadi, fan bo'yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.

Slaydli taqdimotga qo'yiladigan asosiy talablar

- slaydlar soni o'quv material mazmunini to'liq ochib berish uchun yetarli bo'lishi kerak;
- slaydda bir qatorda 6-dan ortiq so'z, 8-ta qator ketma-ket joylashgan bo'lishi mumkin emas.
- barcha ma'lumotlar tuzilmaga keltirilgan bo'lishi kerak;
- slaydlar qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

Slaydlarni rasmiylashtirish qoidalari

- **Matn** ma'lumotlarga boy, mantiqiy bir-biri bilan uzviy bog'langan, aniq va ravshan, sodda tilda yozilgan bo'lishi lozim.

• **Rasmlar** aniq va ravshan, yirik o'lchamda bo'lishi kerak, ular bezatish emas balki namoyish etish vazifasini bajarishi kerak.

• **Jadvaldagi** ma'lumotlar yaqqol ko'rinib turadigan bo'lishi kerak va har bir jadvalni nomi bo'lishi shart.

• **CHizmalar** bir blokdan ikkinchisiga aniq, ravshan va mantiqiy o'tishlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

2. Amaliy mashg'ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari

Amaliy:

- o'quvchilarni o'qituvchi bilan va o'zaro faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan,
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi,
- olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo'ljallangan mashg'ulotning o'qitish shakli.

Amaliy mashg'ulotining mazmuniga quyiladigan talablar

- muhokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;
- muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko'rib chiqiladi;
- nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib beriladi;
- muhokama qilinuvchi materialning talabalarning bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan aloqasi ta'minlanadi;
- ko'rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

Amaliyotlar turlari va ularga xos xususiyatlari

Amaliyot turi	Amaliyot shakli, uning o'ziga xos xususiyatlari
<p><i>Talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish/ tuzilmaga keltirish/ mustahkamlash/ kengaytirish:</i></p> <p>- metodologik nuqtai nazaridan eng muhim va</p>	<p><i>Keng ko'lamli suhbat.</i></p> <p>Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar, so'zga chiquvchi talabalarni kuchli va</p>

<p>o'ziga xos fan mavzularining yaxshi o'rganish.</p> <p>- tushunish va o'zlashtirish uchun murakkab bo'lgan mavzu savollarini batafsil o'rganish.</p> <p>- kasbiy tayyorgarlik sifatini aniqlovchi, alohida asosiy bo'lgan mavzularni batafsil o'rganish.</p>	<p>kuchsiz tomonlariga talbalar diqqatlarini qarata olish, talabalar diqqati va qiziqishini, ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi tomonlarga o'sha vaqtni o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik talabalarni savollarni muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi. Keng ko'lamli suhbat ba'zi savollar bo'yicha alohida talabalarni avvaldan rejalashtirilgan qo'shimcha ravishda so'zga chiqishlarini istisno qilmaydi, balki, taxmin qiladi. Biroq bunday ma'lumotlar muhokama uchun asos bo'lmaydi, balki muhokama qilingan savollar uchun to'ldiruvchi bo'ladi.</p> <p style="text-align: center;"><i>Ma'ruza va referatlar muhokamasi.</i></p> <p>Muhokamaga 12—15 daqiqa davomiyligidagi 2-3 ma'ruzadan ko'p bo'lmagan ma'ruzalar olib chiqiladi. Ba'zida qo'shimcha ma'ruzachi va opponentlar (muxoliflar) belgilanadi. Oxirgi chiquvchilar mazmuni qaytarmaslik uchun, ma'ruza matni bilan tanishadilar. Biroq ko'p hollarda, ma'ruzachi va opponentlar, qo'shimcha ma'ruzachilardan tashqari, hech kim seminarga jiddiy tayyorlanmaydi. So'zga chiquvchilarni o'zlari ham faqat bir savolni o'rganadilar. SHu bilan birga, odatiy seminar ishiga “quruq nazariyalik” elementini kiritib, bunday mashg'ulotlar talabalarda ba'zi qiziqishlarni uyg'otadi. Talabalarni har birini qo'shimcha ma'ruzachi yoki opponent sifatida tayyorlanib kelishga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Referatli ma'ruzalarni yakuniy seminarda, uning asosiy savollari avvaldan muhokama qilib bo'lingan, katta bir mavzu bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.</p> <p style="text-align: center;"><i>Press-konferentsiya.</i></p> <p>Qisqa so'zga chiqishdan so'ng birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator talabalarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. SHundan so'ng har bir talaba ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarining markaziy qismini tashkil etadi. Qancha ko'p jiddiy tayyorgarlik ko'rilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli</p>
--	--

beriladi. Savollarga avval ma'ruzachi javob beradi, so'ngra u yoki boshqalar bo'yicha istagan bir talaba o'z fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qo'shimcha ma'ruzachilar, agarda shundaylar belgilangan bo'lsa, faol bo'ladilar. O'qituvchi har bir muhokama qilinayotgan savol bo'yicha, yoki seminar yakunida o'z xulosasini qiladi.

O'zaro o'qish.

Tushunish va o'zlashtirish uchun eng ko'p murakkablikdagi savollarni o'rganish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar. Seminar mobaynida talabalarni o'zaro o'qishga yo'naltirish muhim hisoblanadi: har kichik-guruhga mavzuning bir savoli beriladi, bu bo'yicha ular ishlaydilar va bunga asos (ekspert varaqlar – savolni yoritish rejasi, tayyorlangan ma'lumotlarni vizual taqdim etish bo'yicha tavsiyalar) beriladi. Ekspert guruhlarning ish natijalari taqdimotidan so'ng o'qituvchi xulosalar qiladi.

Yumoloq (yozma /og'zaki) stol.

O'tgan mavzu bo'yicha bilimlarni chiqurlashtirish va aniqlashtirish, bor bilimlarni safarbar qilish va har xil vaziyatlarda ularni qo'llash, o'z fikrlarini qisqa va asoslangan xolda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar.

Har xil stsenariylar bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

1. «Yozma yumoloq stol» - talabaning savoli / yechimi topilishi kerak bo'lgan g'oya yozilgan varaq, doira bo'yicha uzatiladi va har bir ishtirokchi o'z mulohazalarini qo'shadi.
2. «Og'zaki yumoloq stol» - har bir talaba qo'yilgan savolning javobiga o'z qo'shimchalarini kiritadi / oldingi ishtirokchi tomonidan taklif qilingan g'oyani qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi.

Ilm-fanningalohida
xususiy muammolarini

Spetsseminar.
Bakalavriatning 4 kursida, magistraturada o'tkaziladi.

<p>chuqurroq ishlab chiqish.</p>	<p>Ilmiy mavzu bo'yicha yosh tadqiqotchilarni muloqat maktabini ifodalaydi. Spetsseminar vaqtida talabalarning guruhlarda ishlashga va uni baholashga, ilmiy tadqiqotlar usullaridan foydalanishga intilishlari katta rol o'ynaydi.</p> <p>Spetsseminarning yakuniy mashg'ulotida o'quituvchi, qoidaga ko'ra, seminarlarni va talabalarning ilmiy ishlarini muhokama qilingan muammolarni kelgusida tadqiqotlar qilish istiqbollari va talabalarni ularda ishtiroq etish imkoniyatini ochib umumlashtiradi.</p>
<p>Maxsus (kasbiy) va umum'o'quv ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirish:</p> <p>- amaliy muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish jarayonida xarakteristik algoritmini aniqlash bilan bog'liq egallagan nazariy bilimlarni amaliy qo'llash.</p>	<p style="text-align: center;">Ta'limiy o'yin.</p> <p>O'qitish samaradorligini uning ishtiroqchilarini nafaqat bilimlarni olish jarayoniga faol jalb qilish, balki ularni (hozir va shu yerda) foydalanish orqali oshirishga imkon beradi; o'zgaruvchan vaziyatlarda o'zini tutish taktika ko'nikmalarini shallantiradi; vykrabatывaet dinamik rolevogo povedeniya; amaliyot imitatsiyasini ifodalaydi; aniq ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va ishlab berishga qaratilgan.</p> <p>Amaliyot natijaviyligini uning tashkiliy-uslubiy ta'minoti belgilaydi: o'yinning texnologik xaritasini ishlab chiqish; o'yin atributlarini va materiallar paketini: vaziyat bayoni, ishtiroksilar uchun yo'riqnomalar, personajlar ta'rifi (agar o'yin rolli yoki ishbilarmon bo'lsa) yoki vaziyatli ko'rsatmalar (agar o'yin modellashtiruvchi bo'lsa) tayyorlash.</p> <p style="text-align: center;">Amaliy topshiriqlarni bajarish.</p> <p>Amaliy topshiriqlarning ko'pchiligi kichik guruhlar tarkibida bajariladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish → o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishish → topshiriqni bajarish → natijalarning ommaviy taqdimoti → natijalarni umumlashtirish va baholash.</p> <p style="text-align: center;">Masalalar yechish bo'yicha mashq.</p> <p>Yakka tartibda amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish – masalani yechish – natijalarni tanlama taqdimoti - umumlashtirish.</p>

Muammoli masalalar va vaziyatlarni yechish.

Muammoli masalalar va vaziyatlarni ishlab chiqish juda katta mehnat talab qiladi. Lekin talabalar tomonidan amaliy kasbiy faoliyatdan olingan muammoli masalalarni yechish va muammoli vaziyatlarni ko'rib tahlil qilish nazariyani haqiqiy amaliyot bilan bog'lashga imkon beradi. Bu o'qitishni faollashtirishga imkon beradi, talabalarga o'rganilayotgan materialni amaliy foydasini tushunishga yordam beradi.

Ta'lim beruvchi amaliy muammoli vaziyatlarni (keyslarni) yechish.

Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq yechim variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o'z ichiga oladi.

Keysni yechish jarayoni quyidagi bosqichlarini o'z ichiga olish muhim:

- muammoni yakka tartibda tahlil qilish va yechish,
- yakka tartibda topilgan yechimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o'zaro maqbul yechim variantini rasmiylashtirish,
- guruh ishini taqdimoti,
- muammoni yechish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash.

Fiklash jarayoni, muammoli vaziyatni yechish jarayonida paydo bo'lingan, mustaqil topilgan dalillar orientirlarni, kasbiy boyliklarni topishga va mustaqamlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqani anglashga ko'maklashadi.

O'quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi

Ushbu o'quv mashg'ulotini tayyorlashda o'qituvchining roli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig'ini ishlab chiqish; talabalarga ma'lumotlarni izlashda yordam berish; o'zi axborot

	<p>manbai bo'lishi; butun jarayonni muvofiqlashtiri; ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga oshirish; maslahat berish.</p> <p>Ushbu o'quv mashg'ulotida guruhlar o'z faoliyatining natijalari to'g'risida ma'ruza qilishadi va uni belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha maxsulotini tasviriy va og'zaki taqdimot ko'rinishida).</p> <p>O'qituvchi guruhlarining o'zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.</p>
<p><i>Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash</i></p>	<p><i>Kollokvium.</i></p> <p>O'qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo'yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi.</p> <p>U ko'pincha 1) dasturda ko'zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg'otgan qo'shimcha mavzular bo'yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilmagan mavzulari bo'yicha qo'shimcha darslar mobaynida; 3) ohirgi seminar mashg'ulotlarida javob bermagan talabalarni birish darajasini aniqlash uchun.</p> <p>Seminar-kollokvium mobaynida ma'ruza, referat va boshq. Yozma ishlar tekshirilishi mumkin.</p> <p><i>Yozma (nazorat) ish.</i></p> <p>Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni yechadilar/ nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to'plamini to'g'ri tuzish muhim hisoblanadi: ular rejalashtirilayotgan o'quv materialni o'zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta'minlashi kerak.</p>

AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum (breynstroming-aqlar to'zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo'llaniladigan metod.

Metod chegaralangan vaqt oralig'ida aniq muammo (savol, masala)ni yechishning noan'anaviy yo'llarini izlash bo'yicha o'quvchilarni aqliy faoliyatini yo'naltirishga asoslangan.

O'quv mashg'ulotidagi aqliy hujum uchun muammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo'yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi hamda o'quvchilarda faol qiziqish uyg'otishi kerak;
- ko'p har xil ma'nodagi yechim variantlariga ega bo'lishi kerak.

O'qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o'quv mashg'ulotining bir lavhasi yoki butun mashg'ulotni o'tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi

INSERT TEXNIKASI

INSERT (inglizcha so'zdan olingan bo'lib - **INSERT** – **I**nteraktive- **i**nterfaol **N**oting – **b**elgilash **S**ystem - tizim for-uchun **E**ffective – samarali **R**eadng – o'qish and– va **T**hinking – fikrlash degan ma'noni anglatadi).

1) Samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo'yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) - men uchun yangi axborot;

(-) - mening bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak.

PINBORD TEXNIKASI

Pinbord–(inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) – o'quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o'rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni yechish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o'tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

KEYS–STADI METODI

KEYS – (ingl. sase – to'plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni yechish jarayonida qo'llash imkonini beruvchi *o'qitish vositasi*.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o'rganib va tahlil qilib, o'quvchilar o'zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o'xshash vaziyatlarda qo'llashi mumkin bo'lgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg'ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilgan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo'lsa, keysda, qoidaga ko'ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O'quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo'lishi kerak;

- bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak

- keysni yechish uchun *uslubiy ko'rsatmalar* bo'lishi kerak.

Keys–stadi (ingl.sase– to'plam, aniq vaziyat, stadi-o'qitish)–amaliy o'qitish vaziyatlarimetodi.

Keys-stadi - o'qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o'quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;
- amaliyvaziyatnitahlilqilishvabaholashga;
- muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O'quv mashg'ulotning o'qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o'rtacha miqdordagi, katta)

2. O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli:

- savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)
- topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

O'QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma'lum muddat ichida (bitta o'quv mashg'ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta'lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig'ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo'naltirilgan yangi ma'lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy yechimidan iborat.

O'quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vosita va qurollari;

- rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR

KLASTER (klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

1. Katta qog'oz varag'i markazida kalit so'z yoki 1-2 so'zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so'z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana- "yo'ldoshcha" ichiga mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan "bosh" so'zga bog'lang.

3. Ushbu "yo'ldoshcha"larda "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin, ular ichiga yana so'z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g'oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«**NIMA UCHUN?**» **SXEMASI** –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri bo'lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:

1) Muammoni yozing va strelka chizig'ini chiqarib «Nima uchun?» so'rog'ini yozing.


2) Savolga javob yozib nima uchun so'rog'ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

«**BALIQ SKELETI**» **CHIZMASI** – bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini» chizing:



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o'ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«QANDAY?» **IERARXIK DIAGRAMMASI** - muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning yechimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Qanday?» diagrammasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga

yo'riqnoma

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko'p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo yechimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga yechilishi lozim bo'lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'ying va shu savolga javob bering. SHu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o'ylab o'tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni yechimini topish uchun to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

«NILUFAR GULI» CHIZMASI - muammoni hal etish vositasi. O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash qo'nikmalarini shakllantiradi.

«Nilufar guli» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat;

	B			Z			C	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	
			G	H	Y			
	G			H			Y	

2) asosiy muammoni markaziy kvadratning markaziga yozing. Uni hal etish g'oyalarini markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

3) har bir ushbu sakkizta g'oyani markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o'tkazing, boshqacha aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o'tkazing. SHunday qilib, ular har biri, o'z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Qurilish va arxitektura soxasida axborot xavfsizligi va axborotlarni himoyalash usullari.

REJA

1. Axborot xavfsizligiga kirish
2. Axborot xavfsizligi choralari.
3. Axborot xavfsizligini dasturlashtirish bo'yicha faoliyat.
4. Antivirus himoyasini amalga oshirish mexanizmlarining xususiyatlari.

Tayanch soʻzlar: maxfiylik, konfidentsiallik, yaxlitlik, autentifikatsiya, apellyatsiya qilishlik, ishonchlilik, aniqlilik, tizimga kirishni nazorat qilish, identifikatsiyalashni nazorat qilish, qasddan buzilishlarga toʻsqinlik.

Axborot xavfsizligiga kirish.

Zamonaviy dunyoda axborot inson va umuman insoniyat hayotida tobora ko'proq rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtda axborot resurslari moddiy, moliyaviy, mehnat, tabiiy va boshqa iqtisodiy ahamiyatga ega manbalar bilan bir qatorda ko'rib chiqilmoqda. Turli qurilish tashkilotlarning mulki bo'lgan axborot resurslari hisobga olinishi va himoyalaniishi kerak, chunki ma'lumot nafaqat tovarlar va xizmatlarni yaratishda, balki uni mahsulotga aylantirishda, yo'q qilishda yoki o'g'irlashda ham qo'llanilishi mumkin. O'z-o'zidan ma'lumot egasi uchun katta ahamiyatga ega, chunki uni olish (yaratish) ko'p vaqt talab qiladigan va qimmatli jarayondir. Axborotning qiymati (haqiqiy yoki potentsial) birinchi navbatda uning egasiga berilgan afzalliklar, shuningdek yo'qolish yoki yo'qolish holatlarida belgilanadi.

Shunday qilib, uning ifodalash shaklidan qat'i nazar, ma'lumot ruxsatsiz kirishdan etarli darajada himoyalangan bo'lishi kerak. Bunday himoyaga bo'lgan ehtiyoj axborot xavfsizligi aniq ko'rsatilgan. «Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi axborot sohasining tobora ortib borayotgan roli bilan tavsiflanadi, bu axborot, axborot infratuzilmasi, axborot to'plash, shakllantirish, tarqatish va undan foydalanish sub'ektlari, shuningdek, yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi tizimlarning birlashishi. Axborot sohasi jamiyat hayotida tizimni shakllantiruvchi omil sifatida qurilish, siyosiy, iqtisodiy va boshqa xavfsizlik tizimlarining holatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash ko'p jihatdan texnologik taraqqiyot jarayoniga bog'liqdir.

Axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi nafaqat axborotni himoya qilish zarurligini aniqlashni, balki uni qanday himoya qilishni, nimadan himoya qilishni, qachon himoya qilishni, nimani himoya qilishni va bu himoya nima bo'lishi kerakligini ham o'z ichiga oladi.

GOST R ISO / IEC 17799-2005 ga muvofiq, qo'llab-quvvatlash mexanizmi axborot xavfsizligi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- maxfiylik (faqat avtorizatsiya qilingan foydalanuvchilarning ma'lumotlariga kirish);
- yaxlitlik (ma'lumotlar va usullarning ishonchliligi va to'liqligi uni qayta ishlash);
- foydalanish imkoniyati (zarur bo'lganda vakolatli foydalanuvchilarning ma'lumotlari va tegishli aktivlaridan foydalanish).

Shunga ko'ra, axborotni himoya qilish deganda quyidagilarga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va texnik choralar ko'rish tushuniladi.

- 1) axborotga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish, shu jumladan, ruxsatsiz kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, blokirovka qilish, nusxalash, taqdim etish, tarqatish;
- 2) cheklangan ma'lumotlarning maxfiyligi;
- 3) axborotdan foydalanish huquqini amalga oshirish.

Yuqoridagi choralar axborot xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish va himoyalangan ma'lumotlarning yo'qolishi yoki tarqalish xavfini minimallashtirish uchun ko'riladi. Xavfsizlik xavfi deganda, egasi yoki foydalanuvchisi uchun zararli bo'lgan, axborotni buzish, ochish yoki yo'qotish xavfida namoyon bo'ladigan har qanday xatti-harakatning mumkin bo'lgan xavfi tushuniladi. Ma'lum xavfsizlikka tahdidni amalga oshirish axborot xavfsizligini ta'minlovchi xususiyatlarni buzish maqsadida amalga oshirilishi mumkin.

Axborot xavfsizligiga tahdidlarni tasodifiy va ataylab ajratish mumkin. Tasodifiy ta'sirlar tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalar, murakkab tizimlarning ishdan chiqishi, xodimlarning qobiliyatsizligi yoki beparvoligi natijasida kelib chiqqan kompyuter tizimlari va tarmoqlarining xatolarini o'z ichiga oladi. Bunday tahdidlar puxta o'rganilib, har bir tasodifiy ta'sirga qarshi kurash choralari ishlab chiqilgan. Qasddan qilingan tahdidlar tajovuzkorning maqsadli harakatlari bilan bog'liq va ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydigan bo'lib, himoya choralari dinamik qarshilik ko'rsatishga qodir. Ushbu tahdid turi zararli kompyuter dasturlarini yaratish va tarqatishni, ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanish usullarini, axborotni noqonuniy yig'ish va ishlatishni, josuslik va fitna usullari va vositalarini, shu jumladan axborot tashuvchilarini yo'q qilish, buzish, yo'q qilish yoki o'g'irlash, axborotni o'g'irlash va uni ochish.

Ushbu tahdidlarga samarali qarshi turish uchun himoya tizimini qurish quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- 1) *tizimlilik* - bu kompyuter tizimining xavfsizlik holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'zaro bog'liq bo'lgan barcha muhim omillar va sharoitlarni hisobga olishni o'z ichiga oladi;
- 2) *murakkablik* - barcha mumkin bo'lgan tahdidlarga qarshi kurashda keng ko'lamli choralar, usullar va vositalardan foydalanishni o'z ichiga olgan;

- 3) *himoya vositalarining etariligi* - xavfsizlik darajasi ma'lumotni o'zgartirish, yo'qotish yoki o'g'irlash paytida mumkin bo'lgan yo'qotish xavfiga mos kelishi kerak;
- 4) *himoya vositalarini oqilona ko'paytirish* - mumkin bo'lgan, ilgari hisobga olinmagan va hatto qaytadan paydo bo'ladigan tahdidlarga qarshi tura oladigan axborot xavfsizligini ta'minlashning "zaxira" vositalari mavjudligini taxmin qilish;
- 5) *boshqaruv va dastur moslashuvchanligi* - amalga oshirilishi tizimning ishlashi paytida himoya mexanizmlarini sozlash qobiliyatini ta'minlaydi, ya'ni uni o'zgaruvchan vaziyatga moslashtirishga imkon beradi;
- 6) *algoritmlar va himoya mexanizmlarining oichqligi* - ularning umumiy mavjudligini emas, balki ularning bilimlari ham himoyani engib o'tishga imkon bermasligi kerakligini anglatadi;
- 7) *vositalar va himoya vositalaridan foydalanish qulayligi* - himoya tizimidan foydalanish hech qanday qiyinchiliklarga olib kelmasligi kerakligini ko'rsatib, uning ishlash mexanizmlari intuitiv bo'lishi kerak;
- 8) *himoya vositalarini birlashtirish* - himoya tizimiga umumiy standartlar va talablarni amalga oshirishni o'z ichiga olgan.

Shunday qilib, axborotni himoya qilish doimiy, yo'naltirilgan jarayon bo'lib, himoya qilinadigan axborot tizimining barcha bosqichlarida paydo bo'ladigan xavfsizlik tahdidlariga mos keladigan choralarni ko'rishni o'z ichiga oladi. Uni tashkil qilishda tizimning barcha zaif tomonlarini, shuningdek, buzilish va hujumlarning mumkin bo'lgan ob'ektlarining xususiyatlarini, ruxsatsiz kirishning mumkin bo'lgan kirish yo'llarini hisobga olish va tahdidlarni amalga oshirishning yangi usullari paydo bo'lish istiqbollari hisobga olish kerak.

Himoya qilishning to'g'ri darajasini tanlash kerak, bu xatarlar, buzish xavfi va mumkin bo'lgan zarar miqdori maqbuldir. Tegishli dasturiy vositalar aniq interfeysga, avtomatik va avtomatlashtirilgan konfiguratsiyaga ega bo'lishi kerak.

Yuqoridagi barcha printsiplarga javob beradigan xavfsizlik tizimini yaratish qimmat hamda uzoq muddatli va murakkab vazifadir. Bunday tizimdan darhol iqtisodiy yoki boshqa "qaytish" ni ko'rish har doim ham mumkin emas, lekin uni amalga oshirish kerak. Axborot xavfsizligiga tahdidlar manbalari tobora kengayib bormoqda, ularni amalga oshirish vositalari va usullari tobora rivojlanib, tajovuzkor bo'lib bormoqda. Zamonaviy sharoitda muhim ma'lumotlarni yo'qotish xavfini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Aniqlik uchun biz Kasperskiy laboratoriyasining antivirus bo'yicha mutaxassisi S.Lojkinning fikrini beramiz: "Kiber-tahdidlar bilan bog'liq vaziyat juda tez o'zgarmoqda. 90-yillarning o'rtalarida himoya vositalari faqat ish stoli kompyuterlar uchun xavfsizlikni ta'minladi va viruslar soni deyarli 5 mingdan oshdi. Bugungi kunda foydalanuvchilar mobil qurilmalardan Internetga tobora ko'proq kirishmoqda va ilgari odatdagidek kompyuter yordamida bajarilgan operatsiyalar uchun o'zlarining smartfon va

planshetlaridan tobora ko'proq foydalanmoqdalar. Xavf maydoni mos ravishda o'zgarmoqda. Bu yil an'anaviy kompyuterdan Internetga chiqishda xavf darajasi 3 foizga kamaydi, biroq boshqa tomondan mobil qurilmadan foydalanuvchilarga qilingan hujumlar o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Bir narsa o'zgarmaydi - Internet hali ham dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi foydalanuvchilar uchun zararli ob'ektlarning asosiy

Axborot xavfsizligi choralari.

Axborot xavfsizligi deb, ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossali tasodifiy va qasddan ta'sirlardan har qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi.

Axborotni ishonchli himoya qilish tizimini tashkil etish turli darajadagi turli xil tadbirlar majmuasini o'tkazishni anglatadi. Ushbu faoliyat turlarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- 1) huquqiy (qonunchilik);
- 2) tashkiliy (ma'muriy);
- 3) texnik;
- 4) dasturiy ta'minot;
- 5) kriptografik.

Huquqiy (qonunchilik) choralar.

Huquqiy chora-tadbirlar mavjud turli xil tahdidlardan axborotni huquqiy himoya qilishni ta'minlaydigan amaldagi qonunlarni amalga oshirish va yangi qonunlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy (ma'muriy) tadbirlar.

Muassasada tashkiliy chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish kompyuter tizimlarining samarali ishlashi uchun sharoit yaratishni, tashkilotning ofis binolariga kirish uchun qoidalarga rioya qilishni va ish madaniyatini yuqori darajada saqlashni o'z ichiga oladi. Ushbu tadbirlar doirasida turli xil ko'rsatmalar, axborot byulletenlari, tushuntirishlar, ko'rsatmalar ishlab chiqiladi, ularning bilimlari va rasmiy faoliyatda qo'llanilishi nazorat qilinadi.

Tashkiliy chora-tadbirlarning muhim tarkibiy qismi kirish qoidalarini shakllantirish bo'lib, uning davomida ofis binolari himoyalangan ma'lumotlarga ishlov berish va (yoki) saqlash uchun mo'ljallangan, ushbu binolarga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati, himoyalangan ma'lumotlar bilan ishlash vakolatlari tasdiqlangan va uning maxfiyligini saqlash bo'yicha majburiyatlar.

Kirishni tartibga solishni amalga oshirish protseduralari, shuningdek, kirish ma'lumotlarini tarqatish (parollar, kalitlar, smart-kartalar va boshqalar), doimiy ro'yxatga olish va himoyalangan axborot fondiga kirish huquqini ro'yxatdan o'tkazish. Vaqti-vaqti bilan, buni yodda tutadigan jurnallar ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash uchun mas'ul bo'lgan mansabdor

shaxslar tomonidan tekshirilib turilishi kerak, shuningdek, himoyalangan ma'lumotlardan foydalanishni tahlil qilish kerak. Xodimlarning bo'lim va xizmatlarda harakatlanishida cheklovlar bo'lmagan taqdirda, dastlabki va chiqish hujjatlarini tasodifan yoki ataylab o'qish yoki nusxalash natijasida ma'lumotlarning tarqalishi xavfi mavjud. Shu bilan birga, muassasada ishlarni ortiqcha tartibga solishga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki bu to'g'ridan-to'g'ri vazifalarni bajarish tezligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, jamoaning hissiy charchoqiga olib kelishi mumkin.

Ichki ma'lumotni himoya qilishda xodimlarni tanlash, ularni o'qitish va psixologik xususiyatlari va axloqiy fazilatlarini baholash bo'yicha tashkiliy choralar katta ahamiyatga ega. Bunday ishlarni e'tiborsiz qoldirish yoki uni amalga oshirishning etarli emasligi muhim ma'lumotlarning oqishi ehtimolini oshiradi.

Xalqaro amaliyotda ichki axborot tushunchasi "**insider**" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Ichki ma'lumot yoki insider ma'lumot - bu tarqatish yoki taqdim etish moliyaviy vositalar, chet el valyutasi, tovarlar, qimmatli qog'ozlar va boshqalar narxlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar.

Bunday ma'lumotlar, masalan, ma'lum bir kompaniya, korxonaga tegishli bo'lishi mumkin. Bu makroiqtisodiy, siyosiy va boshqa muhim ma'lumotlar, shu jumladan ushbu kompaniyaga bevosita aloqador bo'lmagan, ammo hozirgi bozor holatiga ta'sir ko'rsatadigan tijorat, rasmiy, bank sirini, aloqa sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Ichki ma'lumot cheklangan kirish sifatida tasniflanadi, bu oshkor bo'lgandan so'ng, fond, valyuta va boshqa bozorlardagi vaziyatni keskin o'zgartiradi. **Insider** ma'lumotlarini tarqatish yoki taqdim etish bozor narxlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin (bitta kichik kompaniyaning qiymati yoki ko'pgina sanoat kompaniyalari qiymati yoki butun xalq xo'jaligi), chuqurligi (foiz fraksiyalaridan o'nlab foizgacha). Ichki ma'lumotlarga kapital kiritishga harakat qiladigan odamlar "**insider**" deb nomlanadi.

Axborot xavfsizligini dasturlashtirish bo'yicha faoliyat.

Bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biri bu kompyuterlarni zararli dasturlardan himoya qilishdir. Zararli kompyuter dasturlarini yaratish, ulardan foydalanish va tarqatish san'atning qayd etilgan jinoyati hisoblanadi. Kasperskiy laboratoriyasining ma'lumotlariga ko'ra, faqat 2015 yilning birinchi choragida va ushbu kompaniyaning faqat Web-antivirusi 28,483,783 noyob zararli ob'ektlarni (skriptlar, ekspluatatsiyalar, bajariladigan fayllar va boshqalar) aniqlagan va antivirus faylida 253 560 227 noyob zararli va potentsial istalmagan ob'ektlar aniqlandi.

Zararli dastur (inglizcha zararli dastur) - bu kompyuter ma'lumotlarini (ma'lumot, xabarlar, ma'lumotlar shaklida) yo'q qilish, blokirovka qilish, o'zgartirish, nusxalash maqsadida

elektron manbalarga ruxsatsiz kirish uchun mo'ljallangan har qanday dastur elektr signallari, ularni saqlash, qayta ishlash va uzatish vositalaridan qat'i nazar, kompyuter ma'lumotlarini himoya qilish vositalarini zararsizlantirish.

Virus - bu o'zi takrorlaydigan (yoki o'zgartirilgan versiya) bajariladigan kod. Viruslar dasturiy ta'minotning va hatto kompyuter tizimlarining texnik vositalarining ishlamay qolishiga, foydalanuvchilarning ishini blokirovka qilishga, fayllarni o'chirishga, ma'lumotlarni joylashtirish tuzilmalarini va boshqalarga olib kelishi mumkin.

Virus kompyuter ichida va olinadigan drayverlar orqali tarqaladi. Tarqalishi, shuningdek, yuqtirgan fayl va boshqa aloqa kanallarida joylashtirilgan bo'lsa, kompyuter tarmog'i orqali ham yuqushi mumkin. Viruslarni yuqtirilgan ob'ektlar (fayl, yuklash, makro va boshqalar) bo'yicha tasniflash mumkin; fayllarga birlashtirish usuli bilan (parazitar, "yo'ldoshlar", qayta yozish va boshqalar). Viruslarning ayrim turlarini ajratib ko'rsatish kerak:

- fayl viruslari (qonuniy kodga kiritib tarqatish);
- yuklash viruslari (ma'lumotlarni saqlash qurilmasining yuklash sektorida ro'yxatdan o'tish);
 - makro viruslar [yuqori darajadagi tilda yozilgan (makro, skript va boshqalar)];
- polimorfik viruslar (bunday zararkunandalarning har bir yangi nusxasida turli xil kodlar zanjiri mavjud bo'lib, bu antiviruslarni aniqlashni qiyinlashtiradi);
- chuvalchang (o'z-o'zini tarqatish bo'linish printsipiga muvofiq amalga oshiriladi; chuvakchanglar barcha mumkin bo'lgan yo'llar va kanallar bo'yicha tarqatiladi: LAN, Internet xizmatlari, olinadigan vositalar orqali (Autorun - flesh-disklardagi chuvalchang), operatsion tizim, tizim servislari va amaliy dasturlardagi zaifliklardan foydalanishda va boshqalar; chuvalchang o'z modullarini bir nechta kompyuterlarda-tarmoq ish stantsiyalarida saqlashi mumkin, va stantsiyalarning bir qismida bir yoki bir nechta modul yo'q qilinganida, "davolangan" kompyuterning har bir ulanishidan so'ng ularni avtomatik ravishda qayta tiklanadi kesilgan tananing yangi qismlarini o'sishi kabi.

Trojan - dushman funktsiyalarga ega bo'lgan holda o'zini ishonchli dastur sifatida yashiradi. Troyan otlari o'zlarining tarqatish mexanizmlariga ega emaslar.

Backdoor - tizimni yashirin va ruxsatsiz masofadan boshqarish uchun dastur, bu mahalliy foydalanuvchida mavjud bo'lgan deyarli barcha dasturiy manipulyatsiyalarni bajarishga imkon beradi: klaviaturadan kiritish, kursorni siljitish, derazalar va ekranlarning tarkibini ko'rish, periferik uskunalarga kirish. Ma'muriy yoki ma'muriy faoliyat bilan bog'liq muhim ma'lumotlar bilan ishlaydigan yoki elektron to'lov vositalaridan foydalanish huquqiga ega bo'lganlar uchun tashqi makon juda xavflidir.

Rootkitlar - buzg'unchi yoki zararli dasturlarning faoliyatini dasturiy ta'minot va tizim so'rovlarning natijalarini buzish va buzish orqali yashirish uchun mo'ljallangan. Deyarli har

qanday virus bu yoki boshqa usulda antivirus muhitida omon qolish uchun "rootkit texnikasi" dan foydalanadi.

Botlar / zombi - turli xil zararli dasturlarni masofadan boshqarishni tashkil etuvchi dasturlar to'plami. Ularning yordami bilan kompyuterlarning bot tizimlari (botnetlari) yaratilishi mumkin, ular kiber jinoyatchilar spam yuborish, kiberhujumlarni amalga oshirish va h.k.

Ekspluatatsiya - bu kompyuter tizimining dasturiy ta'minotidagi zaifliklardan foydalanishni boshqarish yoki uning ishini buzish uchun foydalanadigan dastur yoki uning bir qismi (kichik dastur). Bir qarashda ekspluatatsiya u bilan ishlash uchun mo'ljallangan dastur tomonidan noto'g'ri qabul qilingan zararsiz fayl (masalan, grafik yoki tarmoq fayli) bo'lib chiqishi mumkin.

Mantiqiy bomba - muayyan kodlar paydo bo'lganda (masalan, bir muncha vaqt o'tgach) zararli harakatlarni amalga oshiradigan dastur kodi yoki dastur. Mantiqiy bomba portlashining klassik misoli - bu ish beruvchiga naqd to'lovlar mavjud bo'lmaganda buxgalteriya ma'lumotlar bazasini yo'q qiladigan ish haqi dasturi. Mantiqiy bomba boshqa zararli dastur yoki oddiy dastur ichiga joylashtirilishi mumkin. Bunday holda, berilgan algoritim bajarilgandan so'ng, bomba avtomatik ravishda yo'q qilinishi mumkin.

Berilgan tizimlashtirish o'zboshimchalik bilan amalga oshiriladi, chunki ko'pincha bir xil zararli dastur turli sinflarga tayinlanishi, boshqa zararli dasturlarni o'z ichiga olishi, botnetlar va ko'plab "zararli" dasturlarning zanjirlarini yaratishi mumkin. Shunday qilib, virusni yuqtirgan kompyuterda ekspluatatsiya qilish orqali Internetdan chuvalchangni o'rnatadigan yuklagichni o'rnatish mumkin; chuvalchanglar "orqa eshiklar", mantiqiy bombalar, troyanlar bilan ta'minlangan; Trojanlar parollarni o'g'irlash va ayg'oqchi dasturlarni o'rnatish va h.k.

Zararli dasturlarni aniqlash va zararsizlantirish uchun ishlatiladigan dasturiy vositalar birgalikda antiviruslar (antivirus dasturlari) deb nomlanadi. Kompyuter tizimiga kirish bosqichida zararli dasturlarni aniqlash antiviruslarga infeksiyani oldini olish va qonuniy fayllarni o'zgartirish imkonini beradi. Zararli dasturlarni qidirish antiviruslar turli xil usullar yordamida amalga oshiriladi, ularning kodlari, odatdagi harakatlar va boshqalar to'g'risidagi mavjud bilimlarga asoslanadi.

Quyida zararli dasturlarni aniqlash usullari mavjud.

1. Tekshirish. Bu zararli dasturlarni qidirishning eng oson usuli. U ma'lum zararli dasturlarning imzolarini (niqoblarini) qidirishda kompyuter xotirasini, yuklash tarmoqlarini va skanerlangan fayllarni izchil skanerlashga asoslangan.

Imzo - bu ma'lum bir zararli dasturga tegishli bo'lgan va boshqa dasturlarda topilmaydigan noyob baytlar ketma-ketligi.

Imzoni aniqlash juda qiyin ish. Zararli dasturning ishlash printsipini sinchkovlik bilan o'rganish va zararlangan tizimlarni (dasturlarni) yuqmaganlar bilan taqqoslash kerak. Bundan

tashqari, imzo qonuniy dasturlarda bo'lmasligi kerak, aks holda soxta signallar paydo bo'lishi mumkin.

Cheklangan uzunlikdagi niqobni qidirish tamoyilining ishonchliligi juda yuqori emas. Zararli dasturni o'zgartirish juda oson va ba'zi viruslar o'zlarining nusxalarini kodlarini o'zgartirib avtomatik ravishda buni amalga oshiradilar. Zararli dastur kanonik shaklga o'tkazilganda ishonchlilik kuchayadi: ya'ni o'zgaruvchilar va doimiylarga taalluqli barcha baytlarni nolga aylantirish. Barcha ma'lum zararli dasturlarning kanonik shakllarining imzolarini saqlash (bugungi kunda ularning soni juda katta), asossiz ravishda ko'p xotirani talab qiladi. Faqat imzolarning chek varaqlarini saqlash kifoya. Agar siz zararli deb gumon qilsangiz, shubhali kodni kanonik shaklga keltiring, chek summasini hisoblang va standart bilan taqqoslang.

2. O'zgarishni aniqlash yoki yaxlitlikni boshqarish. Butunlikni boshqarish ikki protseduraga asoslanadi:

- ro'yxatga olish;
- ro'yxatdan o'tganlarni boshqarish.

Zararli dastur kompyuter tizimiga kiritilganda, o'zgarishlar ro'y beradi, ular disklarning yuklash qismlarini o'zgartirilishini va fayllarning o'zlarini o'zgartirilishini va mavjud operativ xotiraning miqdorini o'zgartiradi.

Agar amalga oshirilayotgan dastur ushbu o'zgarishlarni "qanday bilishni" bilmasa, infeksiya natijasida o'zgartirilgan xususiyatlarni eslab qolish, keyin esa ularni mos yozuvlar xususiyatlarini taqqoslab, doimiy ravishda kuzatib borish kifoya.

3. Evristik tahlil. Usul yangi noma'lum zararli dasturlarni aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu usulni amalga oshiradigan antiviruslar, shuningdek, disklar va fayllarning yuklash tarmoqlarini skanerdan o'tkazadi, ular allaqachon ma'lum zararli dasturga xos bo'lgan va "tinch" dasturlarda uchramaydigan kodni yoki ulardagi qismlarni aniqlashga harakat qilmoqda. Masalan, bu rezident modulni xotiraga o'rnatadigan kod bo'lishi mumkin va hokazo.

4. Rezident qorovul usuli. Usul foydalanuvchi dasturlarining shubhali xatti-harakatlarini, masalan, diskka mutlaq adresda yozish, diskni formatlash, yuklash sektorini o'zgartirish, ishlaydigan dasturlarni o'zgartirish yoki nomini o'zgartirish, yangi rezident dasturlarning paydo bo'lishi, operatsion tizimlarning tizim maydonlarini o'zgartirish va hokazolarni aniqlashga qaratilgan. Agar shubhali harakatlar aniqlansa, antivirus foydalanuvchining maxsus ruxsatiga qadar ushbu harakatning bajarilishini bloklaydi yoki shunchaki ekranda ogohlantiruvchi xabarni ko'rsatadi yoki do'st qiladi boshqa maxsus harakatlar.

5. Emlash dasturlari. Usul faylni ishga tushirish va dasturning yaxlitligini tekshirishni amalga oshirgandan so'ng boshqariladigan faylga qo'shimcha dasturni qo'shishdan iborat. Har qanday

o'zgarishlarni, masalan, faylni tekshirish summasini yoki boshqa xususiyatlarni tekshirish mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari, antivirus vositalarida tobora ko'proq foydalanilayotgan kod emulyatsiyasi, ijro imtiyozlarini cheklash, xatti-harakatlar tahlili kabi zararli dasturlarni aniqlash usullarini alohida ta'kidlash kerak. Antiviruslarning samaradorligi nafaqat zararli dasturlarni aniqlashning qanday usullari va ulardan foydalanishiga, balki ularning ishlashini tashkil qilishga ham bog'liq bo'lib, natijada kompyuter tizimining infeksiyasini oldini olish, shuningdek uni buzilishdan qutqarish uchun xizmat qiladi. Har qanday antivirus vositasining vazifasi - zararli dasturni soxta signallarni keltirib chiqarmasdan maksimal ishonchlilik darajasi bilan aniqlash.

Soxta signallar ikki turga bo'linadi:

- noto'g'ri ijobiy (ijobiy);
- noto'g'ri manfiy (manfiy)

Noto'g'ri ijobiy signal - bu virusga qarshi vosita zararli dastur mavjudligi haqida xabar berganida, lekin aslida bunday bo'lmaydi.

Soxta salbiy signal - bu virusga qarshi vosita zararli dastur yo'qligini aytganda, lekin aslida shunday.

Ideal holda, antivirus barcha zararli dasturlarni aniqlab, noto'g'ri signallarni keltirib chiqarmasligi kerak.

Antivirus himoyasini amalga oshirish mexanizmlarining xususiyatlari.

1. Detektor dasturlari yoki skaner dasturlari. Bu eng mashhur va keng tarqalgan antivirus dasturidir. Ular zararli dasturlarning ma'lum versiyalarini skanerlash orqali, ya'ni imzolarni qidirish orqali qidiradilar, shuning uchun skaner dasturlari faqat ilgari o'rganilgan va imzosi aniqlangan zararli dasturlarni aniqlay oladi.

Skanerlardan foydalanish kompyuteringizni yangi zararli dasturlardan himoya qilmaydi. Bundan tashqari, bunday dasturlar ko'p polimorf viruslarni aniqlay olmaydi.

Skanerlashning oddiy usulini qo'llaydigan detektor dasturlaridan samarali foydalanish uchun ularni vaqti-vaqti bilan yangilab turish kerak, chunki so'nggi versiyalarni olish kerak, chunki ularga zararli dasturlarning yangi turlari allaqachon kiritilgan. Bundan tashqari, zararli dasturlarning imzolari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini doimiy ravishda yangilab turish kerak.

Skaner dasturlari deyarli soxta ijobiy signallarni keltirib chiqarmaydi. Agar antivirus infeksiya haqida xabar bergan bo'lsa, unda siz haqiqatan ham shunday ekanligiga amin bo'lishingiz mumkin.

Ammo, agar brauzer kompyuter tizimida zararli dasturlarni aniqlamagan bo'lsa, demak, bu tizimda faqat o'zi uchun mo'ljallangan, imzolari uning bazasida bo'lgan kiruvchi dasturlar bo'lmaydi.

Aniqlangan virusni olib tashlashi mumkin antivirus skanerlari polifajlar deb ataladi. So'nggi paytlarda polifajlar tarqaldi, ular o'zlarining viruslar bazasidagi zararli dasturlarning imzolarini skanerlashdan tashqari, noma'lum viruslar va boshqa kiruvchi dasturlarning mavjudligi uchun skaner qilingan ob'ektlarni evristik tahlilidan foydalanadilar. Ular skanerlangan fayllar kodini va yuklash tarmoqlarining tarkibini o'rganadilar va ularda virusga qarshi harakatlarni amalga oshiradigan joylarni topishga harakat qiladilar. Evristik qidiruvdan foydalanadigan skanerlar allaqachon ko'plab polimorfik va avtomatik viruslarni, shuningdek, ba'zi yangi noma'lum zararli dasturlarni (antivirusning o'zi ham noma'lum) aniqlashga qodir.

2. Monitor dasturlari yoki doimiy kuzatuvchilar.

Bu antiviruslarning butun sinfidir, ular doimiy ravishda kompyuterning operativ xotirasida joylashgan va boshqa dasturlarning barcha shubhali harakatlarini kuzatib boradi. Monitordan foydalanib, siz virusni tarqalishini erta bosqichda to'xtata olasiz. Ularning maqsadi kompyuterni yuqtirishning oldini olishdir va shuning uchun ular disklarga kirishni nazorat qilishadi. Hamma kuzatuvchilar doimiy kuzatuvchi usulidan faqat zararli dasturlarni topish uchun foydalanmaydilar, lekin ular bunday dasturni topganda, ular ko'rsatilgan usulning algoritmgiga muvofiq ishlaydilar: istalmagan dastur mavjudligi to'g'risida xabar tarqatadilar yoki foydalanuvchi bilan boshqarishni boshqaradi yoki uni biron bir tarzda zararsizlantiradi.

3. Tekshiruvchi dasturlari.

Dastlab tekshiruvchi dasturlari asosiy yuklash yozuvlari rasmlarni, mantiqiy disklarning yuklash tarmoqlarini, barcha nazorat qilinadigan fayllarning parametrlarini (ba'zan fayllarni tekshirish miqdori), katalog tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotni, yomon disk klasterlari sonini, ba'zida - o'rnatilgan RAM miqdorini, ulanganlarning sonini kompyuter disklari, ularning parametrlari va boshqalar saqlaydi. Tizimda zararli dastur mavjudligini aniqlash uchun tekshiruvchi ular tomonidan yaratilgan tasvirlarni tekshiradilar va ularni hozirgi holat bilan taqqoslaydilar. Agar o'zgarish aniqlansa, unda bu o'zgarishlar virus yoki boshqa kiruvchi dasturlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lishi mumkin.

Tekshiruvchilar har qanday zararli dasturni, hatto ilgari noma'lum bo'lgan narsani aniqlashlari mumkin, ammo buning uchun zararli dasturlardan aniq va himoyaga ega bo'lgan ob'ektlarni "ro'yxatdan o'tkazish" kerak. Bundan tashqari, tekshiruvchi yangi, zararlangan fayl bilan kelgan virusni aniqlay olmaydi, chunki u virus yuqtirilgunga qadar ushbu faylning parametrlarini «bilmaydi». Shunday qilib, yangi virus allaqachon boshqa fayllarni yoki yuklash sektorini yuqtirgan bo'lsa, uni tekshiruvchi aniqlaydi. Tekshiruvchi faqat fayllarni nusxalash paytida fayllarni yuqtiradigan zararli dasturni aniqlay olmaydi, yana fayl parametrlarini taqqoslay olmaydi. Hujjat fayllaridagi zararli dasturlarni aniqlash uchun tekshiruvchilardan foydalanish samarasiz, chunki bu fayllar tez-tez o'zgarib turadi. Bundan tashqari, shuni yodda

tutish kerakki, tekshiruvchilar faqat o'zgarishlarni aniqlaydilar, ammo hamma o'zgarishlar virus yoki boshqa kiruvchi dasturlarning kiritilishi bilan bog'liq emas. Operatsion tizimning versiyasini yangilashda yuklash yozuvi o'zgarishi mumkin, paketli fayllar o'zgarishi mumkin, ba'zi dasturlar o'zlarining ishlaydigan fayllariga ma'lumotlarni yozishi mumkin, bu ham fayl o'zgarishiga olib keladi.

4. Perespektiv vositalar himoyasi.

Adaptiv, o'z-o'zini o'rganish va faol rivojlanayotgan intellektual vositalarni umid qiladigan davolanish usullari sifatida ko'rib chiqish kerak. Aqlli himoya algoritmi aniqlash va uning kodi bo'yicha dasturning spetsifikatsiyasiga asoslanadi, shuning uchun ruxsatsiz harakatlarni amalga oshiradigan dasturlarni aniqlash uchun imkoniyatlar mavjud.

Zamonaviy antivirus vositalarini yuqorida ko'rib chiqilgan turlardan biriga ajratish juda qiyin, chunki ular skanerlar, polifajlar, monitorlar va auditorlar qatoriga kiradigan dasturlarning butun doirasini anglatadi. Ularning printsiplari va ish usullari doimiy ravishda takomillashtirilmogda, istalmagan dasturlarni samarali aniqlash va zararsizlantirishga imkon beradigan yangi dasturiy mahsulotlar paydo bo'lmoqda. Afsuski, nazariya va amaliyot tasdiqlaganidek, mutlaqo barcha viruslarga qarshi tura oladigan universal vositalarni yaratish mumkin emas.

Zararli dasturiy ta'minot muammosining echimi bunday dasturlarning mavjudligini amalda imkonsiz qiladigan yoki hech bo'lmaganda iloji boricha qiyinlashtiradigan texnologiyalarni yaratish va qo'llashda ko'rinadi. Bunday texnologiyalarga misol Apple-ning rivojlanishi bo'lib, unda operatsion tizimlar va umuman "bulutli xizmatlar" orqali kirish mumkin bo'lgan barcha dasturiy ta'minot zararli dasturlarga (iOS, iCloud) deyarli sezib bo'lmaydi.

Dasturiy ta'minotni himoya qilish vositalariga boshqarish dasturlari kiradi. Kirishni boshqarishning ba'zi funktsiyalari (identifikatsiya qilish, autentifikatsiya qilish, avtorizatsiya qilish va hokazo) operatsion tizim tomonidan amalga oshiriladi, ammo har doim uning cheklovlari bekor qilinishi mumkin va axborotni himoya qilishning maqbul darajasini ta'minlash uchun maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish kerak. Ushbu vositalar kompyuterning ishlash vaqtini cheklash, ma'lum bir vaqtda operatsion tizimning yuklanishini cheklash va amaliy dasturlarni ishga tushirish, ma'lum manbalarga kirishni yashirish yoki blokirovka qilish va hokazolarni ta'minlaydi. Kirishni boshqarish dasturlarining funktsiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: kirish va parollarning turli tizimlaridan foydalanish, foydalanuvchi darajasiga ko'ra kompyuter tizimlari resurslari bilan ishlash vakolatini aniqlash, barcha avtorizatsiya qilingan ulanishlarni avtomatik ravishda ro'yxatga olish, ruxsatsiz kirish urinishlarini kuzatib borish, yuqori darajadagi xavfli dasturiy ta'minotni to'xtatish. Kirishni boshqarish dasturlariga misollar: Administrator, Homesoft KEY, papka xavfsizligi.

Nazorat uchun savollar:

1. Axborot xavfsizligi nima?
2. Qanday axborot xavfsizligi choralari bilasiz?
3. Virus nima?
4. Uni qanday turlari mavjud?
5. Antivirus vositalarining qanday turlarini bilasiz?
6. Troyan ot nima?

2-mavzu. Qurilish va arxitektura sohasida axborot jarayonlarini algoritmlash va dasturlash

REJA

1. Algoritm tushunchasi.
2. Algoritmning xossalari.
3. Algoritmning turlari.
4. Algoritmning tasvirlash usullari.

Tayanch soʻzlar: Algoritm, diskretlilik, tushunarlilik, aniqlik, ommaviylik, natijaviylik, blok-sxemalar, tarmoqlanuvchi algoritmlar, takrorlanuvchi algoritmlar, siklik algoritmlar.

Yuqorida qayd qilganimizdek, qoʻyilgan biror masalani kompyuterda yechish uchun, avval uning matematik modelini, keyin algoritmini va programmasini tuzish kerak boʻladi. Bu uchlikda algoritm bloki muhim ahamiyatga ega. Endi algoritm tushunchasining taʼrifi va xossalarini bayon qilamiz.

Algoritm bu oldimizga qoʻyilgan masalani yechish uchun zarur boʻlgan amallar ketma-ketligidir.

Algoritm soʻzi va tushunchasi IX asrda yashab ijod etgan buyur alloma Muhammad al-Xorazmiy nomi bilan uzviy bogʻliq. Algoritm soʻzi Al-Xorazmiy nomini Yevropa olimlari tomonidan buzib talaffuz qilinishidan yuzaga kelgan. Al-Xorazmiy birinchi boʻlib oʻnlik sanoq sistemasining tamoyillarini va undagi toʻrtta amallarni bajarish qoidalarini asoslab bergan.

Algoritmning asosiy xossalari. Algoritmning 5-ta asosiy xossasi bor: **Diskretlilik (Cheklilik).** Bu xossaning mazmuni algoritmlarni doimo chekli qadamlardan iborat qilib boʻlamlash imkoniyati mavjudligida. Yaʼni uni chekli sondagi oddiy koʻrsatmalar ketma-ketligi shaklida ifodalash mumkin. Agar kuzatilayotgan jarayonni chekli qadamlardan iborat qilib qoʻllay olmasak, uni algoritm deb boʻlmaydi.

Tushunarlilik. Biz kundalik hayotimizda berilgan algoritmlar bilan ishlayotgan elektron soatlar, mashinalar, dastgohlar, kompyuterlar, turli avtomatik va mexanik qurilmalarni kuzatamiz.

Ijrochiga tavsiya etilayotgan ko'rsatmalar, uning uchun tushinarli mazmunda bo'lishi shart, aks holda ijrochi oddiygina amalni ham bajara olmaydi. Undan tashqari, ijrochi har qanday amalni bajara olmasligi ham mumkin.

Har bir ijrochining bajarishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar yoki buyruqlar majmuasi mavjud, u ijrochining ko'rsatmalar tizimi (sistemi) deyiladi. Demak, ijrochi uchun berilayotgan har bir ko'rsatma ijrochining ko'rsatmalar tizimiga mansub bo'lishi lozim.

Ko'rsatmalarni ijrochining ko'rsatmalar tizimiga tegishli bo'ladigan qilib ifodalay bilishimiz muhim ahamiyatga ega. Masalan, quyi sinfning a'lochi o'quvchisi "son kvadratga oshirilsin" degan ko'rsatmani tushinmasligi natijasida bajara olmaydi, lekin "son o'zini o'ziga ko'paytirilsin" shaklidagi ko'rsatmani bemalol bajaradi, chunki u ko'rsatma mazmunidan ko'paytirish amalini bajarish kerakligini anglaydi.

Aniqlik. Ijrochiga berilayotgan ko'rsatmalar aniq mazmunda bo'lishi zarur. Chunki ko'rsatmadagi noaniqliklar mo'ljaldagi maqsadga erishishga olib kelmaydi. Odam uchun tushinarli bo'lgan "3-4 marta silkitilsin", "5-10 daqiqa qizdirilsin", "1-2 qoshiq solinsin", "tenglamalardan biri yechilsin" kabi noaniq ko'rsatmalar robot yoki kompyuterni qiyin ahvolga solib qo'yadi. Bundan tashqari, ko'rsatmalarning qaysi ketma-ketlikda bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega. Demak, ko'rsatmalar aniq berilishi va faqat algoritmda ko'rsatilgan tartibda bajarilishi shart ekan.

Ommaviylik. Har bir algoritm mazmuniga ko'ra bir turdagi masalalarning barchasi uchun ham o'rinli bo'lishi kerak. YA'ni masaladagi boshlang'ich ma'lumotlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar algorim shu xildagi har qanday masalani yechishga yaroqli bo'lishi kerak. Masalan, ikki oddiy kasrning umumiy mahrajini topish algoritmi, kasrlarni turlicha o'zgartirib bersangiz ham ularning umumiy mahrajlarini aniqlab beraveradi. Yoki uchburchakning yuzini topish algoritmi, uchburchakning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, uning yuzini hisoblab beraveradi.

Natijaviylik. Har bir algoritm chekli sondagi qadamlardan so'ng albatta natija berishi shart. Bajariladigan amallar ko'p bo'lsa ham baribir natijaga olib kelishi kerak. Chekli qadamdan so'ng qo'yilgan masala yechimga ega emasligini aniqlash ham natija hisoblanadi. Agar ko'rilayotgan jarayon cheksiz davom etib natija bermasa, uni algoritm deb atay olmaymiz.

Algoritmning tasvirlash usullari. Yuqorida ko'rilgan misollarda odatda biz masalani yechish algoritmini so'zlar va matematik formulalar orqali ifodaladik. Lekin algoritm boshqa ko'rinishlarda ham berilishi mumkin. Biz endi algoritmlarning eng ko'p uchraydigan turlari bilan

tanishamiz.

1. Algoritmning soʻzlar orqali ifodalanishi. Bu usulda ijrochi uchun beriladigan har bir koʻrsatma jumlar, soʻzlar orqali buyruq shaklida beriladi.




2. Algoritmning formulalar bilan berilish usulidan matematika, fizika, kimyo kabi aniq fanlardagi formulalarni oʻrganishda foydalaniladi. Bu usulni baʼzan analitik ifodalash deyiladi.









3. Algoritmning grafik shaklida tasvirlanishida algoritmlar maxsus geometrik figuralar yordamida tasvirlanadi va bu grafik koʻrinishi blok-sxema deyiladi.

4. Algoritmning jadval koʻrinishda berilishi. Algoritmning bu tarzda tasvirlanishdan ham koʻp foydalanamiz. Masalan, maktabda qoʻllanib kelinayotgan toʻrt xonali matematik jadvallar yoki turli xil lotereyalar jadvallari. Funktsiyalarning grafiklarini chizishda ham algoritmning qiymatlari jadvali koʻrinishlaridan foydalanamiz. Bu kabi jadvallardan foydalanish algoritmлари sodda boʻlgan tufayli ularni oʻzlashtirib olish oson.

Yuqorida koʻrilgan algoritmning tasvirlash usullarining asosiy maqsadi, qoʻyilgan masalani yechish uchun zarur boʻlgan amallar ketma-ketligining eng qulay holatini aniqlash va shu bilan odam tomonidan programma yozishni yanada osonlashtirishdan iborat. Aslida programma ham algoritmning boshqa bir koʻrinishi boʻlib, u insonning kompyuter bilan muloqotini qulayroq amalga oshirish uchun moʻljallangan.

Blok-sxemalarni tuzishda foydalaniladigan asosiy sodda geometrik figuralar quyidagilardan iborat:


Nomi	Belgilanishi	Bajaradigan vazifasi
Jarayon		Bir yoki bir nechta amallarni bajarilishi natijasida maʼlumotlarning uzgarishi
Qaror		Biror shartga bogʻliq ravishda algoritmning bajarilish yunalishini tanlash
SHakl oʻzgartirish		Dasturni uzgartiruvchi buyruk yoki buyruklar turkumini uzgartirish amalini bajarish

Avval aniqlangan jarayon		Oldindan ishlab chikilgan dastur yoki algoritmdan foydalanish
Kiritish Chiqarish		Axborotlarni kayta ishlash mumkin bo'lgan shaklga utkazish yoki olingan natijani tasvirlash
Display		kompyuterga ulangan displeydan axborotlarni kiritish yoki chiqarish
Xujjat		Axborotlarni kogozga chiqarish yoki kogozdan kiritish
Axborotlar okimi chizigi		Bloklar orasidagi boglanishlarni tasvirlash
Boglagich		Uzilib qolgan axborot okimlarini ulash belgisi
Boshlash Tugatish		Axborotni kayta ishlashni boshlash, vaqtincha yoki butunlay tuxtatish
Izox		Bloklarga tegishli turli xildagi tushuntirishlar

Blok-sxemalar bilan ishlashni yaxshilab o'zlashtirib olish zarur, chunki bu usul algoritmlarni ifodalashning qulay vositalaridan biri bo'lib programma tuzishni osonlashtiradi, programmalash qobiliyatini mustahkamlaydi. Algoritmik tillarda blok - sxemaning asosiy strukturalariga maxsus operatorlar mos keladi.

Shuni aytish kerakni, blok-sxemalardagi yozuvlar odatdagi yozuvlardan katta farq qilmaydi.

Misol sifatida $ax^2+bx+c=0$ kvadrat tenglamani yechish algoritmining blok-sxemasi quyida keltirilgan.




1-rasm. Kvadrat tenglamani yechish algoritmi

Chiziqli algoritmlar. Har qanday murakkab algoritmni ham uchta asosiy struktura yordamida tasvirlash mumkin. Bular ketma-ketlik, ayri va takrorlash strukturalaridir. Bu strukturalar asosida chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi hisoblash jarayonlarining algoritmlarini tuzish mumkin. Umuman olganda, algoritmlarni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- chiziqli algoritmlar;
- tarmoqlanuvchi algoritmlar;
- takrorlanuvchi yoki siklik algoritmlar;
- ichma-ich joylashgan siklik algoritmlar;
- rekurrent algoritmlar;
- takrorlanishlar soni oldindan no'malum algoritmlar;
- ketma-ket yaqinlashuvchi algoritmlar.

Faqat ketma-ket bajariladigan amallardan tashkil topgan algoritmlarga-chiziqli algoritmlar deyiladi. Bunday algoritmni ifodalash uchun ketma-ketlik strukturasi ishlatiladi. Strukturada bajariladigan amal mos keluvchi shakl bilan ko'rsatiladi. Chiziqli algoritmlar blok-sxemasining umumiy strukturasi quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:



2-rasm. Chiziqli algoritmlar blok - sxemasining umumiy strukturasi


Misol: Chiziqli algoritmga doir:

$Y=x^2+1$ funksiyani x ning istalgan qiymatida hisoblash algoritmini tuzing.

So'zda berilishi:


Blok-sxemada:

1. Boshlash.
2. x -qiymatini kiritish.
3. $y=x^2+1$ ni hisoblash.
4. y -qiymatini chiqarish.
5. Tamom.



3-rasm

Tarmoqlanuvchi algoritmlar. Agar hisoblash jarayoni biror bir berilgan shartning bajarilishiga qarab turli tarmoqlar bo'yicha davom ettirilsa va hisoblash jarayonida har bir tarmoq faqat bir marta bajarilsa, bunday hisoblash jarayonlariga tarmoqlanuvchi algoritmlar deyiladi. Tarmoqlanuvchi algoritmlar uchun ayri strukturasi ishlatiladi. Tarmoqlanuvchi strukturasi berilgan shartning bajarilishiga qarab ko'rsatilgan tarmoqdan faqat bittasining bajarilishini ta'minlaydi.




4-rasm Tarmoqlanishning umumiy ko'rinishi

Berilgan shart romb orqali ifodalanadi, r-berilgan shart. Agar shart bajarilsa, "ha" tarmoq bo'yicha a amal, shart bajarilmasa "yo'q" tarmoq bo'yicha b amal bajariladi. Tarmoqlanuvchi algoritmga tipik *misol* sifatida quyidagi sodda *misol*ni qaraylik.


$$Y = \begin{cases} x^2 & \text{agar } x \geq 0 \\ -x^2 & \text{agar } x < 0 \end{cases}$$

Berilgan x ning qiymatiga bog'lik holda, agar u musbat bo'lsa «ha» tarmoq bo'yicha $y=x^2$ funksiyaning qiymati, aks holda $y=-x^2$ funksiyaning qiymati hisoblanadi.



5-rasm. Interval ko'rinishidagi funksiya qiymatini hisoblash algoritmi

Ko'pgina masalalarni yechishda, shart asosida tarmoqlanuvchi algoritmlarning ikkita tarmog'idan bittasining, ya'ni yoki «ha» yoki «yo'q» ning bajarilishi yetarli bo'ladi. Bu holat tarmoqlanuvchi algoritmning xususiy holi sifatida aylanish strukturasi deb atash mumkin. Aylanish strukturasi quyidagi ko'rinishga ega:




6-rasm Aylanish strukturasi umumiy ko'rinishi

Takrorlanuvchi algoritmlar. Agar biror masalani yechish uchun tuzilgan zarur bo'lgan amallar ketma-ketligining ma'lum bir qismi biror parametrga bog'liq ko'p marta qayta bajarilsa, bunday algoritm takrorlanuvchi algoritm yoki siklik algoritmlar deyiladi. Takrorlanuvchi

algoritmarga tipik *misol* sifatida odatda qatorlarning yig'indisi yoki ko'patmasini hisoblash jarayonlarini qarash mumkin. Quyidagi yig'indini hisoblash algoritmini tuzaylik.

$$S = 1 + 2 + 3 + \dots + N = \sum_{i=1}^N i$$


Bu yig'indini hisoblash uchun $i=0$ da $S=0$ deb olamiz va $i=i+1$ da $S=S+i$ ni hisoblaymiz. Bu yerda birinchi va ikkinchi qadamlar uchun yig'indi hisoblandi va keyingi qadamda i parametr yana bittaga orttiriladi va navbatdagi raqam avvalgi yig'indi S ning ustiga qo'shiladi va bu jarayon shu tartibda to $i < N$ sharti bajarilmaguncha davom ettiriladi va natijada izlangan yig'indiga ega bo'lamiz. Bu fikrlarni quyidagi algoritm sifatida ifodalash mumkin: N –berilgan bo'lsin, $i=0$ berilsin, $S=0$ berilsin, $i=i+1$ hisoblansin, $S=S+i$ hisoblansin, $i < N$ tekshirilsin va bu shart bajarilsa, 4-satrga qaytilsin, aks holda keyingi qatorga o'tilsin, S ning qiymati chop etilsin.



7-rasm. 1 dan n gacha bo'lgan sonlar yig'indisini hisoblash algoritmi


Yuqorida keltirilgan algoritm va blok sxemadan ko'rinib turibdiki amallar ketma-ketligining ma'lum qismi parametr i ga nisbatan N marta takrorlanayapti.

Yuqorida ko'rilgan yig'indi blok sxemalaridagi takrorlanuvchi qismlariga (aylana ichiga olingan) quyidagi sharti keyin berilgan siklik struktura mos kelishini ko'rish mumkin. Yuqoridagi blok sxemalarda shartni oldin tekshiriladigan holatda chizish mumkin edi. Masalan, yig'indining algoritmini qaraylik. Bu blok sxemaning takrorlanuvchi qismiga quyidagi, sharti oldin berilgan siklik strukturaning mos kelishini ko'rish mumkin.



8-rasm.1 dan n gacha bo'lgan sonlar yig'indisini hisoblash algoritmi

Blok sxemalarining takrorlanuvchi qismlarini, quyidagi parametrlilik takrorlash strukturasi ko'inishida ham ifodalash mumkin.




9-rasm

Parametrlilik takrorlash operatorining umumiy ko'inishi

Parametrlilik takrorlash operatoriga misol sifatida berilgan $x=1,2,3,\dots,10$ larda funksiyasining qiymatlarini hisoblash blok sxemasini qarash mumkin.

$$y = \frac{ax}{a+x}$$



Parametrlilik takrorlash operatoriga doir algoritm


Ichma-ich joylashgan siklik algoritmlar. Ba'zan, takrorlanuvchi algoritmlar bir nechta parametrlarga bog'liq bo'ladi. Odatda bunday algoritmlarni ichma-ich joylashgan algoritmlar deb ataladi.

Misol sifatida berilgan $n \times m$ o'lchovli a_{ij} -matritsa elementlarining yig'indisini hisoblash masalasini qaraylik.

$$S = \sum_{i=1}^n \prod_{j=1}^n (i+j)^2$$

10-rasm

Bu yig'indi hisoblash uchun, i ning har bir qiymatida j bo'yicha ko'paytmani hisoblab, avval yig'indi ustiga ketma-ket qo'shib borish kerak bo'ladi. Bu jarayon quyidagi blok–sxemada aks ettirilgan. Bu yerda i -tashqi sikl - yig'indi uchun, j -esa ichki sikl-ko'paytmani hosil qilish uchun foydalanilgan.



11-rasm. Ichma-ich joylashgan siklik algoritmgaga doir blok-sxema

Nazorat savollari

1. Algoritm tushunchasi.
2. Algoritmning xossalari.
3. Algoritmning turlari.
4. Algoritmning tasvirlash usullari.

4.11 Algorithms

An *algorithm* is a finite sequence of steps, each step taking a finite length of time, that solves a problem or computes a result. A computer program is one example of an algorithm, as is a recipe to make lasagna. In both of these examples, the order of the steps matter. In the case of lasagna, the noodles must be cooked in boiling water before they are layered into the filling to be baked. It would be inappropriate to place the raw noodles into the pan with all the other ingredients, bake it, and then later remove the already baked noodles to cook them in boiling water separately. In the same way, the ordering of steps is very important in a computer program. While this point may be obvious, consider the following sound argument:

1. The relationship between degrees Celsius and degrees Fahrenheit can be expressed as

$$^{\circ}\text{C} = \frac{5}{9} \times (^{\circ}\text{F} - 32)$$

2. Given a temperature in degrees Fahrenheit, the corresponding temperature in degrees Celsius can be computed.

Armed with this knowledge, Listing 4.19 (faultytempconv.cpp) follows directly.

```
Listing 4.19: faultytempconv.cpp
// File faultytempconv.cpp

#include <iostream>

using namespace std;

int main() {
    double degreesF = 0, degreesC = 0;
    // Define the relationship between F and C
    degreesC = 5.0/9*(degreesF - 32);
    // Prompt user for degrees F
```

©2016 Richard E. Heitman

Draft date: March 31, 2016

The concept of *algorithm* has existed for centuries; however, a partial formalization of what would become the modern *algorithm* began with attempts to solve the [Entscheidungsproblem](#) (the "decision problem") posed by [David Hilbert](#) in 1928. Subsequent formalizations were framed as attempts to define "[effective calculability](#)"^[1] or "effective method";^[2] those formalizations included the [Gödel–Herbrand–Kleene recursive functions](#) of 1930, 1934 and 1935, [Alonzo Church's](#) [lambda calculus](#) of 1936, [Emil Post's](#) "[Formulation 1](#)" of 1936, and [Alan Turing's](#) [Turing machines](#) of 1936–7 and 1939. Giving a formal definition of algorithms, corresponding to the intuitive notion, remains a challenging problem.^{[1][2]}

The algorithms we have seen so far have been simple. Statement 1, followed by Statement 2, etc. until every statement in the program has been executed. Chapter 5 and Chapter 6 introduce some language constructs that permit optional and repetitive execution of some statements. These constructs allow us to build programs that do much more interesting things, but more complex algorithms are required to make it happen. We must not lose sight of the fact that a complicated algorithm that is 99% correct is *not* correct. An algorithm's design and implementation can be derailed by inattention to the smallest of details.

3-mavzu. Arxitektura va qurilish soxasida zamonaviy dasturlash texnologiyalari.

REJA:

1. Python dasturlash tili yaratilishi tarixi.
2. Python dasturlash tili imkoniyatlari.
3. Python dasturlash tilini o`rnatish.
4. Python tili sintaksisi, asosiy operatorlari.
5. Operatorlar va ifodalar

Tayanch so'zlar: Python dasturlash tili, o`zgaruvchilar, matematik amallar, operatorlar, funsiya, fayllar, son, satrlar.

Python dasturlash tili yaratilishi tarixi, imkoniyatlari va uni o`rnatish

Python dasturlash tilini yaratilishi 1980-yil oxiri 1990-yil boshlaridan boshlangan. O`sha paytlarda uncha taniqli bo`lmagan Gollandiyaning CWI instituti xodimi Gvido van Rossum ABC tilini yaratilish proektida ishtirok etgan edi. ABC tili Basic tili o`rniga talabalarga asosiy dasturlash konsepsiyalarini o`rgatish uchun mo`ljallangan til edi. Bir kun Gvido bu ishlardan charchadi va 2 hafta davomida o`zining Macintoshida boshqa oddiy tilning interpretatorini yozdi, bunda u albatta ABC tilining ba`zi bir g`oyalarini o`zlashtirdi. Shuningdek, Python 1980-1990-yillarda keng foydalanilgan Algol-68, C, C++, Modul3 ABC, SmallTalk tillarining ko`plab xususiyatlarini o`ziga olgandi. Gvido van Rossum bu tilni internet orqali tarqata boshladi. Bu paytda o`zining "Dasturlash tillarining qiyosiy taqrizi" veb sahifasi bilan internetda to 1996-yilgacha Stiv Mayevskiy ismli kishi taniqli edi. U ham Macintoshni yoqtirardi va bu narsa uni Gvido bilan yaqinlashtirdi. O`sha paytlarda Gvido BBC ning "Monti Paytonning havo sirki" komediyasining muxlisi edi va o`zi yaratgan tilni Monti Payton nomiga Python deb atadi (ilon nomiga emas).

Til tezda ommalashdi. Bu dasturlash tiliga qiziqqan va tushunadigan foydalanuvchilar soni ko`paydi. Boshida bu juda oddiy til edi. Shunchaki kichik interpretator bir nechta funksiyalarga ega edi. 1991-yil birinchi OYD(Obyektga Yo`naltirilgan Dasturlash) vositalari paydo bo`ldi.

Bir qancha vaqt o`tib Gvido Gollandiyadan Amerikaga ko`chib o`tdi. Uni CNRI korporatsiyasiga ishlashga taklif etishdi. U o`sha yerda ishladi va korporatsiya shug`ullanayotgan proektlarni Python tilida yozdi va bo`sh ish vaqtlarida tilni interpretatorini rivojlantirib bordi. Bu 1990-yil Python 1.5.2 versiyasi paydo bo`lguncha davom etdi. Gvidoning asosiy vaqti korporatsiyani proektlarini yaratishga ketardi bu esa unga yoqmasdi. Chunki uning Python dasturlash tilini rivojlantirishga vaqti qolmayotgandi. Shunda u o`ziga tilni rivojlantirishga

imkoniyat yaratib bera oladigan homiy izladi va uni o`sha paytlarda endi tashkil etilgan BeOpen firmasi qo`llab quvvatladi. U CNRI dan ketdi, lekin shartnomaga binoan u Python 1.6 versiyasini chiqarib berishga majbur edi. BeOpen da esa u Python 2.0 versiyani chiqardi. 2.0 versiyasi bu oldinga qo`yilgan katta qadamlardan edi. Bu versiyada eng asosiysi til va interpretatorni rivojlanish jarayoni ochiq ravishda bo`ldi.

Shunday qilib 1.0 versiyasi 1994-yil chiqarilgan bo`lsa, 2.0 versiyasi 2000-yil, 3.0 versiyasi esa 2008-yil ishlab chiqarildi. Hozirgi vaqtda uchinchi versiyasi keng qo`llaniladi.

Python dasturlash tili imkoniyatlari

Python – bu o'rganishga oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo'lgan oz sonlik zamonaviy dasturlash tillari qatoriga kiradi. **Python** yuqori darajadagi ma'lumotlar strukturasi va oddiy lekin samarador obyektga yo'naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi.

Pythonning o'ziga xosligi

- Oddiy, o'rganishga oson, sodda sintaksisga ega, dasturlashni boshlash uchun qulay, erkin va ochiq kodlik dasturiy ta'minot.
- Dasturni yozish davomida quyi darajadagi detallarni, misol uchun xotirani boshqarishni hisobga olish shart emas.
- Ko'plab platformalarda hech qanday o'zgartirishlarsiz ishlay oladi.
- Interpretatsiya(Интерпретируемый) qilinadigan til.
- Kengayishga (Расширяемый) moyil til. Agar dasturni biror joyini tezroq ishlashini xohlasak shu qismni C yoki C++ dasturlash tillarida yozib keyin shu qismni python kodi orqali ishga tushirsa(chaqirsa) bo'ladi.
- Juda ham ko'p xilma-xil kutubxonalarga ega.
- xml/html fayllar bilan ishlash
- http so`rovlari bilan ishlash
- GUI(grafik interfeys)
- Web ssenariy tuzish
- FTP bilan ishlash
- Rasmlari audio video fayllar bilan ishlash
- Robot texnikada
- Matematik va ilmiy hisoblashlarni programmalash


Pythonni katta projeklarda ishlatish mumkin. Chunki, uni chegarasi yo`q, imkoniyati yuqori. Shuningdek, u sodda va universalligi bilan programmalash tillari orasida eng yaxshisidir.

Python dasturlash tilini o`rnatish.

Agar siz biror GNU/Linux distributivini ishlatayotgan bo'lsangiz ko'p xollarda sizning tizimingizda **python** o'rnatilgan bo'ladi. Buni tekshirib ko'rish uchun terminalingizdan quyidagi buyruqni ishga tushirib ko'ring. **python -V**


Agar sizda **Python 3.4.3** yozuvi yoki shunga o'xshash yozuv hosil bo'lsa unda hammasi joyida.

Windows operatsion tizimiga o'rnatish uchun www.python.org/downloads web sahifasiga o'tamiz va u yerdan oxirgi python versiyasini yuklab olamiz. Pythonni o'rnatish odatiy dasturlarni o'rnatish kabi kechadi. Hech qanday qiyin joyi yo'q.




1-rasm. Python dasturining o'rnatiluvchi fayli.

Python dasturlash tilining o'rnatuvchi paketini ustiga sichqoncha ko'ratkichini 2 marta bosamiz va bizga quyidagi oyna hosil bo'ladi.




2-rasm. Python dasturini o'rnatishni boshlashni ko'rsatuvchi oyna.

Bu yerda **Install for all users**-barcha foydalanuvchilar uchun. **Install just for me**- faqat siz uchun, agar buni tanlab istalyatsiya qilsak ya'ni o`rnatsak Windows Vista operations sistemasida xatolik yuz beradi va dastur ishlamaydi. Shuning uchun **Install for all users** ni tanlaganimiz maqul. Keyin next tugmasi bosamiz.




3-rasm. Python dasturini o`rnatilish joyini ko`rsatish oynasi.

Bu yerda esa Python dasturlash tilini qayerda o`rnatilishi ko`rsatilayapti.



4-rasm. Python dasturini o`rnatilish jarayoni.

Python o`rnatilyapti va bir necha sekunddan so`ng quyidagi oyna namoyon bo`ladi:



5-rasm. PIP kutubxonasini qo`shish jarayonida hosil boladigan oyna.
Bunda Console rejimida dastur ishga tushib **pip** kutubxonasini qo`shadi.



6-rasm. Python dasturini o`rnatish tugallanganligi haqidagi muloqot oynasi.
Va dasturni o`rnatish muvaffaqiyatli tugallandi.

Python tili sintaksisi, asosiy operatorlari.

Python tili sintaksisi o`zi kabi sodda

- Satr oxiri instruksiyaning oxiri hisoblanadi (nuqta vergul shart emas)
- Har bir qator boshidagi bo`sh joy(отступ) muhim ahamiyatga ega. Kiritilgan amallar bo`sh joylarning kattaligiga qarab **bloklarga** birlashadi. Bo`sh joy istalgancha bo`lishi mumkin asosiysi bitta kiritilgan blok chegarasida bo`sh joy bir xil bo`lishi kerak. Noto`g`ri qo`yilgan bo`sh joylar xatolik yuz berishiga olib kelishi mumkin. Bitta probel bilan bo`sh joy hosil qilish yaxshi qaror emas uni o`rniga to`rtta probel yoki Tab belgisini ishlatish kerak.
- Pythonga kiritilgan amallar bir xil shablonda yoziladi. Bunda asosiy amal ikki nuqta bilan tugatiladi va uning orqasidan kiritilgan blok kodi ham joylashadi. Odatda, asosiy amalning ostidagi satr bo`sh joy bilan ajratiladi.

Bir nechta maxsus holatlar

- Bazen bir nechta amalni bitta satrga nuqtali vergul bilan ajratgan holda yozish mumkin.

```
a = 1; b = 2; print(a, b)
```

Buni ko`p ham qo`llamang! Yaxshisi bunday qilmang, o`qishga noqulay.

- Bitta amalni bir nechta satrga yozish mumkin faqat aylana, to`rtburchak va figurali qavslardan foydanish kerak.

```
if (a == 1 and b == 2 and
    c == 3 and d == 4):
    print('spam'*3)
```

Kalit so`zlar

False – yolg`on.

True - rost.

None - “bo`sh” obyekt.

and – mantiqiy VA amali.

with / as – konteks menejeri.

break –tsikldan chiqish.

class – metod va atributlarda iborat.

continue – tsikldan keyingi iteratsiyaga o`tish.

def – funksiyani aniqlash.

del – obyektни yo`qotish.

elif – aks holda, agar.

else – for/else yoki if/elsega qarang.

for – for tsikli.

from – moduldan bir nechta funksiyani import qilish.

if - agar.

import – moduldan import.

is –xotirani bitta joyida 2 ta obyektни jo`natsa bo`ladimi.

lambda –yashirin funksiyani aniqlash.

not – mantiqiy inkor amali.

or –mantiqiy Yoki amali.

while – while tsikli.

Komentariy

Kommentariy. *Kommentariy* # simvolidan keyin yoziladi va dastur kodini o'qiyotgan dasturchi uchun eslatma bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun:

```
print('salom dunyo!') # print — bu funksiya
```

yoki:

```
# print — bu funksiya
```

```
print('salom dunyo!')
```

Komentariy dastur kodini o'qiyotganlar uchun foydali bo'ladi va dastur nima qilishini oson tushunishga yordam beradi. Unga yechimdagi muhim joylarni, muhim bo'lgan qismlarni yozish mumkin.

O`zgaruvchilar

Biror ma'lumotni saqlash va uning ustida turli amallarni bajarish uchun bizga o'zgaruvchilar yordam beradi. O'zgaruvchining qiymati, o'z nomi bilan aytib turibdiki, o'zgarishi mumkin. Unda xohlagan qiymatni saqlash mumkin. O'zgaruvchilar kompyuter xotirasidagi joy bo'lib, u yerda siz biror ma'lumotni saqlaysiz. O'zgaruvchining konstantadan farqi, o'zgaruvchiga dastur ishlashi davomida (run time) murojaat qilib, uning qiymatini o'zgartira olamiz. Konstantaga esa oldindan ma'lum bir qiymat beriladi va bu qiymatni o'zgartirib bo'lmaydi.

O'zgaruvchilarni nomlashda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- O'zgaruvchining birinchi belgisi alifbo harfi (ASCII simvollari katta va kichik registrda) yoki “_” (ostki chiziq) simvoli bo'lishi mumkin.
- O'zgaruvchilarning qolgan qismi harflardan (ASCII simvollari katta va kichik registrda), “_” (ostki chiziq) simvoli va raqamlardan(0-9) tashkil topishi mumkin.
- O'zgaruvchilar nomlashda katta va kichik registrlar farqlanadi. Masalan, *myname* va *myName* – bular boshqa-boshqa o'zgaruvchi hisoblanadi.
- O'zgaruvchilarni to'g'ri nomlashga misollar: *i*, *_my_name*, *name_23*, *a1b2_c3*
- O'zgaruvchilarni noto'g'ri nomlashga misollar: *2things*, *' '*, *my-name*, *>a1b2_c3* va “o'zgaruvchi qo'shtirnoqda”

O`zgaruvchi va konstantalarni qo`llanishiga misol:

```
i = 5
print(i)
i = i + 1
print(i)
s = "Bu ko'p qatorlik satr.
Bu uning ikkinchi qatori."
print(s)
Natija:
5
6
Bu ko'p qatorlik satr.
Bu uning ikkinchi qatori.
```

Yuqoridagi misolda dastlab biz 5 konstanta qiymatini '=' operatori yordamida *i* o'zgaruvchiga o'zlashtirib olamiz.

```
i = 5
```

so'ng *i* o'zgaruvchi qiymatini print funksiyasi orqali ekranga chop etamiz.

```
print(i)
```

i o'zgaruvchining qiymatiga 1 qo'shamiz va o'zgaruvchining o'ziga saqlaymiz. So'ng *i* o'zgaruvchining qiymatini chop etamiz.

```
i = i + 1
```

```
print(i)
```

Yuqoridagi kabi satr konstanta qiymatini *s* o'zgaruvchiga biriktiramiz va shundan so'ng uni chop etamiz.

```
s = "Bu ko'p qatorlik satr.
```

```
Bu uning ikkinchi qatori."
```

```
print(s)
```

Eslatma: O'zgaruvchilar oddiy qiymat biriktirish bilan ishlatiladi. Hech qanday oldindan e'lon qilib qo'yish talab etilmaydi.

Operatorlar va ifodalar

Dasturdagi ko'p amallar (mantiqiy qatorlar) ifodalardan tashkil topgan. Bunga oddiy misol: $2 + 3$. Ifodani operatorlar va operandlarga ajratish mumkin. **Operator** – bu biror amalni bajaruvchi va simvol yordamida yoki zaxiraga olingan so'zlar yordamida ifodalanadigan funksional. Operatorlar qiymatlar ustida biror amalni bajaradi va bu qiymatlar **operandlar** deyiladi. Bizning xolatda 2 va 3 – bu operandlar.

Operator	Nomlanishi	Ta'rifi	Misol
+	Qo'shish	Ikkita ob'yektning yig'indisini hisoblaydi	$3 + 5$ ifoda 8 ni beradi; 'a' + 'b' ifoda 'ab' ni beradi.
-	Ayirish	Ikkata sonning farqini beradi. Agar birinchi operand mavjud bo'lmasa, uning qiymati 0 ga teng deb olib ketiladi.	-5.2 manfiy qiymat beradi, $50 - 24$ ning qiymati esa 26 ga teng.
*	Ko'paytirish	Ikkita son ko'paytmasini beradi yoki satrni ko'rsatilgan miqdorda takrorlangan yangi satrni qaytaradi.	$2 * 3$ ifoda 6 beradi. 'xa' * 3 ifoda 'xaxaxa' ni qaytaradi.
**	Darajaga ko'tarish	x sonini y darajaga ko'tarilganda hosil bo'lgan qiymatni qaytaradi.	$3^{**}4$ ifoda 81 ni qaytaradi (ya'ni $3*3*3*3$)
/	Bo'lish	'x' ni 'y' ga bo'lganda hosil bo'lgan bo'linmani qaytaradi.	$4 / 3$ ifoda 1.3333333333333333 ni beradi.
//	Qoldiqsiz bo'lish	Bo'lishdan	$4 // 3$ ifoda 1 ni

		hosil bo'lgan bo'linmaning qoldiqsiz butun qismini qaytaradi.	qaytaradi.
%	Qoldiqlik bo'lish	Bo'lishdan hosil bo'lgan qoldiqni qaytaradi.	8 % 3 ifoda 2 ni beradi. -25.5 % 2.25 ifoda 1.5 ni beradi.
<<	Chapga surish	Bit sonni chapga ko'rsatilgan miqdorda suradi.	2 << 2 ifoda 8 ni beradi. Ikkilik sanoq tizimida 2 soni 10 ko'rinishiga ega bo'ladi. Chapga 2 bit miqdorida surish 1000 beradi, bu o'nlik sanoq tizimida 8 ni beradi.
>>	O'ngga surish	Bit sonni o'ngga ko'rsatilgan miqdorda suradi.	11 >> 1 ifoda 5 ni beradi. Ikkilik sanoq sistemasida 11 soni 1011 ko'rinishida bo'ladi uni 1 bit o'ngga sursak 101 hosil bo'ladi va bu onlik sanoq tizimida 5 ni beradi.
&	'Va' bit operatori (Побитовое И)	Sonlar ustida 'va' bit operatsiyasini bajaradi.	5 & 3 ifoda 1 ni beradi
	'Yoki' bit operatori (Побитовое ИЛИ)	Sonlar ustida 'yoki' bit operatsiyasini	5 3 ifoda 7 ni beradi

		bajaradi.	
^	'shartlik yoki' bit operatori (Побитовое ИСКЛЮЧИТЕЛЬНО ИЛИ)	Sonlar ustida 'shartlik yoki' bit operatsiyasini bajaradi.	$5 \wedge 3$ ifoda 6 ni beradi
~	'Emas' bit operatori Побитовое НЕ	'Emas' bit operatsiyasi x soni uchun $\neg(x+1)$ ga to'g'ri keladi.	~ 5 ifoda 6 ni beradi.
<	Kichik	X qiymat y qiymatdan kichikligini aniqlaydi. Hamma qiyoslash operatorlari True yoki False qaytaradi. Bu so'zlardagi katta xarflarga e'tibor bering.	$5 < 3$ False qaytaradi $3 < 5$ ifoda esa True qaytaradi. Ixtiyoriy bir – biri bilan bog'langan ifodalar tuzish ham mumkin: $3 < 5 < 7$ ifoda True ni qaytaradi
>	Katta	X qiymat y qiymatdan katta ekanligini aniqlaydi.	$5 > 3$ ifoda True ni qaytaradi.
<=	Kichik yoki teng	x qiymat y qiymatdan kichik yoki teng ekanligini aniqlaydi.	$x = 3; y = 6; x \leq y$ ifoda True qaytaradi.

\geq	Katta yoki teng	x qiymat y qiymatdan katta yoki teng ekanligini anqlaydi.	$x = 4; y = 3; x \geq 3$ ifoda True qaytaradi.
$==$	Teng	Ob'yektlarning tengligini tekshiradi	$x = 2; y = 2; x == y$ ifoda True qaytaradi. $x = 'str'; y = 'stR';$ $x == y$ ifoda False qaytaradi. $x = 'str'; y = 'str';$ $x == y$ ifoda True qaytaradi.
$!=$	Teng emas	Ob'yektlar teng emasligi to'g'riligini tekshiradi.	$x = 2; y = 3; x != y$ ifoda True qaytaradi.
Not	Mantiqiy 'emas' (Логическое НЕ)	Agar x True bo'lsa, operator False qaytaradi. Agar x False bo'lsa operator True qaytaradi.	$x = True; not x$ ifoda False qaytaradi.
And	Mantiqiy 'va' (Логическое И)	$x and y$ ifoda False qaytaradi agar x False bo'lsa. Aks holda y ning qiymatini qaytaradi.	$x = False; y = True;$ $x and y$ ifoda False qaytaradi, sababi x равно False. Bu holda Python y ning qiymatini tekshirib o'tirmaydi sababi 'and' operatoridan chapdagi ifoda

			qismi False ga teng va butun ifoda qiymati boshqa operatorlar qiymatlariga bog'liqsiz ham False bo'ladi.
Or	Mantiqiy 'yoki'	x or y agar x True ga teng bo'lsa True qaytaradi aks xolda y ning qiymatini qaytaradi.	x = True; y = False; x or y ifoda True qaytaradi.

1.2.1-chizma. Operatorlar va ularning qo'llanilishi

Operatorlar va ularning qo'llanilishini qisqacha ko'rib chiqamiz. Misol uchun, arifmetik ifodalarini tekshirib ko'rish uchun interaktiv interpretatordan foydalanishimiz mumkin. Python interpretatori xuddi kalkulator kabi ishlaydi.

```
>>> 2+3
5
>>> 10.5-2.0
8.5
>>> 15-3
12
>>> 8*9
72
>>> 25/3
8.333333333333334
>>> 8**150
29073548971824275621972952315520181374145654427492722411259607967225571524535916
93304764202855054262243050086425064711734138406514458624
>>> 36%5
1
>>> 36//5
7
```

Matematik amallar va o'zlashtirishlarni qisqacha yozish

Ko'pincha bir o'zgaruvchi ustida biror matematik amal bajarib, natijani o'sha o'zgaruvchining o'ziga o'zlashtirish zaruriyati tug'iladi. Bu holda amallarni qisqacha yozish mumkin. Siz

$$a = 2; a = a * 3$$

ni quyidagicha yozishingiz mumkin:

$$a = 2; a *= 3$$

Amallar bajarilish ketma-ketligi

$2 + 3 * 4$ ifodada qaysi amal birinchi bajariladi: qo'shishmi yoki ko'paytirish?

Matematika fanida ko'paytirish birinchi bajarilishi ko'rsatilgan. Demak, ko'paytirish operatori qo'shish operatoriga qaraganda katta prioritetga(muhimlik darajasiga) ega. Quyidagi jadvalda Python operatorlari prioriteti ko'rsatilgan. Bunda yuqoridan pastga qarab Python operatorlari prioriteti oshib boradi. Bu shuni anglatadiki, ixtiyoriy ifodada Python oldin eng quyidagi operatorlarni hisoblaydi va keyin esa yuqoridagilarini. Amaliyotda esa amallarni qavslar bilan aniq ajratish tavsiya etiladi. Bu dastur kodini oson o'qishga yordam beradi.

Operator	Izoh
Lambda	lambda ifoda
Or	Mantiqiy 'yoki'
And	Mantiqiy 'va'
Not x	Mantiqiy 'emas'
in, not in	Tegishlilikni tekshirish
is, is not	Bir xillikni tekshirish
<, <=, >, >=, !=, ==	Taqqoslash
	'yoki' bit operatori
^	'shartlik yoki' bit operatori
&	'va' bit operatori

<<, >>	Surilishlar
+, -	Qo'shish va ayirish
*, /, //, %	Ko'paytirish, bo'lish, qoldiqsiz bo'lish va qoldiqlik bo'lish
+x, -x	Musbat va manfiy
~x	'emas' bit operatori
**	Darajaga ko'tarish
x.attribute	Atributga link
x[index]	Indeks bo'yicha murojat
x[index1:index2]	Kesib olish
f(argumentlar ...)	Funksiyani chaqirish
(ifoda, ...)	Kortej (Связка или кортеж)
[ifoda, ...]	Ro'yhat (Список)
{kalit:qiymat, ...}	Lug'at (Словарь)

1.2.2-chizma. Python operatorlari prioriteti.

Bu jadvalda bir xil prioritetga ega bo'lgan operatorlar bir qatorda joylashgan. Misol uchun '+' va '-'.

Hisoblash tartibini o'zgartirish

Ifodalarni o'qishni osonlashtirish uchun qavslarni ishlatish mumkin. Misol uchun, $2 + (3 * 4)$ ni tushunish oson operatorlar prioritetini bilish lozim bo'lgan $2 + 3 * 4$ ifodadan ko'ra. Qavslarni o'ylab ishlatish kerak. Ortiqcha qavslarni ishlatishdan saqlaning. Misol uchun: $(2 + (3 * 4))$.

Qavslarni ishlatishni ya'na bir afzalligi hisoblash tartibini o'zgartirish imkonini beradi. Misol uchun, qo'shish amalini ko'paytirish amalidan birinchi bajarish kerak bo'lsa, quyidagicha yozish mumkin:

$$(2 + 3) * 4.$$

If- shart operatori.

If operatori shartni tekshirish uchun ishlatiladi. Pythonda shart operatorini bir necha xil ko'rinishi mavjud:

- 1. if (mantiqiy ifoda):-** shart operatorining bu ko'rinishi mantiqiy ifoda rost bo'lgan holda qandaydir kod bajarilishi uchun ishlatiladi.
- 2. if (mantiqiy ifoda):...else-**shart operatorining bu ko'rinishida mantiqiy ifoda rost bo'lsa, birinchi ifodalar bloki bajariladi(bu blok "if-blok" deb nomlanadi), **aks holda** keyingi ifodalar bloki bajariladi(bu blok "else-blok" deb nomlanadi).
- 3. if (mantiqiy ifoda):...elif(mantiqiy ifoda):...else-** shart operatorining bu ko'rinishida oldingi shart yolg'on bo'lganda keyingi shart tekshiriladi. Bu ifoda o'zida ikkita bir-biriga bog'liq bo'lgan **if else-if else** ifodani bir ifodada **if elif else** saqlaydi. Bu dasturni o'qishni osonlashtiradi.

If operatoriga misol:

```
baho=5
if baho==5:
    print(baho,"a'lo baho")
```

Natija

```
>>>
5 a'lo baho
>>> |
```

Kiritilgan sonning juft toqligini aniqlash:

```
a=int(input("sonni kirit="))
if (a%2==0):
    print("juft son")
else:
    print("toq son")
```

Natija:

```
sonni kirit=5
toq son
```

Kiritilgan sonni musbat manfiyligini aniqlash:

```
a=int(input("sonni kirit="))
if (a>0):
    print("musbat son")
elif(a<0):
    print("manfiy son")
else:
    print("nolga teng")
```

Natija:

```
sonni kirit=-125
manfiy son
```

If operatorini pythonda nafaqat shart operatori sifatida balki tanlash operator (switch) sifatida ham qo'llash mumkin. Masalan:

A va B haqiqiy sonlarni hamda arifmetik amal belgisini kiritgandan keyin ifodani hisoblash dasturi:

```
a=int(input('1-sonni kiriting='))
b=int(input('2-sonni kiriting='))
k=input('amal belgisini kiriting=')
if k=='^': print(a**b)
elif k=='-': print(a-b)
elif k=='*': print(a*b)
elif k=='/': print(a/b)
else: print(a+b)
```

Natija:

```
1-sonni kiriting=25
2-sonni kiriting=35
amal belgisini kiriting=^
8470329472543003390683225006796419620513916015625
> # 25 ni 35 chi darajasini hisoblab chiqardi
```

Yil oylarining raqami kiritilgach oy necha kundan iborat ekanligini topish dasturi:

```
m = int( input("yil oyining raqamini kiriting: ") )
if m == 2: d = 28
elif m in [1,3,5,7,8,10,12]: d = 31
else: d = 30

print(m, "-oy", d , 'kundan iborat')
```


Natija:

```
yil oyining raqamini kiriting: 2
2 -oy 28 kundan iborat
```

Pythonda rostlikka tekshirish

- Har qanday nolga teng bo'lmagan son yoki bo'sh bo'lmagan obyekt-rost
- Nol yoki bo'sh obyekt-yolg'on
- Taqqoslash amallari True yoki False qiymat qaytaradi
- Mantiqiy operatorlar and va or rost yoki yolg'on obyekt-operandni qaytadi

Mantiqiy operatorlar:

X and Y

Rost, agar x va y ham rost bo'lsa

X or Y

Rost, agar x yoki y dan bittasi rost bo'lsa

Not X

Rost, agar x yolg'on bo'lsa

While sikl operatori

While operatori quyidagi umumiy ko'rinishga ega:

```
While (shart) {
```

```
sikl_tanasi)
```

While sikl operatorining ishlash tartibi

Agar (shart) rost (**true**) qiymatga ega bo'lsa, **sikl_tanasi** bajariladi. Qachonki shart yolg'on (**false**) qiymatga teng bo'lsa sikl tugatiladi.

Agar (shart) true qiymatga ega bo'lmasa sikl tanasi biror marta ham bajarilmaydi.

Toq sonlarni ekranga chiqarish:

```
k=1
while k<=10:
    print(k)
    k+=2
```

Natija:

```
1
3
5
7
9
```

For operatori

Python dasturlash tilida **for** operatori C va Paskal dasturlash tillarida qo'llanishidan farq qiladi. Python da **for** operatori biroz murakkabroq, lekin **while** sikliga qaraganda ancha tezroq bajariladi. **For...in** operatori obyektlar ketma-ketligida iteratsiyani amalga oshiradi, ya'ni bu sikl har qanday iteratsiya qilinadigan obyekt bo'ylab o'tadi(satr yoki ro'yxat bo'ylab) va har bir o'tish vaqtida sikl tanasini bajaradi.

For operatoriga misol:

```
for i in 'salom dunyo':
    print(i*2, end='')

ssaalloomm dduunyyoo
```

Range() va xrange funksiyasi

Agar dasturda sonlarni ketma-ket chiqarish kerak bo'lsa **range()** funksiyasidan foydalaniladi. U arifmetik progressiyaga asoslangan ro'yxat tuzadi.

```
>>> range(10)
[0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9]
```

Range(10) funksiyasi 10 ta elementdan iborat bo'lgan ro'yxat tuzadi. Bunda yuqori chegara sifatida 10 beriladi, lekin u yaratilgan ro'yxat ketma-ketligiga kirmaydi. Shuningdek funksiyaga quyi chegara va qadamni ham berish mumkin.

```
>>> range(5,10)
[5, 6, 7, 8, 9]
>>> range(0,10,3)
[0, 3, 6, 9]
>>> range(-10,-100,-30)
[-10, -40, -70]
```

Ketma-ketlik indekslarini tanlash uchun range() va len() funksiyalarini birgalikda ishlatib.

```
a=['Mariyanning','kichkina','qo`zichog`i','bor']
for i in range(len(a)):
    print (i, a[i])

0 Mariyanning
1 kichkina
2 qo`zichog`i
3 bor
|
```

Katta diapazondagi raqamlardan foydalanib ro'yxatni yaratish **range()** funksiyasi o'zini oqlamaydi yoki ba'zi hollarda xotira yetishmaydi.

```
>>> l=range(10000000)
Traceback (innermost last):
  File "<stdin>", line 1, in ?
MemoryError
```

Shunday hollarda Python da **xrange()** funksiyasidan foydalaniladi.

Break operatori

Break operatori agar siklning bajarilish sharti hali **False** qiymat olmagan bo'lsa ham yoki ketma-ketlik elementlari hali tugamagan bo'lsa ham siklni to'xtatish, ya'ni buyruqlar bajarilishini to'xtatish uchun xizmat qiladi. Shuni aytib o'tish kerakki, **for** yoki **while** sikllarini **break** operatori bilan to'xtatilsa, ularga tegishli bo'lgan **else** bloki bajarilmaydi.

Misol:

```
for i in "hello world":
    if i=='o':
        break
    print(i*2, end='')
```

Natija:

```
hheelllll
```

Continue operatori

Continue operatori joriy blokda o'zidan keyingi qolgan barcha buyruqlarni bajarmay siklning keyingi iteratsiyasidan davom ettirish uchun ishlatiladi.

Misol:

```
for i in "hello world":
    if i=='o':
        continue
    print(i*2, end='')
```

Natija:

```
hheelllll wwrrllldd
```

Funksiya, fayllar bilan ishlash, sanoq sistemasi va son.

Funksiyani aniqlash. **Def** kalit so'zi funksiyani aniqlashni taqdim etadi. **Def** so'zidan so'ng **funksiya nomi** va qavs ichida **formal parametrlar ro'yxati** ko'rsatiladi. Funksiya tanasini hosil qiluvchi instruksiyalar keyingi qatordan boshlab bo'sh joy (отступ) bilan yoziladi. Misol sifatida Fibonacci sonlar ro'yxatini chiqaradigan funksiyani yaratishimiz mumkin:

```
def fib(n):
    a, b = 0, 1
    while b < n:
        print( b),
        a, b = b, a+b # funksiyaga tegishli blok

fib(2000) # funksiyani chaqirish
```

Natija:

1 1 2 3 5 8 13 21 34 55 89 144 233 377 610 987

Yana bir misol sifatida kiritilgan sonning raqamlar yig'indisini hisoblovchi dasturni funktsiya yordamida yechishni ko'rsak:

```
""" Fuksiyadan foydalanish Kiritilishi:
    12345
    Natijani chiqarish:
    Raqamlar yigindisini:15
    """
def sumDigits(n):
    sum = 0
    while n != 0:
        sum += n % 10
        n = n // 10
    return sum

N = int ( input("son kiriting: ") )
print ( "sonning raqamlar yig'indisi=", sumDigits(N))
```

Natija:

```
son kiriting: 123
sonning raqamlar yig'indisi= 6
```

Python dasturiga kiritilgan funktsiyalar. Tiplarni o'zgartiruvchi funktsiyalar.

bool(x)- rostlikka tekshirishni standart usulidan foydalanuvchi bool tipiga o'zgartirish. Agar x yolg'on bo'lsa yoki tushirib qoldirilgan bo'lsa, False qiymatini qaytaradi, aksincha esa True qaytaradi.

bytearray([manba, [kodlash[xatolar]])- bytearray ga o'zgartirish. Bytearray- $0 \leq x < 256$ diapazondagi butun sonlarni o'zgarimas ketma-ketligi. Konstruktor argumentlari bytearray() ga mos ko'rinishga ega bo'ladi.

complex([real],[image])- kompleks songa o'zgartirish.

dict(object)- lug'atga o'zgartirish.

float([x])-haqiqiy songa o'zgartirish. Agar argument ko'rsatilmagan bo'lsa, 0.0 qaytaradi.

frozenset([ketma-ketlik])

int([object],[asosiy sanoq sistemasini])- butun sonni berilgan sanoq sistemasidan o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazish.

list([object])-ro'yxat tuzadi.

memoryview(object)- memoryview obyektini tuzadi.

object()-hamma obyektarga asos bo'lgan bosh obyektini qaytaradi.

range([start=0], stop,[step=1])- step qadamli start dan stop gacha bo'lgan arifmetik progressiya.

set(object)-to'plamni yaratadi.

slice([start=0], stop, [step=1])-step qadamga ega startdan stopgachaga bo`lgan kesma obekti.

tuple(obj)- kortejga o`zgartiradi

Qo`shimcha funksiyalar

abs(x)- absolyut raqamni (sonni modulini) qaytaradi.

all(ketmaketlik)- agarda hamma elementlar haqiqiy bo`lsa (yoki ketmaketlik bo`sh bo`lsa) True ni qaytaradi.

any(ketmaketlik)-agarda elementlardan hech bo`lmaganda bittasi haqiqiy bo`lsa True ni qaytaradi. Bo`sh ketmaketlik uchun False qaytaradi.

ascii(object)- repr ga o`xshab obyekt ko`rinishiga mos qatorni ekranga xuddi shunday qaytaradi.

```
>>> ascii('A')
"'A'"
>>> ascii(64)
'64'
>>> repr('A')
"'A'"
>>> repr(64)
'64'
```

bin(x)- butun sonni ikkilik sanoq sistemasiga o`tkazadi

chr(x)- x ning Unicode ga mos belgini qaytaradi.

classmethod(x)- sinf metodi ko`rsatgan funksiyani taqdim etadi.

compile(source, filename, mode, flags=0, don't_inherit=False)- ketmaketlik eval yoki exec funksiyalari bilan bajariladigan dastur kodiga komplyatsiya qilinishi. Qator karetkani qaytaruvchi belgilar yoki nolga teng baytlarga ega bo`lmasligi kerak.

delattr(object, name)- "name" nomidan atributni qaytaradi.

dir([object])- obyekt nomlarining ro`yxati, agar obyekt ko`rsatilmagan bo`lsa, local maydondagi nomlar ro`yxati.

divmod(a,b) – a ni b ga bo`lganda hosil bo`lgan bo`linmaning butun va qoldiq qismi.

enumerate(iterable, start=0)- nomer va unga mos ketmaketlik a`zosi dan tarkib topgan kortejni har bir o`tishda taqdim etuvchi iteratorni qaytaradi.

eval(expression, globals=None, locals=None)- dastur kodi qatorini bajaradi.

filter(function, iterable)- function yordamida rost qiymatni elementlarga qaytaruvchi iteratorni qaytaradi.

format(value [,format_spec])- formatlash (qatorni formatlash).

getattr(object, name,[default])- obyekt atributini yoki default.globals()-global nomlar lugatini chiqaradi.

hasattr(object, name)- "name" nomidagi atribut obyektga ega ekanligini tekshiradi.

hash(x)- ko`rsatilgan obyektning heshini qaytaradi.

help([object])- dasturni yordam qismiga kiritilgan ma'lumotnoma tizimini chaqirish.

hex(x)- butun sonni o'n oltilik sanoq sistemasiga o'tkazish.

id(object)-obyekt manzilini qaytaradi .

input([prompt])- foydalanuvchi tomonidan kiritilgan qatorni qaytaradi. Prompt- foydalanuvchiga yordam.

isinstance(object, ClassInfo)-agarda obyekt classinfo yoki uning sinfosti ekzemplari bo'lsa rost qiymat qaytaradi. Agarda ekzemplar berilgan tipdagi obyekt bo'lmasa, funksiya yolg'on qiymat qaytaradi.

issubclass(sinf, ClassInfo)-agarda sinf ClassInfo sinfostisi bo'lsa rost qiymat qaytaradi. Sinf o'z-o'ziga sinfosti bo'ladi.

iter(x)- iterator obyektini qaytaradi.

len(x)-ko'rsatilgan obektning elementlar sonini qaytaradi.

locals()-lokal nomlar lug'ati.

map(function, iterator)-ketmaketlikning har bir elementiga function funksiyasini qo'llash orqali yaratiladigan iterator.

max(iter,[args...]*[, key])-ketma-ketlikning maksimal elementi.

min(iter,[args...]*[, key])-ketmaketlikning minimal elementi.

next(x)-iteratorning keyingi elementini qaytaradi.

oct(x)- butun sonni sakkizlik sanoq sistemasiga o'tkazadi.

open(file, mode='r', buffering=None, encoding=None, errors=None, newline=None, closefd=True)- faylni ochadi va kerakli oqimni qaytaradi.

ord(x)- belgi kodi.

pow(x, y[,r])-(x**y)%r.

reversed(object)-yoyilgan obyektning iteratori.

print([object,...],*,sep=" ", end='\n', file=sys.stdout)- ma'lumotlarni ekranga chop etish.

round(X,[N])- verguldan keyin N- belgilargacha to'g'rilash.

setattr(obekt, nom, qiymat)- obyekt atributini belgilash.

sorted(iterable[, key][, reverse])- tartiblangan ro'yxat.

staticmethod(function)- funksiya uchun statistik metod.

sum(iter, start=0)-ketmaketlik elementlarini yig'indisi.

type(object)- obyekt tipini qaytaradi.

type(name, bases, dict)- name sinfidagi yangi ekzemplarni qaytaradi.

vars([object])- obyekt atributlarining ro'yxati. Jimlik holatida- local nomlar lug'ati.

Fayllar bilan ishlash

Fayllar bilan ishlash **file** klassi obyektini hosil qilish hamda uning **read**, **readline** va **write** metodlari yordamida amalga oshiriladi. Faylni o'qish yoki faylga yozish faylni ochish vaqtida ko'rsatilgan rejimga bog'liq. Fayl bilan ishlab bo'lgandan keyin **close** metodini chaqirish kerak bo'ladi.

```
poem = '''\
Dasturlash qiziqarli.
Agar ish zerikarli bo'lsa,
Unga quvnoq tus berish uchun - Pythonni ishlating!
...
f = open('poem.txt', 'w') # faylni yozish uchun ochamiz (writing)

f.write(poem) # matnni faylga yozamiz

f.close() # faylni yopamiz

f = open('poem.txt')
# agar rejim ko'rsatilmagan bo'lsa,
# u xolda o'qish rejimi tushunilib ketiladi ('r'eading)

while True:
    line = f.readline()

    if len(line) == 0: # Nol uzunlik faylning oxirini bildiradi (EOF)
        break
    print(line, |end='')

f.close() # faylni yopamiz
```

Natija:

Dasturlash qiziqarli.

Agar ish zerikarli bo'lsa,

Unga quvnoq tus berish uchun – Pythonni ishlating!

Bu misolda biz birinchi navbatda faylni rejim ko'rsatgan holda **open** funksiyasi bilan ochyapmiz. Rejim o'qish uchun («r»), yozish uchun («w») yoki fayl oxiriga yozuvni qo'shish uchun («a») bo'lishi mumkin. Faylni yana qanday holda o'qish, yozish yoki matn qo'shish holatini ham ko'rsatish mumkin: («t») tekst ko'rinishida yoki («b») binar ko'rinishida.

Bizning holatda faylni yozish («w») rejimida ochyapmiz va **write** metodi yordamida matnni faylga yozyapmiz. Shundan so'ng faylni **close** metodi yordamida yopyapmiz. So'ng xuddi shu faylni o'qish rejimida ochamiz. Bu holda rejimni ko'rsatishga hojat yo'q. Sababi agar rejim ko'rsatilmasa, fayl o'qish rejimida ochiladi. Faylni qatorma-qator **readline** metodi yordamida, sikl ichida o'qib olamiz. Qachonki bu metod bo'sh qator qaytarsa, u holda bu biz faylning oxiriga yetib borganimizni anglatadi va **break** yordamida siklni to'xtatamiz.

Shundan so'ng **print** funksiyasi yordamida o'qib olinayotgan satrlarni ekranga chop qilamiz. Oxirida **close** metodi yordamida faylni yopamiz. Haqiqatda dastur matnni faylga yozganligini tekshirish uchun **poem.txt** faylini tekshirib ko'ring.

Pickle

Pythonning **pickle** moduli yordamida har qanday obyektни faylga saqlash va keyinchalik fayldan o'qib olish mumkin. Bunday imkoniyat ob'yektlarni uzoq muddat saqlashda qo'l keladi.

```
import pickle
# obyektни saqlash fayli

shoplistfile = 'shoplist.data'

# xaridlar ro'yxati

shoplist = ['olma', 'mango', 'sabzi']

# faylga yozish

f = open(shoplistfile, 'wb')

pickle.dump(shoplist, f) # obyektни faylga yozamiz

f.close()

del shoplist # shoplist o'zgaruvchisini o'chirib tashlaymiz

# fayldan o'qish

f = open(shoplistfile, 'rb')

storedlist = pickle.load(f) # ob'yeKtни fayldan yuklab olish

print(storedlist)
```

Natija:

```
['olma', 'mango', 'sabzi']
```

Bu misolda obyektни faylga yozish uchun birinchi galda faylni binar yozish (“**wb**”) rejimida ochilyapti, so'ng pickle modulining dump funksiyasi chaqirilyapti. Bu jarayon “konservatsiya” (“pickling”) deyiladi. Shundan so'ng obyektни fayldan o'qib olish uchun pickle modulining **load** funksiyasidan foydalanilyapti.

Sanoq sistemasining ishlatilishi

Maktab kursidagi informatika faninidan bizga ma'lumki, sonlar nafaqat o'nlik sanoq sistemasida balki boshqa sanoq sistemalarida ham bo'lishi mumkin. Masalan: kompyuter ikkilik sanoq sistemasidan foydalanadi ya'ni 19-soni ikkilik sanoq sistemasida (kompyuterda) 10011 ko'rinishida ifodalanadi. Bundan tashqari sonlarni bir sanoq sistemasidan ikkinchi sanoq sistemasiga o'tkazish kerak. Python bu uchun bir qancha funksiyalarni taqdim etadi:

int([object],[sanoq sistemasi asosi])- butun sonni berilgan sanoq sistemasidan o`nlik sanoq sistemasiga o`tkazadi.

bin(x)- butun sonni ikkilik sanoq sistemasiga o`tkazadi

hex(x)- butun sonni o`n oltilik sanoq sistemasiga o`tkazadi

oct(x)- butun sonni sakkizlik sanoq sistemasiga o`tkazadi.

```
>>> bin(19)
'0b10011'
>>> oct(19)
'0o23'
>>> hex(19)
'0x13'
>>> int('10011',2)
19
>>> int('0b10011',2)
19
>>> a=int('19')# satrni songa o`tkazadi
>>> b=int(19.5)# haqiqiy sonni butun qismini qaytaradi
>>> print(a,b)
19 19
```

Son

Sonlar Python dasturlash tilida 3 turda bo'ladi:

1. butun sonlar,
 2. haqiqiy sonlar
 3. kompleks sonlar
- Butun songa misol 2,5, ...
 - Haqiqiy sonlarga misol 3.23 va 52.3e-4.
 - Kompleks sonlarga misol (-5+4i) va (2.3-4.6i)

Butun sonlar

Python interpretatorida yuqorida operator va ifodalar mavzusida ko`rib chiqqan barcha operatorlarni oddiy matematika kursida ishlatilganidek bajarilishini ko`rdik. Ya'ni ko`paytirish, qo`shish, ayirish, bo`lish, darajaga ko`tarish va hokazo. Endi esa butun sonlar ustida bajarish mumkin bo`lgan qo`shimcha metodlarni ko`ramiz.

int.bit_length()- sonni oldidagi ishora va nollarni hisobga olmasdan uni ikkilik sanoq sistemasida taqdim etish uchun kerakli bo`lgan bitlar soni.

```
>>> n=-37
>>> bin(n)
'-0b100101'
>>> n.bit_length()
6
```

`int.to_bytes(length, byteorder, *, signed=False)`-shu sonni taqdim etuvchi baytlar qatorini qaytaradi.

```
>>> (1024).to_bytes(2, byteorder='big')
b'\x04\x00'
>>> (1024).to_bytes(10, byteorder='big')
b'\x00\x00\x00\x00\x00\x00\x00\x00\x04\x00'
>>> (-1024).to_bytes(10, byteorder='big', signed=True)
b'\xff\xff\xff\xff\xff\xff\xff\xff\xfc\x00'
>>> x=1000
>>> x.to_bytes((x.bit_length() // 8) + 1, byteorder='little')
b'\xe8\x03'
```

classmethod `int.from_bytes(bytes, byteorder, *, signed=False)`-berilgan baytlar qatoriga mos sonni qaytaradi.

```
>>> int.from_bytes(b'\x00\x10', byteorder='big')
16
>>> int.from_bytes(b'\x00\x10', byteorder='little')
4096
>>> int.from_bytes(b'\xfc\x00', byteorder='big', signed=True)
-1024
>>> int.from_bytes(b'\xfc\x00', byteorder='big', signed=False)
64512
>>> int.from_bytes([255, 0, 0], byteorder='big')
16711680
```

Haqiqiy sonlar

Haqiqiy sonlar ham butun sonlar qo'llab quvvatlovchi operatsiyalarni qo'llab quvvatlaydi. Haqiqiy sonlarni ishlatilishiga oddiy misol:

```
>>> c=150
>>> d=12.9
>>> c+d
162.9
>>> k=abs(d-c) # sonning moduli
>>> print(k)
137.1
>>> round(k) # yaxlitlash
137
```

Haqiqiy sonlar ustida amal bajarishda foydalanish mumkin bo'lgan qo'shimcha metodlar:

`float.as_integer_ratio`- shu haqiqiy son bilan juftlik munosabatida bo'lgan butun son.

`float.is_integer()`- ko'rsatgich butun son bo'lish bo'lmashligini tekshiradi.

`float.hex()`-float ni hex ga (o'n oltilik sanoq sistemasiga) o'tkazadi.

classmethod `float.fromhex(s)`- o'n oltilik sanoq sistemasidan floatga otkazadi. Ya'ni `float.hex()` ni teskarisi.

```

>>> (12.9).is_integer()
False
>>> (13.0).is_integer()
True
>>> (13.0).as_integer_ratio()
(13, 1)
>>> (10.5).hex()
'0x1.5000000000000p+3'
>>> float.fromhex('0x1.5000000000000p+3')
10.5

```

Pythonda sonlar bilan ishlaydigan standart metodlardan tashqari bir qancha modullar ham bor.

Math moduli- murakkab matematik funksiyalarni taqdim etadi:

```

>>> import math
>>> math.pi
3.141592653589793
>>> math.sqrt(81)
9.0

```

Random moduli tasodifiy sonlar generatorini tasodifiy tanlov funksiyasini amalga oshiradi:

```

>>> import random
>>> random.random()
0.3974041754203669

```

Kompleks son

Pythonda kompleks sonlar ustida arifmetik amallarni butun va haqiqiy sonlar ustida bajarilgani kabi oddiy bajarish mumkin yani matematika kursida kompleks sonlar ustida arifmetik amallar qanday bajarilsa xuddi shunga o`xshab bajariladi.

```

>>> x=complex(1,2)
>>> print(x)
(1+2j)
>>> y=complex(3,4)
>>> print(y)
(3+4j)
>>> z=x+y
>>> print(z)
(4+6j)
>>> z=x*y
>>> print(z)
(-5+10j)
>>> z=x/y
>>> print(z)
(0.44+0.08j)
>>> print(x.imag)# Mavhum qismi chiqaradi
2.0
>>> print(x.real)# Haqiqiy qismni chiqaradi
1.0
>>> pow(3+4j,2)# Darajasini hisoblaydi
(-7+24j)
>>> abs(3+4j)# Kompleks sonni moduli
5.0
>>>

```

Satrlar bilan ishlash

Satrlar – bu belgilar ketma-ketligi. Ko'p hollarda satrlar so'zlar jamlanmasidan tashkil topadi. Pythonda satrlar bilan ishlash juda qulay. Bir qancha satr literallari mavjud. Ularni ko'rib chiqamiz

Apostrof va qo'shtirnoqdagi satrlar

```

>>> s='spam"s'
>>> print(s)
spam"s
>>> s="spam's"
>>> print(s)
spam's

```

Apostrof va qo'shtirnoqdagi satrlar bir narsa. Uni ikki xil variantda keltirilishiga sabab literallarga apostrof va qo'shtirnoq belgilarini maxsus xizmatchi belgilardan foydalanmasdan kiritish mumkinligi deb hisoblanadi.

Ekran bilan ishlash ketma-ketliklari-xizmatchi belgilar

Ekran bilan ishlash ketma-ketliklari- klaviatura yodamida kiritish murakkab bo'lgan belgilarni yozishga imkon beradi.

Xizmatchi belgilar	Vazifasi
\n	Keyingi qatorga o'tish
\a	Qo'ng'iroq
\f	Keyingi betga o'tish
\r	Koretkani qaytarish
\t	Gorizonta tabulatsiya
\v	Vertical tabulatsiya
\N{id}	Unicode ma'lumotlar bazasining ID identifikatori
\uhhhh	Unicode ning 16 lik ko'rinishidagi 16 bitli belgisi
\Uhhhh. . .	Unicode ning 32 lik ko'rinishidagi 32 bitli belgisi
\xhh	Belgining 16 lik kodi
\ooo	Belgining 8 lik kodi
\0	Null belgisi (satr oxiri belgisi emas)

1.4.1-chizma. Ekran bilan ishlash ketma-ketliklari.

Ko'p qatorli satrlar

Pythonda satrlarni apostrof(') va qo'shtirnoqdan foydalanib hosil qilish mumkin. Apostrof (bir tirnoq(')) yoki qo'sh tirnoqni(") 3marta takrorlash orqali esa ko'p qatorlik satrlarni xosil qilish mumkin. Misol uchun:

```
>>> '''Bu ko'p qatorlik satr.Bu uning birinchi qatori.
Bu uning ikkinchi qatori.
"Isming kim?", - so'radim men.
U javob berdi: "Bond, James Bond."
'''
```

Satr konstantalarini birlashtirish uchun ularni yonma-yon joylashtirishning o'zi kifoya. Python avtomat ularni birlashtiradi. Misol uchun: "Ismingiz" "kim?" avtomat "Ismingiz kim?" ga aylanadi.

Eslatma: Bir tirnoq va qo'sh tirnoqdagi satrlar bir-biridan hech ham farq qilmaydi.

Satrlarning funksiya va metodlari

Shunday qilib satrlar bilan ishlash haqida gapirdik, endi satrlarning funksiyalari va metodlari haqida gapiramiz. Quyida satrlarning barcha funksiya va metodlari keltirilgan.

Asosiy operatsiyalar

Konkatenatsiyalash (qo'shish)

```
>>> s1='spam'
>>> s2='eggs'
>>> s1+s2
'spameggs'
```

Satrnı takrorlash (dublikat qilish)

```
>>> print('dunyo'*3)
dunyodunyodunyo
```

Satr uzunligi (len() funksiyasi)

```
>>> gap='bu satrning uzunligi qancha'
>>> len(gap)
27
```

Indeks bo'yicha chiqarish

```
>>> s='spam'
>>> s[0]
's'
>>> s[2]
'a'
>>> s[-2]
'a'
```

Misoldan ko'rinib turibidiki Python manfiy indeks bo'yicha chiqarishga ruxsat etadi, lekin hisoblash qator oxiridan boshlanadi.

Kesmani ajratib olish. Kesmani ajratib olish operatori:[X:Y]. X- kesmaning boshi, Y esa – oxiri. Y raqamli belgi kesmaga kirmaydi. Jimlik holatida birinchi indeks 0 ga teng, ikkinchi indeks esa qator uzunligiga teng bo'ladi.

```
>>> s='spameggs'
>>> s[3:5]
'me'
>>> s[2:-2]
'ameg'
>>> s[:6]
'spameg'
>>> s[1:]
'pameggs'
>>> s[:]
'spameggs'
```

Bundan tashqari kesmani ajratib olishda qadamni belgilash mumkin

```
>>> s[::-1]
'sggemaps'
>>> s[3:5:-1]
''
>>> s[2::2]
'aeg'
```

Satrlarning qo`shimcha funksiya va metodlari

Metodlarni chaqirganga Pythondagi satrlar o`zgaraydigan ketma-ketliklar darajasiga kirishini inobatga olishimiz kerak. Bu degani hamma funksiyalar va metodlar faqat yangi satrni tuzishi mumkin.

```
>>> s='spam'
>>> s[1]='b'
Traceback (most recent call last):
  File "<pyshell#27>", line 1, in <module>
    s[1]='b'
TypeError: 'str' object does not support item assignment
>>> s=s[0]+'b'+s[2:]
>>> s
'sbam'
```

Shuning uchun hamma metodlar yangi satrni qaytaradilar, va u keyin boshqa nomga ega bo`ladi.

S = 'str'; S = "str"; S = ""str""; S = ""str""- Satrlarni literallari

S = "s\np\ta\nbbb"- ekran bilan ishlash ketma-ketliklari

S = r"C:\temp\new"- Formatlashtirilmagan satrlar

S = b"byte"- Baytlar qatori

S1+S2- Konkatenatsiya (qo`shish)

S1*3- Satrni takrorlash

S[i]- Indeks bo`yicha murojaat

S[i:j:step]- Step qadamli i elementdan boshlab j elementgacha bo`lgan kesmani ajratib olish.

```
>>> qator='menga pyhton dasturida ishlash yoqadi'
>>> qator[1:5]
'enga'
>>> qator[2:15:3]
'n hna'
>>> qator[0:15:2]
'mnapho a'
```

Len(s)- Satr uzunligi

```
>>> gap='bu satrning uzunligi qancha'
>>> len(gap)
27
```

S.find(str,[start],[end])- Satrdan satr ostini izlash. Satr ostining birinchi belgisini o`rinini qaytaradi, agar satrda satr osti bo`lmasa -1ni qaytaradi.

```

>>> s='salom bu Python dasturi'
>>> s.find('Python',1, 5)
-1
>>>
>>> s.find('Python',1, 50)
9

```

S.rfind(str,[start],[end])- Satrdan satr ostini axtarish. Oxirgi kirish raqamini yoki 1 ni qaytaradi

S.index(str,[start],[end])- Satrdan satr ostini axtarish. Birinchi kirish raqamini qaytaradi yoki ValueError istisnosini chaqiradi

S.rindex(str,[start],[end])- Satrdan satr ostini axtarish. Oxirgi kirish raqamini qaytaradi yoki ValueError istisnosini chaqiradi

S.replace(shablon,almashuv)- Shablonni almashtirish

S.split(belgi)- Satrni har bir so`zini alohida alohida ajratib chiqish.

```

matn='bu python dasturlash tili hozir matndagi so`zlarni ajratamiz'
matn.split()
['bu', 'python', 'dasturlash', 'tili', 'hozir', 'matndagi', 'so`zlarni', 'ajratamiz']

```

S.isdigit()-Satrda raqamlar ishtirok etganligini tekshirish.

S.isalpha()-Satr faqat harflardan iboratligini tekshirish

S.isalnum()-Satr harf yoki raqamlardan iboratligini tekshiradi

S.islower()-Satr quyi registrdagi belgilardan iboratligini tekshiradi

```

>>> satr='bu satrdagi so`zlar faqat quyi registrda yozilgan'
>>> satr.islower()
True
>>> satr='Bu satrdagi so`zlar faqat quyi registrda yozilgan Emas'
>>> satr.islower()
False

```

S.isupper()-Satr yuqori registrdagi belgilardan iboratligini tekshiradi

```

>>> k='SATRDA SO`ZLAR YUQORI REGISTRDA YOZILGAN'
>>> k.isupper()
True
>>> k='SATRDA So`zlar YUQORI REGISTRDA YOZILGAN'
>>> k.isupper()
False

```

S.isspace()-Satrda ko`rinmaydigan belgilar borligini tekshirish (probel, sahifani o`tkazish belgisi('\p'), yangi satrga o`tish('\n'), koretkani qaytarish('\r'), gorizontal tabulyatsiya('\t') va vertikal tabulyatsiya)


```
satr=('salom\n mening ismim Guli\r bu Python dasturi')
print(satr)
print(satr.isspace())
```

```
salom
 mening ismim Guli
 bu Python dasturi
False
'
```

S.istitle()-Satrda so`zlar bosh harf bilan boshlanishini tekshirish

```
>>> s='Salom Dunyo Bu Python'
>>> s.istitle()
True
>>> s='salom dunyo Bu Python'
>>> s.istitle()
False
```

S.upper()-Satrni yuqori registrga o`zgartirish

```
>>> satr='bu satrda kichik harfda yozildi'
>>> satr.upper()
'BU SATRDA KICHIK HARFDA YOZILDI'
```

S.lower()-Satrni quyi registrga o`zgartirish

```
>>> s='BU UPPER FUNKSIYASIGA TESKARI FUNKSIYA'
>>> s.lower()
'bu upper funksiyasiga teskari funksiya'
```

S.startswith(str)- S satr str shablonidan boshlanishini tekshirish

S.endswith(str)- S satr str shabloni bilan tugashini tekshirish

S.join(ro`yxat)- S ajratuvchiga ega ro`yxatdan qatorni yig`ish

Ord(belgi)- Belgiga mos ASCII kodni qaytaradi

```
>>> ord('a')
97
>>> ord('A')
65
```

Chr(son)- ASCII kodga mos belgini qaytaradi

```
>>> chr(65)
'A'
>>> chr(97)
'a'
```

S.capitalize()-Satrning birinchi belgisi yuqori registrda qolganlarini quyi registrga o`tkazadi.

```
>>> satr='bu satrda birinchi belgi yuqori registrda bo`ladi'  
>>> satr.capitalize()  
'Bu satrda birinchi belgi yuqori registrda bo`ladi'
```

S.center(width,[fill])- Chegaralari bo'yicha fill (jimlik holatida probel) belgisi turuvchi markazlashtirilgan satrni qaytaradi.

S.expandtabs(tabsize)- Joriy ustungacha bir yoki bir qancha probellar bilan tabulyatsiyaning hamma belgilari almashtirilgan satr nusxasini qaytaradi. Agarda TabSize ko'rsatilmagan bo'lsa tabulyatsiya hajmi 8 probelga teng bo'ladi

S.lstrip([chars])- Satr boshidagi probel belgilarini olib tashlash

S.rstrip([chars])- Satr oxiridan probel belgilarini olib tashlash

S.strip([chars]) Satr boshidan va oxiridan probel belgilarini olib tashlash

S.partition(shablon)- Birinchi shablon oldida turuvchi qismni keyin shablonni o'zini va shablondan keyin turuvchi qismga ega kortejni qaytaradi. Agarda shablon topilmasa satrga ega bo'lgan kortejni qaytaradi, avval ikki bo'sh satr keyin satrni o'zini.

S.rpartition(sep)- Oxirgi shablon oldida turuvchi qismni keyin shablonni o'zini va shablondan keyin turuvchi qismni qaytaradi. Kortej qator o'zidan va undan keyin ikkita bo'sh qatordan iborat bo'ladi.

S.swapcase()-Quyida registrdagi belgilarni yuqori registrga, yuqorilarni esa quyiga o'tkazadi

```
>>> s='salom bu PYTHON DASTURI'  
>>> s.swapcase()  
'SALOM BU python dasturi'
```

S.title()-Har bitta so'zning birinchi harfini yuqori registrga qolganlarini esa quyi registrga o'tkazadi

```
>>> satr='bu satrda kichik harfda yozildi'  
>>> satr.title()  
'Bu Satrda Kichik Harfda Yozildi'
```

S.zfill(width)- Qator uzunligini Widthdan kam qilmaydi agar kerak bo'lsa birinchi belgilarni nollar bilan to'ldiradi.

```
>>> s='python'  
>>> s.zfill(20)  
'0000000000000000python'  
... |
```

Nazorat savollari

1. Python dasturlash tilining qanday imkoniyatlarga ega?

2. Python dasturlash tilini qanday o`rnatiladi?
3. Dasturlash tilida asosiy operatorlari?
4. O`zgaruvchi nima?
5. Operator nima va dasturlash tilida qanday operatorlar bor?
6. Operand nima?
7. For operatori qanday operator hisoblanadi?

4-mavzu. Arxitektura va qurilishda qurilish konstruksiyalarni vizual dasturlash texnologiyalari.

REJA:

1. Vizual dasturlash texnologiyalari.
2. Vizual dasturlashtirish va uning instrumentlari.
3. Vizual dasturlash va vizual foydalanivchi interfeyslarining asosiy afzalliklari va prinsiplari.
4. Vizual dasturlash muhiti obyektlari va elementlari.

***Tayanch so'zlar:** Vizual, vizuallashtirish, obyektga-mo'ljallangan dasturlash, prosedurali dasturlash, tarmoq dasturlari, funksional dasturlash, deklorativ dasturlash.*

Vizual, vizuallashtirish so'zi lotin tilidagi visualis so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida qo'rgazmali, tomoshobop degan ma'nolarni beradi. Ilovalarni ko'rgazmali vositalar yordamida tuzishni o'zida mujassamlashtiruvchi dasturlash - vizual dasturlash deyiladi.

Vizualizasiya deganda – grafik tasvirlar yoki obyektlarni insonni ko'rishiga o'ng'ay formalarga keltiruvchi jarayon yoki hodisalar tushuniladi.

Vizuallashtirish – umumiy ma'noda axborotlarni optik tasvirlar ko'rinishda ifodalash usuli. Masalan, rasm va fotografiyalar, grafiklar, diagrammalar, strukturali sxemalar, jadval, kartalar va boshq. Obyektlarni tasvirlash va ifodalashdada vizuallashtirish usullari juda yuqori samara beradi.

Vizuallashtirish bu- murakkab jarayonlarning grafik talqinini kompyuter ekranida grafik figuralar ko'rinishida vizual akslantirish jarayonidir.

Dasturiy ta'minotlar interfeyslarni vizuallashtirish uchun –turli axborotlarni akslantiruvchi va dasturni to'liq boshqarishni amalga oshiruvchi vizual komponentlar deb ataluvchi qator maxsus interfeys elementlari ishlab chiqilgan.

Masalan – kompyuter ekranidagi vizual tugma. Bu tugma istalgan asbobning boshqaruv pultidagi oddiy tugma harakatini imitatsiya qiladi. Boshqaruv pultini tugmasi inson qo'li bilan bosilsa, kompyuter ekranidagi tugma esa «Sichqoncha» yordamida bosiladi. Inson qo'lidagi pult tugmasi real obyekt elementi bo'lsa, kompyuter ekranidagi tugma esa vizual obyekt elementi bo'ladi.

Dunyo birinchi bor insoniyat Microsoft korporasiyasini Windows operasion tizimlari uchun ishlab chiqilgan interfeyslar tuzishni vizual vositalarini imkoniyatlari bilan Visual Basic dasturi orqali tanishdi.

Vizual dasturlashtirish va uning instrumentlari.

Windows dagi barcha dasturlar Win32 API amaliy dasturlash interfeysining funksiyalar to'plamidan foydalanishga asoslanadi. Bu interfeys turli dasturlash tillari bilan ishlash uchun maxsus ishlab chiqilgan. Bu interfeys funksiyalarini qo'llanish sohalari keng bo'lib – bu grafika bilan ishlash, fayllar, oynalar va boshqalar. Vizual dasturlashning yaratilishi 90-yillarning boshlariga to'g'ri keladi.

Hozirgi kunda vizual dasturlash tillari ilovalar interfeysini ishlab chiqishda osonlashtiradi. Bunday tizimlarning o'z nomi bo'lib, RAD (Rapid Application Development) – ilovalarni tez ishlab chiqish muhiti deyiladi. Dasturlashtirishdagi bunday yondashuvda asosiy e'tibor dastur mantiqiga qaratiladi. Ishlab chiqarishning har bir muhiti tartiblangan obektlarning katta to'plamiga ega.

Dasturlarni vizual yaratishning keng tarqalgan vositalariga Microsoft firmasining Visual Studio oilasining mahsulotlari, Borland kompaniyasining Delphi va C++ Builder muhitlari kiradi.

Borland Delphi dasturlashtirish muhiti 1995 yilda yaratildi. Undan foydalanib oddiy ilovalardan tortib salmoqli korporativ loyihalarni ishlab chiqish mumkin. Visual Studio 1997 yilda yaratilgan. U o'zida turli Windows-ilovalarini loyihalovchilar va ishlab chiquvchilar uchun instrumentlarning katta qismini mujassamlashtirgandir.

Visual Studio 6.0. paketining oxirigi versiyasi o'zi ichiga quyidagi dasturlashtirish tillarini olgan: Visual Basic, Visual C++, Visual FoxPro, Visual InterDev, Visual J++, Visual SourceSafe.



1-rasm.

Mavjud dasturlash tillari to'rtta asosiy guruhga ajratib sinflanadi: prosedurali, obyektga mo'ljallangan, funksional va mantiqiy dasturlash.

Prosedurali dasturlash – bu shunday dasturlashki, dastur berilganlardan ajratilgan bo'ladi va u berilganlarni qayta ishlovchi, buyruqlar ketma-ketligidan iborat bo'ladi. Qoidaga muvofiq dasturda berilganlar o'zgaruvchilar qo'rinishda saqlanadi. Barcha hisoblash jarayonlari esa o'zgaruvchilarning qiymatlarini o'zgartirilishiga qaratiladi.

Obyektga-mo'ljallangan dasturlash - bu dasturlash tillarida o'zgaruvchi va funksiyalar klasslar (shablonlar)ga guruhlashtiriladi. Buning evaziga dasturni yuqori darajada tarkiblashtirish (strukturalash) imkoniyati yuzaga keladi.

- Klasslardan hosil qilingan obyektlar bir-birlarini funksiyalarini yoki proseduralarini (metodlarini) chaqiradi va shu tarzda o'zgaruvchilar (xossalar) qiymatini o'zgartiradi.
- Obyektga – mo'ljallangan dasturlashda dastur tuzish usuli dasturlashning prosedurali modeliga asoslanadi.
- Obyektga – mo'ljallangan dasturlashda, dasturning mazmuni funksiyaga emas, balki bir butun tizim sifatidagi obyektlararo standart avtomatik interfeysiga ega bo'lgan obyektga qaratiladi.

Deklarativ dasturlash - unga funksional va mantiqiy dasturlash tillarini keltirish mumkin. Bu tillarda algoritmlar harakatlari dastur tuzuvchi tomonidan berilmay, dasturning o'zi tomonidan quriladi. Deklarativ dasturlash tillarida, biror bir struktura yoki tizimni tuzish uchun, tuziladigan obyektning xossalari beriladi. Bu dasturlash tillari avtomatik loyihalashtirish tizimlari, su'niy intellekt tizimlarida keng qo'llaniladi.

Tarmoq dasturlari – kompyuter tarmoqlarida uzoqlashgan kompyuterni o'zaro aloqasini ta'minlash uchun dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishda qo'llaniladi.

Muammoga yunaltirilgan dasturlash tillari. Bu tillar aniq muammolarni yechishga mo'ljallangan bo'lib, ular dastur tuzuvchiga masalalarni qisqa va aniq ifodalash imkoniyatini beradigan dasturiy vositalarga ega bo'ladi. Masalan,

Fortran, Algol – tillari, matematik masallarni yechishga mo'ljallangan;

Simula, Sleng – tillari, modellashtirish uchun;

Lisp, Snobol – ro'yxatli strukturalarni tuzish uchun.

Funksional dasturlash. Dastur bir-birini chaqiruvchi funksiyalar majmuidan iborat bo'ladi. Odatda, algoritmlari funksional ko'rinishda yozilgan dasturlar, obyektga – mo'ljallangan yoki prosedurali tillarda yozilgan dasturlarga nisbatan qisqa ifodalangan va kam xatolarga ega bo'ladi.

Mantiqiy dasturlash. Bu dasturlash formal mantiq va Bulevo algebrasiga asoslangan bo'ladi.

Vizual dasturlash va vizual foydalanivchi interfeyslarining asosiy afzalliklari va prinsiplari.

Obyektga mo'ljallangan yondoshuvda dasturiy vazifalar dasturning obyektlari bo'yicha taqsimlandi. Obyektlar xossalari, metodlar (usullar) va ro'y beradigan hodisalarga (sichqonchani klavishni bosish, vaqt oraliqlari va h.k.) munosabat bildiruvchi to'plamlarni o'zida mujassamlashtiradi.



2-rasm.

Obyekt xossalari – obyektни tasniflovchi ko'rsatkilarini ifodalaydi.

Obyekt metodlari - obyekt ustida bajariladigan harakatlarni tasniflaydi.

Hodisalar – obyekt bilan bo'ladigan harakatlarni ifodalaydi.

Masalan, telefon apparati obyekt sifatida qaralsa, uning: xossalari (rangi, og'irligi, o'lchami); metodlari (g'o'shakni olish, nomer terish) va hodisalar (qo'ng'iroq, qisqa qo'ng'iroq, uzun qo'ng'iroq) mavjud bo'ladi. Obyektga mo'ljallangan dasturlashda prosedura va

funksiyalarni bajarilish tartibi hodisalar bilan aniqlanadi. Tuziladigan dasturni obyektga mo'ljallangan deb hisoblash uchun, obyektlar bir nechta inkapsulyasiya, merosxo'rlik (nasledovaniye) va polimorfizm nomlanuvchi talablarni qanoatlantirishi lozim bo'ladi. **Inkapsulyasiya** – deyilganda, obyektlarning o'z ishlatuvchi detallarini yashirishi tushuniladi. Obyekt foydalanuvchisi imkoniyatlariga ta'sir qilmasdan turib, obyekt dasturlovchisi tomonidan obyektning ichki funksional ishlash jarayonlari o'zgartirilishi mumkin.

Merosxo'rlik – oldin mavjud bo'lgan obyektlar asosida yangi obyekt yaratish (tuzish) mumkinligini anglatadi. Bunday holda yangi tuzilgan obyekt oldingi obyektlarning barcha xossa va usullarini o'zida mujassamlashtiradi. Merosxo'rlik oldingisiga nisbatan taqqoslanganda qo'shimcha xossalarga ega bo'lgan, yangi obyektlarni tuzish imkoniyatini beradi.

Polimorfizm —deganda aksariyat obyektlarni birmimli usullardan iborat bo'lishi va ularning turli obyektlarda turli vazifalarni bajarishi tushuniladi Obyektga mo'ljallangan dasturlashda tayanch tushuncha hisoblangan Klass (sinf) tushunchasi kiritiladi.

Klass – bu shablon bo'lib, unda aniq tipga mansub bo'lgan obyektlar yaratiladi. Klass o'ziga berilganlar va metodlarni va ularni qayta ishlash usullarni o'zida mujassamlashtiradi. Obyektlar – aniq bir klassning nusxalari hisoblandi.

Masalan, formaga o'rnatiladigan tugmalar yoki matnli maydonlar VBning standart sinflariga mos keluvchi nusxalari hisoblanadi. VBda klass modulidan foydalanib, dastrlovchi o'z klasslarini tuzish mumkin. Klass moduli modul-konteyner ichida prosedura va funksiyalarni yozuv sifatida rasmiylashtirish mumkin bo'lgan xossalar, metodlar, hodisalar deb nomlanuvchi uchta tipdagi elementlardan iborat bo'ladi. Klass modulini foydalanuvchi interfeysini formasi (shakli) mavjud emas, lekin u forma konteyneridan foydalanishi mumkin, shuning uchun u tegishli metodlarni o'zida saqlaydi.

Boshqarish elementlari – deganda foydalanuvchi interfeysini tuzishda qo'llaniladigan obyektlar tushuniladi.

Vizual dasturlash muhiti obyektlari va elementlari.

Barcha vizual komponentlar (formalar, boshqarish elementlari, menyu va asboblardan paneli) o'z xossalari va metodlariga ega bo'lgan obyektlar hisoblanadi. Bu obyektlarni aniq bir hodisaga nisbatan munosabati mavjud bo'ladi. Quyidagilar komponentlar bo'lishi mumkin: **Vizual dasturlashda** – dastur (ilova) loyihalashtirish jarayonida qanday ko'rinishda bo'lsa, ilovani foydalanuvchi tomonidan ishlatish jarayonida shunday ko'rinishda ekranda nomoyon bo'ladi.

Novizual dasturlash– loyihalashtirish jarayonida formada nishoncha



3-rasm.

ko'rinishida tasvirlanadi, ba'zi bir xizmat funksiyalarini bajaradi, kompyuterda dasturni bajarilishi foydalanuvchiga ko'rinmaydi.

1. Buyruqlar panli (Панел команд - CommandBar) - obyekt. U menyu va asboblar panelini boshqarish uchun ishlatiladi. Bu obyekt interfeys elementlarini dasturiy boshqarish imkoniyatini beradi, jumladan: menyu satri, asoblar paneli va kontekst menyularni; menyu satridagi menyularni va asboblar panelidagi menyularni; menyuning qism menyularini, kontekst menyudagi qism menyularni.

2. Tugmali boshqaruv elementi (Кнопочный элемент управления - CommandBarButton) – asboblar panelidagi, menyudagi menyu elementlari, qismmenyu yoki kontekst menyu tugmalaridan iborat bo'ladi. Odatda. asboblar panelidagi tugmalar va menyu elementlari amalda bir xil xossaga ega bo'ladi. Ularni farqli tomonlari shundagi, asboblar panelidagi tugmalar nishoncha (znachok) ko'rinishida, nishoncha va matn yoki faqat matn, menyu elementi esa faqat matn yoki nishoncha va matn ko'rinishda bo'ladi.

3. Boshqaruvni uyg'unlashgan elementi (Комбинированный элемент управления-CommandBarComboBox) – obyekt, u o'zida foydalanuvchi maydonini ifodalaydi, masalan menyu satridagi menyuda ochiladigan maydondagi buyruqlar ro'yxati va h.k. Masalan, obyektning Otmenit tugmasi ham boshqarishni uyg'unlashgan elementlariga mansub bo'ladi.



 – Bir necha segmentdan iborat egri chiziqlar chizish.






 – Egri chiziqni uch nuqta (boshi, o‘rtasi, oxiri) bo‘yicha chizish




 – Ikki obyekt tugunlarini ulovchi chiziq.




 – O'lchovli chiziqlar (gorizontal, vertikal, og'ma, burchak) chizish.




3 - rasm.


 – Avtorisovanie. Avtorisovanie Bezъе uskunasidan farqli ravishda konturlarni yasash uchun emas, balki ularni chizish uchun mo'ljallangan. Sichqoncha bilan ishlay oladigan foydalanuvchi rassom kabi undan mohirlik bilan foydalanib shakllar yarata oladi.

 – to'rtburchaklar chizish.


 – To'rtburchak chizish. Klaviaturadan «ctrl» tugmasi bilan birgalikda chizish amalga oshirilsa, kvadrat chizadi.


 – To'rtburchaklarni uchta nuqtasi orqali chizish. Tanlangan to'rtburchakga mos holda hosil bo'lgan xossalar paneli mundariyasi orqali to'rtburchakni ixtiyoriy burchakka burish, burchaklarini silliqlash, kontur qalinligini belgilash amallarini bajarish mumkin.


(Quyida har bir buyruqqa mos holda chiqadigan xossalar panelini keltiramiz)




 – Ellips.


 – Ellips chizish. Klaviaturadan «ctrl» tugmasi bilan birgalikda chizish amalga oshirilsa, aylana chizadi.


 – Ellipslarni uch nuqtasi orqali chizish. Tanlangan ellipslarga mos holda hosil bo‘lgan xossalar paneli mundariyasi orqali ellipslarni ixtiyoriy birchakka burish, sektor, bo‘lak, yoy chizish imkoniyatlari mavjud.




4-rasm.


 – Ko‘pburchaklar, spirallar chizish.

 – Diagramma setkasini o‘rnatish.




5-rasm.

 – ko‘pburchaklar chizish. Bu uskuna yordamida ko‘pburchak shaklidagi figuralar chiziladi. Muntazam ko‘pburchaklar chizish uchun «ctrl» tugmasi bilan birgalikda chizish amalga oshirish lozim. Uning xossalar paneli juda ko‘p parametrlari bo‘lib, qavariq, botiq ko‘pburchaklar chizish, ko‘pburchak tomonlari sonini aniqlash va bir qancha murakkab amallarni bajarish mumkin.




6-rasm.

 – spirallar chizish.


CorelDraw dasturi spiral chizishni 2 turini taqdim etadi.

1 – turida spiralning o‘ramlari oralig‘i masofasi bir xil o‘lchamda o‘zgarmas bo‘ladi.



7-rasm.


2-turida spiralning o‘ramlari oralig‘i masofasi ichkari qismidan tashqi qismiga tomon kengayib boradi.



8-rasm.

 – tayyor shakllar.


 – Tayyor shakllardan foydalanib chizish.





 – Yo‘naltiruvchi shakllar chizish.




 – Turli figuralar chizish.

 – Yulduz va ko‘pburchaklar chizish.



 – Izoh uchun shakllar chizish




– Matn kiritish.

CorelDraw dasturi yaratuvchilari ikki xildagi matnli obyektlar bilan ishlash imkoniyatini berishgan. Artistik Text (Figurniy tekst) – shaklli matn. Bu matn turida asosan qisqa matnlar, sarlavhalarni har xil formatda yaratish mumkin. Paragraph Text (Prostoy tekst) – oddiy matn. Bu usul matn muharriri kabi bo‘lib, unda katta hajmli matnlar maqola, qaydlar yaratish va ularni tahrirlash ishlari amalga oshiriladi.




Оддий матн яратиш

шаклли матн яратиш



9-rasm.



– obyekt rangini tahrirlash.



– Kontur chizish. Kontur chizish buyrug‘i orqali ochilgan oynadan konturga rang berish, chiziq turlari, o‘lchami, biror burchakka burish, ochiq kontur bo‘lsa boshlang‘ich va oxirgi nuqtalariga tayyor shakllar qo‘yish amallari mavjud.



10-rasm.



– Kontur rangini tahrirlash (o‘zgartirish).










– Rang to‘ldirilgan sohani chegarasiz tasvirlash.


<i>Berilgan shakl</i>	<i>hosil bo‘lgan shakl</i>
-----------------------	----------------------------









11-rasm.


-  – Kontur chizig‘i o‘lchami ¼ punkt.
-  – Kontur chizig‘i o‘lchami ½ punkt
-  – Kontur chizig‘i o‘lchami 1 punkt
-  – Kontur chizig‘i o‘lchami 2 punkt chiziq qalinliklari.
-  – Kontur chizig‘i o‘lchami 8 punkt
-  – Kontur chizig‘i o‘lchami 16 punkt
-  – Kontur chizig‘i o‘lchami 24 punkt





 – Ranglar dokeri oynasi. Bu buyruq orqali oynaning o‘ng qismida ranglar dokeri oynasi ochiladi. Undan kerakli rangni hosil qilish va obyekt bo‘yashda foydalanish mumkin.

        – Rang to‘ldirish.


 – shakllarga bir turdagi rang to‘ldirish muloqot oynasi ochiladi. Bu oynadan foydalanuvchi kerakli modellarni tanlab, komponentlarni o‘zgartirib, rang to‘ldirish amalga oshiriladi.




 – Gradient to‘ldirish muloqot oynasi ochiladi.






12-рasm.

 – Har xil shaklli to‘ldirishlar muloqot oynasi ochiladi. «Zalivka uzorom» bandidan belgilangan sohani har xil ko‘rinishdagi tayyor yoki foydalanuvchi yaratgan naqshlar bilan to‘ldirish imkoniyati mavjud.






13-рasm.


 – Текстурали to‘ldirishlar muloqot oynasi ochiladi. Bu oynada tayyor kutubxona mavjud bo‘lib, bir-birini takrorlamaydigan teksturalar bor.




14-рasm.

 – Tekstura (PostScript) to‘ldirishlar muloqot oynasi




 – To‘ldirishni olib tashlash.






15-rasm.


 – Ranglar dokeri oynasi ochiladi.

 – Interaktiv rang to‘ldirish.




 – Rang to‘ldirish cohani qisman to‘ldirish imkoniyati.

<i>Berilgan obyekt</i>	<i>Bajarilgan amal</i>	<i>natija</i>
		


16-rasm.


 – Interaktiv to‘r(setka) bilan to‘ldirish.


To‘r ustiga rang qo‘yish va uning tugunlaridan tortib turli ranglar berish, shaklini o‘zgartirish mumkin.

<i>Berilgan obyekt</i>	<i>Bajarilgan amal</i>	<i>natija</i>
		

17-rasm.


 – Pipetka.

 – Pipetka. Shabl rangining ixtiyoriy qismidan namuna oladi. Rang tanlash imkonini beradi.

 – Rang quyish idishchasi. Namunada olingan rangdan foydalanish.


CorelDraw dasturida obyektlar hosil qilishda ranglar bilan ishlash

Konturni ko‘rish uchun unga atroflama chiziq yoki rang berish muhim hisoblanadi. Chiziq ham, rang to‘ldirish ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega (uzluksiz, maxsus). Natijada shakli bir xil bo‘lgan konturlar ham bu amallar oqibatida har xil ko‘rinishga keladilar.



18-rasm.

CorelDrawda qo‘llanuvchi rang modellari turlicha bo‘lib, ularga RGB, CMYK, Lab, HSB modellarini misol sifatida keltiramiz. Foydalanuvchi «Odnorodnaya zalivka» bandidan kerakli modellarni tanlab oladi, komponentlarini o‘zgartirib, to‘ldirishlarni yo‘lga qo‘yadi.




19-rasm.

RGB modeli

RGB modeli kompyuter dizayni uchun asosiy modellardan biri hisoblanadi. Uning asosiy ranglari:

- Red – qizil
- Green – yashil
- Blue – zangori

Izoh: $R+G+B=RGB$; RGB modelida qolgan ranglar bu uch ranglarning proporsiyasi sifatida tanlanadi. Ikki rangni qo‘shilishi tinicroq rang hosil qiladi va bu ranglar additiv ranglar deb yuritiladi. Qizil va yashil ranglar qo‘shilishib sariq va shu kabi boshqa ranglar hosil qilinadi. Dasturda har bir rang uchun foizlar yoki 256 gacha bo‘lgan sonlar orqali additivlik koeffitsientini berish mumkin.



20-rasm.

CMYK modeli

Ko'pgina hollarda obyekt o'ziga tushadigan ranglarni bir qismini «yutib», qolagan qismini aks ettiradi, ya'ni u ham biror rang bilan bo'yalgan bo'ladi. Bunday rang yaratilishi subtraktiv holat deb yuritiladi. CMYK modeli subtraktiv ranglarni ta'minlaydi, u poligrafiyada kengroq qo'llaniladi.


Uning asosiy ranglari:



- Syan-yashil;
- Magenta-qizg'ish;
- Yellow-cariq;


Izoh: $S+M+Y+K=CMYK$; K-(key) so'zidan olingan bo'lib, bu yerda qora rang asosiy ranglardan ekanligidan dalolat beradi. Bu model ranglari bilan bo'yalgan rasm, RGB modeliga nisbatan ko'proq joy egallaydi.

CorelDraw dasturida sohaga rang berishning bir necha usullari mavjud bo'lib, soha atrof chiziqlariga qalinlik va rang berish, agar soha yopiq bo'lsa, ichki qismi ham har xil to'ldirishlar bilan qoplanishi mumkin. Yopiq soha uchun quyidagicha rang berish imkoniyati mavjud:

- shakl chiziladi va belgilanadi. Belgilash uchun sichqonchani chap tugmasi shakl ustida bir marta bosiladi
- belgilangan shakl ustiga sichqonchanning o'ng tugmasi orqali kontekst menyu hosil

qilinib, «svoystva» buyrug'ini tanlanadi. Oynaning o'ng qismida  doker oyna ko'rinadi.

Mazkur oynadan atrof chizig'ini tahrirlash: Oynaning  bandi orqali Width chiziq qalinligi, Color chiziq rangi, Steli chiziq tipi aniqlanadi. Soha ichini to'ldirish: Oynaning  bandi orqali ranglar uyg'unlashtiriladi.



21-rasm.


Mazkur dasturda sohaga rang berishning boshqa yo'llaridan biri ranglar palitrasidan foydalanishni ko'rib chiqamiz:

1. Shakl chiziladi va belgilanadi.
2. Ranglar palitrasiga o'tib, sichqonchanning chap tugmasi orqali sohaning ichki qismiga rang tanlanadi. Sichqonchanning o'ng tugmasi orqali esa konturga rang tanlanadi.
3. Palitraning shakli ustida sichqonchanning chap tugmasini bosib, soha ichining rangi, o'ng tugmasini bosib, kontur rangi olib tashlanadi.

Agar biz o'zimizga kerakli bo'lgan boshqa rang hosil qilmoqchi bo'lsak, uskunalar panelining



shakllarga bir turdagi rang to'ldirish muloqot oynasidan foydalanamiz:



22-rasm.

Mazkur oynadan kerakli modellarni tanlab, komponentlarni o'zgartirib, ixtiyoriy rangda to'ldirishlarni amalga oshirish mumkin


Maxsus effektlar yaratish


CorelDraw dasturida maxsus effektlar yaratish, menyular satrining «Effekti» bo'limi orqali yoki uskunalar paneli yordamida amalga oshiriladi. Biz quyida interaktiv uskunalardan foydalanib, effektlar yaratish tartibini keltiramiz.




uskunasining vazifasi ikki turdagi shaklni biriga keltirish ya'ni oraliq shakl yaratishdir.

Undan foydalanish uchun quyidagi tartibda ish olib borish lozim:

1. Ikkita shakl chiziladi va ularga rang beriladi (aylana va yulduzsimon shakl).
2. Uskunalar panelidan  _buyrug'i faollashtiriladi. Birinchi shakl ustida sichqonchanning chap tugmasi bosilganda, shakl ustida kichik kvadratcha paydo bo'ladi. Kursorni sichqonchanning chap tugmasini qo'yib yubormagan holda ikkinchi shakl ustiga joylashtirib tugma qo'yib yuboriladi.
3. Xossalar panelidan qatlamlar sonini, yo'nalish burchagini, rangini tanlang.




4. Panel mundarijasidan oradan obyekt ajratish, effekt boshlanishi yoki tugatishini ko'rsatish, yo'l ko'rsatish, effektdan nusxa olish va effektни bekor qilish kabilar bajarilishi mumkin.




<i>Berilgan shakl</i>	<i>natija</i>
	

23-rasm.



uskunasining vazifasi obyektни uch o'lchamli fazoda ko'rish imkoniyati bo'lib, undan foydalanish quyidagi tartibda olib boriladi:



1. Shakl chiziladi (A).
2. Uskunalar panelidan  buyrug'i faollashtiriladi. Kursorni shakl ustiga joylashtiring va sichqon chap tugmasini bosib, ishchi sohaning biror qismiga joylashtiring (B).
3. Xossalar panelidan «Выдавлевание» turlari, uzunligi, rangini o'zgartirib tugmani qo'yib yuboring (V).


 A)	 B)	 (V)
---	---	--

24-rasm.



Interaktiv konturlar yaratish uskunasi orqali bir turdagi shaklda turlicha o'lcham va rang qo'yish mumkin bo'ladi. Quyida amallar ketma-ketligida interaktiv konturlar yaratishni ko'rib chiqamiz:

1. Ellips chizib, rang beramiz va shaklni belgilaymiz.
2. Uskunalar panelidan   – buyrug‘ini tanlaymiz. Kursorni shakl ustiga olib kelib, sichqonning chap tugmasini bosamiz.
3. Xossalar paneli mundarijasidan kontur holati, qavatlar soni, rangini aniqlaymiz.



25-rasm.


Nazorat savollari

1. CorelDRAW dasturining vazifasi nimadan iborat.
2. CorelDRAW dastur qanday ishga tushiriladi va tugallanadi.
3. CorelDRAW dasturida qanday qurollar paneli mavjud, ularning vazifalarini ayting.
4. Matn bilan ishlash usulini ko‘rsating.
5. CorelDRAW dasturida qanday uskunalar panellari bor.
6. Turli obyektlar ustida amallar bajarishni ayting.
7. Ranglar bilan ishlash uchun nechta asbob ajratilgan, ularning vazifasini ayting.


1

CorelDraw (styled **CorelDRAW**) is a vector graphics editor developed and marketed by Corel Corporation of Ottawa, Canada. It is also the name of Corel's Graphics Suite, which bundles CorelDraw with bitmap-image editor Corel Photo-Paint as well as other graphics-related programs (see below). The latest version is designated X8 (equivalent to version 18), and was released in March 2016.^[1] Corel Draw is designed to edit two-dimensional images such as logos and posters.

2



3



9-mavzu. Qurilishda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari. AutoCAD dasturi haqida umumiy ma'lumotlar.

REJA:

1. AutoCad dasturining qisqacha tarixi.
2. AutoCad bilan tanishuv. Interfeys asosiy elementlari.
3. “Standard” uskunalar paneli bilan tanishuv.

Tayanch soʻzlar: AutoCAD, model, chizma, list, VESLIN muloqat oyna, 3D Studio, parametrlar, granisi, ekran, ramka, list, masshtab, pechati, prosmotr, model maydon, rang.

AutoCad dasturining qisqacha tarixi.

Bugungi kunda juda ko'plab kompyuter grafik dasturlari mavjud bo'lib, ularni qaysi sohada qo'llanilishi bilan bir-biridan farqlanadi. Har bir soha mutaxassislari o'z faoliyatlari uchun qulay bo'lgan grafik dasturni tanlaydilar. Dasturlarning imkoniyat chegaralari ham ma'lum bir sohaga yo'naltirilgan bo'ladi. Demak, grafik dasturni tanlashda avvalom bor uning imkoniyatlarini inobatga olish lozim. Aksariyat hollarda grafik dasturni qo'llashdan oldin boshqa bir dasturlarni yoki fanlarni o'zlashtirishga ehtiyoj seziladi. Shunisi bilan ham grafik dasturlar murakkablashib boradi.

Biz o'rganmoqchi bo'layotgan dastur Amerikaning *Autodesk* firmasi tomonidan ishlab chiqilgan *AutoCAD* grafikaviy dasturidir. *Autodesk* firmasining juda ko'plab dastur mahsulotlari mavjud bo'lib (*AutoCAD, AutoCAD Electrical, 3ds Max, Design Review...*), butun dunyoda keng ommalashib ketgan, eng so'ngi texnologiyalarni o'zida mujassamlashtiradi. Firmaning dastur mahsulotlari ichida *AutoCAD* dasturi muhim o'rin tutadi. U asosiy bo'lib, qolgan dasturlar uning asosida yaratilgan hisoblanadi. Grafik imkoniyatlari juda yuqori va ayni paytda ham sodda, ham murakkab topshiriqlarni bajara oladi. Shunisi e'tiborga loyiqliki u bevosita aniq fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ularning uzviy davomi sifatida ham qabul qilinishi mumkin va talabalarning kelgusi ish faoliyatlarida ham foydali o'rin tutadi degan umiddamiz.

AutoCAD - bu 1982 yilda Autodesk tomonidan ishlab chiqilgan ikki va uch o'lchovli avtomatlashtirilgan loyihalashtirish va chizmachilik tuzish tizimi.


AutoCAD grafik muharriri oynasi. Interfeys asosiy elementlari.

Ish maydoni ostida menyu yorliqlari (lentalar) va asboblarni paneli va ularning tashkil etilishini tushuniladi; model makonining uslubi va turi; buyruq satrining holati va turi; holatlar panelini o'rnatish va boshqalar. Umuman olganda, taxminan aytganda, dastur boshlanganda biz ko'rgan narsalarning barchasi AutoCAD interfeysi.

Dasturni birinchi marta ishga tushirganingizda (AutoCAD 2009 versiyalaridan boshlab), standart Autocad ish maydoni "Chizish va Annotatsiya" (yuqoridagi rasmda). Menyu funktsional bog'liqligi bo'yicha guruhlangan asboblar paneli mavjud bo'lgan tematik yorliqlar bilan lenta shaklida taqdim etiladi. AutoCADning ushbu ish maydoni 2D chizmalar va loyiha hujjatlari bilan ishlashga yo'naltirilgan. AutoCAD-da bir nechta grafik maydon (ish stoli) mavjud.


Dastur yana bir nechta oldindan belgilangan ish joylarini taqdim etadi:

1. 3D asosiy.
2. 3D modellashtirish.
3. Klassik AutoCAD.



1. Ilova menyusi	1. Меню приложений
2. Tez kirish asboblar paneli	2. Панель быстрого доступа
3. Infosenter	3. Инфоцентр
4. Ochish menyusi	4. Выпадающее меню
5. Lenta	5. Лента
6. Fayl yorliqlari	6. Вкладки файлов
7. Ish maydoni	7. Рабочее пространство
8. "Xususiyatlar" palitrasi	8. Палитра «Свойства»
9. Buyruqlar qatori	9. Командная строка
10. "Model" va "Varaq" yorliqlari	10. Вкладки «Модель» и «Лист»
11. Holat paneli	11. Строка состояния
12. Vidovoy kub	12. Видовой куб
13. Navigatsiya paneli	13. Панель навигации

1-rasmda AutoCAD interfeysining asosiy elementlari ko'rsatilgan. AutoCAD interfeysida 13 ta asosiy elementni ajratish mumkin:

1.Dastur menyusi.  Tugmani bosganingizda dastur menyusi ochiladi (1-rasm, 1-band). Dastur menyusi "Yaratish", "Ochish", "Saqlash" va "Saqlash" kabi fayllar bilan ishlash uchun asosiy buyruqlarni, shuningdek loyihani nashr etish va eksport qilish buyruqlarini o'z ichiga oladi. Ilova menyusining o'ng tomonida yaqinda ishlatilgan papkalar ro'yxati ko'rsatilgan. Ilova menyusining pastki qismida AutoCAD sozlamalari dialog oynasini ochish va AutoCADni yopish tugmalari mavjud.

2.Tezkor kirish paneli Tezkor kirish paneli (1-rasm, 2-band) tez-tez ishlatiladigan buyruqlar to'plamini o'z ichiga oladi. Tezkor kirish panelida "Yaratish", "Ochish", "Saqlash" va "Saqlash" kabi fayllar bilan ishlashning asosiy buyruqlari mavjud, shuningdek loyihani nashr etish va eksport qilish buyruqlarini kiradi.

3.Axborot markazi Infosentr palitrasi (2-rasm va 1-rasm, 3-band) turli xil ma'lumot manbalariga kirish uchun mo'ljallangan buyruqlarni o'z ichiga oladi.



2-rasm. "Infosenter" palitrasi elementlari.

Infosenter palitrasida quyidagi buyruqlar mavjud:

1. Qidiruv - onlayn yordamda ma'lumot qidirish uchun kalit so'zlarni kiritish maydoni.
2. Boshlang'ich yordam.
3. Autodesk 360 ga kirish.
4. Autodesk Exchange Apps - standart AutoCAD xususiyatlarini to'ldiradigan turli xil Autodesk dasturlariga kirish.
5. Autodesk yangiliklariga obuna bo'lish.
6. Onlayn yordamga qo'ng'iroq qilish va Infosentri sozlash.



Tasma.




3-rasm .

Lenta (1-rasm, 5-band) Lentada asboblar mantiqiy guruhlarga ajratilgan. Yorliqlar va lentalar paneli. Lentada asboblar panelida mavjud bo'lgan ko'plab boshqaruv va vositalarni o'z ichiga olgan panellarda guruhlangan. yorliqlar to'plami mavjud. Tasma yorliqlardan iborat (3-rasm, 1-band), ularda panellar joylashgan (3-rasm, 2-band). Agar strelka panelning pastki qismida joylashgan bo'lsa, unda qo'shimcha elementlarni namoyish qilish uchun bunday panel ochilishi mumkin (3-rasm, 3-band). Panelni ochiq shaklda mahkamlash uchun pin belgisini bosish (3-rasm, 4-band). Ba'zi panellarda qo'shimcha parametrlarning sozlamalariga kirish imkoniyati mavjud, sozlamalarga o'tish uchun panelning pastki o'ng qismidagi strelka belgisini bosishingiz kerak (3-rasm, 4-rasm).

Ba'zi bir vositalar bilan ishlaganda, lentaning o'ng tomonida tanlangan vositaga tegishli qo'shimcha vositalar bilan kontekstli yorliq paydo bo'ladi. Asbob bilan ishlashni tugatgandan so'ng, kontekstli yorliq yopiladi. 4-rasmda kontekst yorlig'i ko'rsatilgan.


Multiline Text vositasini tanlaganingizda paydo bo'ladigan matn muharriri.



4-rasm. "Matn muharriri" kontekstli yorliq.

Fayl yorlig'i .

Fayl yorlig'i (5-rasm, 6-band) barcha ochiq chizmalarni ko'rsatadi. Yorliqlardan foydalanib, siz chizmalar orasida o'tishingiz mumkin. Chizilgan rasmni belgilaydigan yorliqda rasm chizilgan faylning nomi ko'rsatiladi. Agar chizma nomining yonida * belgisi ko'rsatilsa (5-rasm, 2-band), unda oxirgi o'zgarishlardan beri rasm saqlanmagan. Fayl yorlig'ining o'ng tomonidagi krestni bosish orqali yoping (4-rasm, 3-band). Yangi chizmani yaratish uchun siz mini yorliqni bosishingiz mumkin (4-rasm, 3-band).



5-rasm. Fayl yorlig'i.

Ish maydoni(grafik maydon).

Ish maydoni (1-rasm, 7-band) chizma chizish uchun mo'ljallangan. AutoCAD-da quyidagi ish maydonlari turlari mavjud:

- 2D Chizma va Annotatsiya (2 o'lchamli chizmalar va annotatsiyalar), tekis grafikalar va chizilgan izohlar bilan ishlash uchun ish maydoni ;

- 3D Basic va 3D Modellashtirish (3D-bazaviy va 3D-modellashtirish), uch o'lchovli modellash uchun ish maydoni;
- AutoCAD Classic (AutoCAD classic) - tekis chizish uchun klassik ish maydoni.

Xossalar palitrasi.

AutoCAD tomonidan qurilgan istalgan ob'yekt – chizmaning eng kichik birligi uchun uni tavsiflovchi aniq to'plamdagi xossalar mavjud: qavat, qalinlik, rang, chiziq turi, shuningdek ob'yektning geometrik parametrlari, masalan, aylana uzunligi, doira yuzasi va b. Ushbu xossalarni qulay ask ettirish va ularni o'zgartirish uchun “Xossalar” (Properties) palitrasi qo'llaniladi.

Buyruqlar qatori.

Buyruqlar satri (1-rasm, 9-band) obyektlarning parametrlarini aniqlaydigan buyruqlar, buyruq parametrlari va sonli qiymatlarni kiritish uchun ishlatiladi.

«Модель» va «Лист» yorliqlari.


"Model" va "Лист" yorliqlari (1-rasm, 10-band) model va varaq ishchi maydonlari o'rtasida harakatlanish uchun mo'ljallangan. Model yorlig'ida 2D yoki 3D modellarni loyihalash, chizish va yaratish uchun ishlatiladi. Varaq maydoni (nomlangan varaq) bosib chiqarish uchun chizmani (ehtimol bir nechta ko'rinishlar bilan) joylashtirish uchun ishlatiladi.

Holatlar satri.

Holat qatorida kursorning koordinatasi va chizma chizish rejimi holati: qadam (SNAP), to'r (GRID), orto (ORTHO), bog'lash (OSNAP) va h.k,lar aks etgan. U yo bu rejimni yoqish yoki o'chirish uchun sichqonchanning chap tugmasini mos rejim ustiga bosish yoki F3F11 funksional tugmalarini bosish orqali amalga oshiriladi.

ViewCube (Видовой куб) - bu ikki o'lchovli (2D) makonda yoki hozirgi uch o'lchovli (3D) vizual uslubda ishlaganda ko'rsatiladigan navigatsiya vositasi. ViewCube vositasidan foydalanib, siz standart va izometrik ko'rinishlarni almashtirishingiz mumkin.

Navigatsiya paneli - bu foydalanuvchi interfeysi elementi bo'lib, siz birlashtirilgan va aynan shu dasturdagina qo'llanadigan navigatsiya vositalariga kirishingiz mumkin.



Navigatsiya panelida quyidagi birlashtirilgan vositalar mavjud:

- ViewCube. Modelning joriy yo'nalishini ko'rsatadi va hozirgi model ko'rinishini yo'nalishini o'zgartirish uchun ishlatiladi.

- Штурвалы. Bir ixtisoslashtirilgan navigatsiya vositasidan ikkinchisiga tezda o'tishga imkon beradigan helmlar to'plami.
- Harakat animator (Аниматор движения.). Loyihani ko'rish, taqdimotni tashkil qilish va xatcho'plarni boshqarish uchun yaratish va ijro etish vositalarini namoyish etishingiz mumkin bo'lgan foydalanuvchi interfeysi elementi.
- 3Dconnexion. 3Dconnexion 3D sichqonchasi yordamida joriy model ko'rinishini yo'nalishini o'zgartirish uchun ishlatiladigan navigatsiya vositalari to'plami.

Navigatsiya panelida quyidagi ixtisoslashtirilgan navigatsiya vositalari mavjud:

- Panorama. Ko'rinishni ekran tekisligida siljiting.
- Kattalashtirish vositalari. Joriy model ko'rinishini kattalashtirish yoki kichiklashtirish uchun navigatsiya vositalari to'plami.
- Orbitadagi vositalar. Modelning hozirgi ko'rinishini aylantirish uchun navigatsiya vositalari to'plami

Nazorat savollari.

1. Grafik dasturlar va ularning imkoniyatlarini aytib bering.
2. Interfeys asosiy elementlari qaysilar?
3. "Standard" uskunalar paneli nima vazifani bajaradi?

10-mavzu. Uch o'lchamli ob'ektlar tuzish, ularni o'zgartirish buyruqlari.

REJA:

1. Foydalanish interfeysida uch olchamli muhitni yaratish.
2. «Визуальные стили», «Вид» panellari.

***Tayanch so'zlar:** Ob'ekt, modellashtirish, interfeys, AutoCAD, tizim.*

Bugungi kunda pedagog kadrlardan nafaqat o'z sohasi bo'yicha, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham ma'lum bilimlarni chuqur egallashni va ularni yoshlarga, ayniqsa o'quvchi hamda talabalarga o'rgatishni talab qiladi. Shu bois umumta'lim maktab, KHK va OO'Yularida faoliyat ko'rsatayotgan har bir professor-o'qituvchilar zimmasiga zamonaviy grafik dasturlardan foydalanib, o'quvchi va talabalarni kopyuterda bajarishga o'rgatishni yuklaydi.

Hozirgi kunning talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, muhandislik grafikasi o'qituvchilari kamida beshta zamonaviy grafik dasturlardan dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lishlari va ulardan foydalanib chizma primitiv-elementlarini kompyuterda loyihalashni bilishlari lozim, ya'ni, Foto


Shop, Corel Draw, 3D MAX, AutoCAD va Flash kabilarni. Chunki, har qanday zamonaviy o'quv elektron qo'llanmalarni ishlab chiqishni bu dasturlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham, elektron o'quv qo'llanmalarni mukammal yaratish uchun XXI-asr chizmachilik o'qituvchilaridan yuqorida keltirilgan grafik dasturlarni juda bo'lmaganda dastlabki tushunchalariga ega bo'lishlikni taqazo etadi. Biz o'z oldimizga qo'ygan muammoni hal qilish uchun birinchi bo'lib, AutoCAD tizimi hozirgi davrda loyihalashning avtomatlashtirilgan xalqaro standarti hisoblangan dasturining yaratilganligiga 30 yilga yaqin bo'lsada, grafik dasturlari orasida hanuzgacha mashhurlikicha qolmoqda. AutoCAD dasturi mukammal va ommabop, hamda loyihalash ishlari avtomatlashtirilgan dastur bo'lib, u har qanday turdagi sxema va chizmalarni yuqori aniqlikda, sifatli bajaradi. Shuningdek, bu dasturdan foydalanuvchilarning ijodiy imkoniyatlarini to'la amalga oshirishga kafolat beradi. Shu sababli, millionlab loyihachi mutaxassislar, olimlar, injener-texniklar va talabalar, ya'ni dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlari, 18 tilda loyihalash ishlarini bajarishda AutoCAD tizimidan foydalanishlari odatiy holga aylanib qolgan. Bu zamonaviy dasturlardan AutoCAD dasturi mukammal va ommabop, hamda loyihalash ishlari avtomatlashtirilgan dastur bo'lib, u har qanday turdagi sxema va chizmalarni yuqori aniqlikda, sifatli bajaradi. Shuningdek, bu dasturdan foydalanuvchilarning ijodiy imkoniyatlarini to'la amalga oshirishga kafolat beradi. Shu sababli, millionlab loyihachi mutaxassislar, olimlar, injener-texniklar va talabalar, ya'ni dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlari, 18 tilda loyihalash ishlarini bajarishda AutoCAD tizimidan foydalanishlari odatiy holga aylanib qolgan. Shu bois ushbu darsda AutoCAD dasturi yordamida kompyuterda oddiy geometrik jismlarni uch o'lchamli loyihalash imkoniyatlarini tanishtirish va ularning buyruqlaridan foydalanish algoritmlarini o'rgatish maqsad qilib qo'yilgan.

Foydalanish interfeysida uch olchamli muhitni yaratish.

Uch o'lchamli loyihalashda foydalanish interfeysi ikki o'lchamli kabi bo'lib, unga qo'shimcha «Vid»-ko'rinish, «Vizualnye stili» ikki o'lchamlidan uch o'lchamligiga yoki aksinchasiga o'tkazish, «Modelirovanie»-jismlarni loyihalash va «Redaktirovanie tela»-tahrirlash panellari, kiritiladi, 1- rasm.

Ularning ishchi stolda 2- rasmdagidek joylashtirish mumkin. 2- rasm, 1-«Визуальные стили»; 2- rasm, 2- «Modelirovanie»; 2- rasm, 3-«Vid»; 2- rasm, 4-«Redaktirovanie tela»;

Ma'lumki muxandislik va qurilish arxitektura chizmachiligida yaqqol tasvirlarni bajarish, ayniqsa sirtlarni o'zaro kesishuvidan hosil bo'lgan chiziqlarni yasash ko'plab grafik amallarni bajarishni, ya'ni ko'p vaqt sarflashni talab qiladi.




Hozirgi zamon kompyuterlari va ularning dasturlar ta`minoti, grafik axborotlarni bemaolol uch o`lchamda ham loyihalash imkoniyatini beradi. Buning uchun qator grafik dasturlar mavjud bo`lib, ular orasida AutoCAD dasturi muhandislik va qurilish arxitektura chizmachiligi uchun berilgan o`lchamlar asosida ikki va uch o`lchamli loyihalash ishlarini yuqori aniqlikda bajarish imkoniyatini beradi. Kompyuterda uch o`lchamli loyixalash ishlari ikki o`lchamli loyihalashga nisbatan birmuncha murakkabroq bo`lishi bilan birga quyidagi afzalliklarga ega:

1. Ob`ekt sirtlarining o`zaro kesishuvini avtomatik bajarish;
2. Ob`ektlarni asosiy va qo`shimcha ko`rinishlarga o`tkazib, o`zaro vaziyatlarini o`zgartirish;
3. Ob`ektlarning yuzalarini tabiiy ranglarga bo`yash;
4. Bajarilgan uch o`lchamli rederlangan-bo`yalgan ob`ektlarni tahlil qilib ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan talablarda ishlab chiqish;
5. Yasalgan uch o`lchamli modelni-buyumni fazoni istalgan nuqtasidan ko`rish va kuzatish.


«Визуальные стили», «Вид» panellari.

AutoCAD dasturida ikki o`lchamlidan uch o`lchamli loyihalash «3D каркас»ga o`tish uchun «Визуальные стили»dagi (3- rasm) 2- tugma yuklanadi. Undagi 1- tugmani yuklash bilan ikki o`lchamli loyihalash «2D каркас» ga qaytiladi. AutoCADda ob`ektlar va ularning elementlari bo`lgan sirtlar karkas ko`pyoqlik (3- rasm, 3- tugma yordamida), yoki ravon yuzali qattiq jism ko`rinishida (3- rasm, 4, 5- tugmalar yordamida) tasvirlanishi mumkin. Bunday qattiq jismlarni va ularning birikmalaridan iborat bo`lgan ob`ektlarni loyihalashda ikki o`lchamli asosiy ko`rinishlardan va uch o`lchamli izometrik tasvirlardan foydalaniladi.




3-rasm.

Shu sababli uch o'lchamli loyihalashda bunday ko'rinishlar bitta View - Вид (ko'rinishlar) paneliga joylashtirilgan, 4- rasm.



4-rasm.

1 – Nomlangan ko'rinishlar (Named Views);
 2 ÷ 7 - 6ta standart ustdan, tagdan, chapdan, o'ngdan, olddan va orqadan asosiy ortogonal ko'rinishlar;
 8 ÷ 11 - 4ta standart izometrik ko'rinishlar;
 12 – Kamera (Camera) – ko'rish yo'nalishini kamera va ko'rish nuqtalari yordamida belgilaydi. Ko'rinishni o'zgartirishning yana bir imkon **3D ORBIT** buyrug'i yordamida amalga oshiriladi. Bu buyruq chaqirilganda, ekranda orbitali aylana paydo bo'ladi. Kursorni uning kvadratlari bilan bog'lab, sichqonchani chap tugmasi yordamida surilsa, ko'rish yo'nalishini o'zgartirib, ob'ektni ko'rinmas tomonlarini ham kuzatish mumkin. Ma'lumki har qanday murakkab detal va jismlar bir nechta o'zaro birikkan oddiy jismlardan iborat bo'ladi. Bunday jismlarga ob'ektning primitivlari deb ataladi. Murakkab uch o'lchamli ob'ektalar oddiy «g'ishtlar»dan yasaladi. Bu oddiy «g'ishtlar» qattiq jisimli primitivlar deyiladi. Chizmachilikda ko'p uchraydigan qattiq jisimli primitivlarning asosiylariga kub, tsilindr, shar, konus, torlar kiradi. Ularga BOX (Kub), WEDGE (Pona), CONE (Konus), CYLINDER (TSilindr), SPHERE (Shar) va TORUS (Tors) kabi qattiq jismlar kiradi. Ularni yasash buyruqlarining tugmalari “Моделирование” (Моделлаш) panelida joylashgan bo'ladi, 5-rasm. Shunday qilib jismlarni uch o'lchamda loyihalash uchun ekranda view (ko'rinishlar) va Solids (qattiq jism) panellari bo'lishi shart bo'ladi.



5-rasm.

Nazorat savollari

1. Uch o'lchamli loyihalash tushunchasini izohlab bering.
2. AutoCAD dasturida ekranni uch o'lchamli loyihalash holatiga o'tkazish.
3. AutoCAD dasturida foydalanuvchi interfeysini 3o'lchamliga o'tkazishda qanday qo'shimcha buyruqlar panellari kiritish lozim?

11-mavzu. Qurilish konstruksiyalarini loyihalashni avtomatlashtirish (Lira).

REJA:

1. Lira dasturini yuklash.
2. Buyruqlarni kiritish va bajarish.

Tayanch so'zlar: Lira PK, Rejim menyu bandi, Pererisovat, Sxema menyu bandi, Korrektirovka, Superuzli, Lira-KS, interfaol jadvallar, tushuntirish xati, montaj jadvallarini kiritish.

Lira dasturini yuklash

Lira PK bir nechta ishchi rejimida ishlaydi. Har bitta ishchi rejimiga Lira ning o'ziga xos ishchi oynasi mos keladi:

- obyektning hisob sxemasini yaratish ishchi oynasi;
- protsessor rejimidagi ishchi oyna;
- hisob natijalarini tahlil qilish va hujjatlashtirish ishchi oynasi.

Lira programma kompleksining tinglovchi bilishi kerak bo'lgan eng muhim, birinchi oynasi – bu hisob sxemasini yaratish ishchi oynasi. LIRA PK ning interfeysi Windows muhitida ishlaydigan programma komplekslariga juda o'xshash va bu interfeys bilan tinglovchini yaqindan tanishtirish kerak.

LIRA is modern software package intended for numerical analysis of structures' strength and stability and computer-aided design process.

LIRA includes the following main features:

- *user-friendly graphical interface;*
- *a set of multifunctional solvers;*
- *extensive library of finite elements that enables the user to create computer models of almost any structures: 2D/3D bar models, shells, slabs, wall-beams, solids, membranes, tent structures. It also allows you to create combined systems that consist of different finite elements (slabs and shells supported with ribs, cased frame systems, slabs on elastic foundation and the like);*
- *dynamic analysis of the structure (earthquake, wind with pulsation, vibration, impulse, impact, response spectrum);*
- *analysis on wind loads with account of pulsation and earthquake loads according to building codes of CIS, Europe, Africa, Asia and the USA;*
- *modules for analysis and design of reinforced concrete (RC) and steel elements in accordance with building codes of CIS, Europe and the USA;*
- *steel tables of CIS, France, Germany, and the USA, as well as user-defined steel databases to add customized sections or steel libraries;*


– interface with other graphic and documentary systems (AutoCAD, Allplan, Stark, ArchiCAD, MS Word, HyperSteel, AdvanceSteel, Bocad, Revit, etc.) through a *.DXF, *.MDB and *.IFC files;


– comprehensive help and documentary systems;

– Russian/English languages for interface and/or documents;


– various systems of measurement units.

*(3.Discovering Computers 2016. Tools, Apps, Devices,and the Impact of Texnology. 691 pg.)

Aytaylik, Lira PK kompyuterga oʻrnatilgan va normal darajada ishlaydi. Windows operatsion tizimining ishchi oynasida  Lira 9.6 yorligʻi yoki LIRA ning start olish menyusi (1-rasm) yordamida ekranga yuklang. Sistema yuklanganidan soʻng ekranga 2-rasmda koʻrsatilgandek ishchi oyna ekranga yuklanadi.



1-rasm. Lira 9.6 ning start olish menyusi.



2-rasm. LIR PK ning hisob sxemasini yaratish rejimidagi ishchi oynasi.

Uskuna deb tugmaning bajaradigan ishini grafik ravishda eslatuvchi piktogrammaga ega bo'lgan tugmaga aytiladi. Uning faollashtirilishi aniq bir tadbirning bajarilishini ta'minlaydi. Bu tadbirni keyinchalik "tugmani bosish" deb yuritimiz. Birorta belgilariga asoslanib birlashtirilgan ekrandagi tugma-uskunalarining guruhini "panel" deyiladi. Ekran bo'ylab bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin bo'lgan uskunalar panelini "suzib yuruvchi panel" deb ataladi.

Ishchi oynaning pastki qismidagi yo'lakcha *ma'lumotlar qatori* deb ataladi. U uskunalarining vazifalari haqidagi qisqacha ma'lumotlarni, xuddi shunday xabarlar va yordam olib turish uchun xizmat qiladi. Ma'lumotlar qatorining o'ng tomonida – model tugunlari va elementlari soni, faol yuklanish va barcha yuklanishlar soni haqidagi ma'lumotlar chiqariladigan maydon joylashgan.

Ekraning asosiy qismi ishchi zonasiga ajratilgan: sistemada yuz beradigan barcha jarayonlar shu joyda amalga oshiriladi. Ishchi zonasida hisob sxemasi yaratiladi, uning yuklamalari qo'yiladi, hisob natijalari tasvirlanadi, boshqaruvchi muloqot oynalari va boshqalar aks ettiriladi.

Menyu bandlari qatorining yuqorisida masala nomi qatori joylashgan. Qatorning o'ng tomonida – sistema znachoklari joylashgan. Bu znachoklar oynani vaqtinchalik yig'ib qo'yish, ekranga yoyish yoki butunlay yopish uchun xizmat qiladi.

Buyruqlarni kiritish va bajarish

LIRA PK ning 9.6 versiyasi boshqarish buyruqlarini o'zida saqlovchi 10 ta menyu bandiga ega (3-rasm). Menyu bandlarining bir qancha qatorlari "►" shartli belgisi bilan tugallanadi, bu menyu bandi ikkinchi darajali menyuga ega ekanligini anglatadi va ular belgilangan pozitsiya faollashtirilganda ekranga chiqadilar. Menyu bandidagi buyruq bosilganidan keyin darhol u bajarilishga tushadi, menyu va izohlovchi yozuvlar esa avtomatik ravishda ekrandan o'chib ketadi. Quyida menyu bandlarining ko'rinishlari va buyruqlarining bajaradigan ishlari bilan qisqacha tanishib o'tamiz.

LIRA software has a number of distinctive features:
– *advanced algorithms of setting up and solving the set of equations without limitation on number of nodes and elements;*

– *super-element simulation with visualization at every stage of analysis. This simulation enables you to speed up analysis of the problem and reduce influence of too large ill-conditioned matrix for the model without super-elements;*

– *modules of physical nonlinearity on the basis of different nonlinear relations σ - ϵ . These modules enable the user to simulate the loading process for both mono- and bi-material structures and to trace crack propagation, creep strain and yield until the complete damage of the structure;*

– modules of geometrical nonlinearity that enable you to determine large displacements of the structures with invariable form. They also allow you to determine the initial equilibrium shape of variable structures according to specified load (separate ropes, guy trusses, guy shells, tent structures, membranes, etc.);

– a wide range of special finite elements that allow you to create adequate computer models for complicated and non-standard structures. For example, FE that simulates node flexibility, FE that simulates the work of the ground outside the structure, FE that simulates the tensioning device (turnbuckle) and allows you to provide the specified initial tension of the structure contour or to find the necessary tension that ensures the specified geometry (e.g. of the tent structure);

– special solver **BRIDGE** that allows you to get surface lines in specified elements of bridge structure from moving load and determine unfavourable combinations of forces and displacements;

– special solver **ASSEMBLAGE plus** that allows you to trace the stressed state of the structure during assemblage, e.g. frequent changes of design model, placing and removing of temporary supports and so on. This solver enables you to simulate assemblage of high-rise buildings from monolithic reinforced concrete with account of seasonal variation of material (concrete) properties, disassemblage of temporary supports, climate variation, etc.

– special solver **Dynamics plus** – time-history analysis that enables you to simulate behaviour of the structure under dynamic loads with account of nonlinearity;

– special module **LIR-KM** that enables you to automatically generate the whole set of working drawings KM (for reference, it is called ‘drawings of steel structures’ in Russian). The set includes drawings of element layouts, lists of elements, joints, bill of materials. In comparison with other graphic systems (AdvanceSteel, StruCad, Bocad, RealSteel, etc.) oriented only to automatization of graphic in design of steel structures, routine of design **LIRA** – **LIR-STC** module – **LIR-KM** module enables the user to analyse, determine (check) and unify sections of steel elements and joints, and then obtain drawings KM;

– special system **SOIL** that enables the user to generate 3D soil model according to specified geologic data (location and parameters of boreholes). Then it is possible to calculate moduli of subgrade reaction that are variable across the foundation slab. Calculation is made by different methods;


– special solver **Model variation** that enables you to specify different stiffness of elements and boundary conditions within the same problem (in this case topology of the model remains the same). This enables you to take into account: 1) change in stiffness of soil under dynamic loads

(including earthquake), and 2) exclusion of separate elements from design model when analysing problems of progressive fracture.

*(3. Discovering Computers 2016. Tools, Apps, Devices, and the Impact of Technology. 691 pg.)

Fayl menyu bandi.

“Fayl” menyu bandi fayllarni qayta ishlash buyruqlarining standart guruhi tarkibiga ega: yangisini yaratish, mavjudini ochish, yopish va fayl masalasini saqlab qo‘yish, PK dan chiqish (3-rasm). Bu menyudagi boshqalaridan ajralib turadigan buyruqlar LIR PK ning qo‘shimcha imkoniyatlarini namoyish etishadi. Bu **Eksportirovat (DXF) ... (DXF ga eksport qilish)** buyrug‘i, natijalarni standart **DXF** formatida saqlab, keyinchalik k grafik dastur paketlarida va namoyish qilish dasturlarida tahrirlash imkoniyatini yaratadi. **Importirovat zadachu** (masalani import qilish) buyrug‘i boshqa (AutoCAD, ArchiCAD) avtomatik loyihalash sistemalaridan foydalanib yaratilgan loyihalarni LIRA PK ga uzatish imkoniyatini beradi.




3-Fayl menyu bandi.

Sozdat tekstoviy fayl (matn faylini yaratish) buyrug‘i yordamida sistemada LIRA PK ning kirish tilidagi formatida kiritilgan **.TXT** formatdagi boshlang‘ich ma’lumotlar avtomatik kengaytlanadi. Bu faylni Windows muhitidagi Bloknot yoki boshqa matn redaktorlarida tahrirlash mumkin. Mohir foydalanuvchilar ko‘pincha ushbu imkoniyatlardan foydalanadilar, chunki bu usulda interfaol usullarga qaraganda ancha vaqt tejiladi.

Qandaydir sabablarga ko‘ra sxemani yaratish yoki uni o‘zgartirish jarayonida natijalar olinganidan so‘ng LIR-VIZOR grafik muhiti bilan bog‘lanishlar yo‘qotilishi mumkin. **Svyazatsya s rezultatami** (natijalar bilan bog‘lanish) buyrug‘i bilan bog‘lanishlarni tiklash mumkin bo‘ladi.

Rejim menyu bandi.

Rejim menyu bandi (4.4-rasm) kompleksning uchta ishlash rejimidan birini yuklovchi, uchta buyruq bandiga ega. **Raschetnaya sxema** (hisob sxemasi) rejimida barcha boshlang'ich ma'lumotlar yaratiladi. Buyruqqa belgi o'rnatish, shu buyruq yuklanganligini bildiradi. Qolgan ikkita rejimda bajariladigan ishlar ularning nomlaridan kelib chiqadi. Shuni e'tiborda tutish kerak-ki, **Rezultati rascheta** (hisoblash natijalari) rejimini hisoblash amalga oshirilmaguncha faollashtirib bo'lmaydi.




4-rasm. Rejim menyu bandi.

Vid (ko'rinish) menyu bandi.

Ushbu menyu bandi (5-rasm) ekranda modelning tasvirini boshqarishga mo'ljallangan buyruqlarni o'zida jamlagan. Buyruqlar beshta guruhga ajratilgan: hisob sxemasini fazoda tasvirlash (6-rasm), hisob sxemasini ekranda tasvirlash, hisob sxemasining bir bo'lagini (fragmentini) ekranda tasvirlash, hisob sxemasining tarhlari va ekrandagi joylashtirilishi, superelementlarni vizuallashtirish.

Bu menyu buyruqlarining mazmuni nomidan ma'lum. Faqat bitta –**Pererisovat** (rasmni qaytadan chizmoq) buyrug'ini tushuntirib o'tamiz.


LIRA PK da hisob sxemasi chizmasini va uning barcha ko'rsatkichlari: tugun, element raqamlari, o'lchamlari, bikrlilik tiplari va boshqalarni ekranda tasvirlash imkoniyati mavjud. Bu esa bir vaqtning o'zida ekranda tasvirlab bo'lmaydigan juda katta sondagi ma'lumot hisoblanadi va uni birdaniga tasvirlashga zarurat ham yo'q. Shuning uchun kerakli ko'rsatkichlar hisob sxemasi chizmasiga navbat bilan chiqarilishi mumkin. Buning uchun sxema rasmni qaytadan chizish buyrug'idan foydalanish kerak. Menyudagi oxirgi guruh buyruqlari superelementlarni vizuallashtirishga ta'lluqli.




5-rasm. Vid (ko‘rinish) menyu bandi.

Vibor (tanlash) menyu bandi.

Lira PK da eng ko‘p qo‘llaniladigan menyu bandlaridan biri **Vibor** (tanlash) menyu bandi hisoblanadi (7-rasm).




7-rasm. Fazoviy model rejimi oynasi.



6-рasm. Vibor (tanlash) muloqot oynasi.

Sxema menuy bandi.

Sxema menuy bandiga modelning hisob sxemasini yaratish uchun barcha zarur bo'lgan buyruqlar joylashtirilgan (8-rasm). Bu juda katta sig'imga ega bo'lgan menuy, unda birinchi, ikkinchi va uchinchi darajali pog'onalarga ega bo'lgan menuy buyruqlari mavjud. Bu menuy bilan ishlashni qiyinlashtirmaydi, aksincha menyuning pog'onalari bo'ylab harakatlanish intuitiv ravishda bajariladi.



8-rasm. Sxema menyu bandining Sozdaniye (yaratish) buyrug'i.

Birinchi guruhdagi buyruqlar yangi yaratilgan masala faylini rasmiylashtirish uchun mo'ljallangan. Ikkinchi guruh modelning geometrik sxemasini yaratish uchun zarur bo'ladigan barcha buyruqlar jamlamasidan iborat bo'lgan, kengayadigan menyulardan tashkil topgan.

8-rasmda amaliyotda ko'p uchraydigan, rama, plita, aylanish sirtlari va hokazo obyektlarning hisob sxemasini yaratish apparatiga ega bo'lgan **Sozdaniye** (yaratish) menyu bandi ko'rsatilgan. Bundan tashqari menyu bandi fermalarning tipik sxemalarini yaratish buyruqlariga ham ega.

Regulyar va (yoki) tipik sxemalar qatoriga kirmaydigan amaliyotdagi real obyektlarning xususiyatlarini hisobga olish **z**(korrektirovlash) menyusi (8-rasm) buyruqlari yordamida amalga oshiriladi. Bu menyu tarkibidagi buyruqlar Lira PK muhitida "istalgan inshootning hisob sxemasini hech qanday cheklovlarsiz" yaratish imkoniyatini beradi.

Uchinchi **Sborka** (yig'ish) menyusi hisob sxemasini turli fayllarda yaratilgan sxemalardan bitta faylga jamlab yaratish imkoniyatlarini taqdim etuvchi buyruqlarga ega. Menyuning buyruqlari turli jinsdagi chekli elementlardan sxema yaratish imkoniyatlarini beribgina qolmay, shu bilan birga yig'ish buyruqlari bajaradigan ishlarga nafaqat oldin tayyorlab qo'yilgan sxemalarni birlashtirish, balki chekli elementlar ulanishining mosligini tekshirish imkoniyatlarini ham yaratib beradi.

Keyingi ikkita - **Svyazi** (bog'lanishlar) va **Obyedineniye peremesheniye** (ko'chishlarni birlashtirish) menyulariga ega bo'lgan guruh, hisob sxemasiga chegaraviy shartlarni kiritishga yordam beradigan buyruqlardan tashkil topgan. Bu qaysidir tugmalarning ko'chishlari nolga tengligi va (yoki) turli tugmalardagi bir xil nomdagi ko'chishlar o'zaro tengligini hisobga olish imkoniyatini yaratadi.

Raschetniye secheniya sterjeney (sterjenlarning hisobiy kesimlari) menyusi sterjen elementlarining zo'riqish va kuchlanishlar hisoblanadigan kesimlari sonini ko'rsatish (o'z xolicha qoldirilganda ikkita kesim- sterjen boshida va oxirida) uchun xizmat qiladi.

Superuzli (supertugunlar) menyu bandiga superelementlarning asosiy sxemaga ulanishiga yordam beradigan tugunlarni tayinlash operatsiyasini bajaruvchi buyruqlar joylashtirilgan.

Jestkosti (bikrliklar) menyu bandi.

Bu menyu bandi tarkibi hisob sxemasi elementlariga qabul qilingan element tiplari uchun talab qilinadigan bikrlik xarakteristikalarini kiritish imkoniyatini beruvchi buyruqlardan iborat (4.9-rasm). **Jestkosti elementov** (elementlar bikrliklari) buyrug'i bikrlik xarakteristikalari

bibliotekasidan talab qilingan birlilik tiplarini (ko'rsatkichlarini) tanlash va ularni sxemaning chekli elementlariga tayinlash uchun mo'ljallangan.


Lira-KS (kesim konstruktori) buyrug'i konstruksiya elementlarining nostandart kesimlarini shakllantirish va ularning birlilik xarakteristikalarini hisoblash maqsadida amalga oshirilgan.

Konstruktor tonkostennix secheniy (LIR-KTS) (yupqa devorli kesimlar konstruktori) buyrug'i **LIR-KTS** – konstruksiyaning nostandart yupqa devorli kesimlari geometriyasini shakllantiruvchi va ularning birlilik xarakteristikalarini hisoblovchi sistemani chaqirish uchun xizmat qiladi.

Uchinchi guruhdagi **Jestkiye vstavki** (bikr kiritmalar) buyrug'i, elementlarning hisob sxemasi tugunlariga mahkamlanishini to'g'ri modellashtirish uchun zarur bo'ladigan sterjen elementlari uchlaridagi absolyut bikr qisimlarni kiritish imkoniyatini beradi.

Sharniri (sharnirlar) buyrug'i tugunlar bilan sharnirlar orqali bog'lanishlarga ega bo'lgan sxema elementlarini ko'rsatish uchun mo'ljallangan hamda tayinlangan bog'lanishlarni yoki sharnirlarni o'chirish imkonini ham yaratadi.

Element kesimining U1 va Z1 bosh o'qi yo'nalishlari programmada o'z holicha qoldirilib qabul qilingan o'q yo'nalishi bilan ustma-ust tushmagan holda, **Ugol vrasheniya mestnix osey** (mahalliy o'qlarning burilish burchagi) buyrug'i yordamida zarur tuzatishlar amalga oshiriladi.




9-rasm. Jestkosti (bikrliklar) muloqot oynasi.

Koeffitsiyenti posteli S1, S2 (zamin qayishqoqlik koeffitsiyentlari) muloqot oynasi belgilangan element yoki elementlar guruhi uchun zamin qayishqoqlik koeffitsiyentlarini kiritishga mo'ljallangan.

Model grunta (grunt modeli) buyrug'i shu nomdagi muloqot oynasini chaqirishga xizmat qiladi. Grunt modeli muloqot oynasi, grunt modelini avtomatik ravishda yaratadigan va gruntli zaminning qayishqoqlik koeffitsiyentlarini hisoblaydigan, **Grunt** sistemasi va uning ish ko'rsatkichlarini boshqarishni amalga oshiradi.

Nagruzki (yuklar) menyu bandi.

Bu menyuda yuk turlarini va ularning qiymatlarini kiritish hamda ularning qo'yiladigan tugun va zonalarini ko'rsatish imkoniyatini beruvchi buyruqlar joylashtirilgan (4.10-rasm). Bu menyuning dastlabki buyrug'i bilan joriy yuklanishning tartib raqami kiritiladi. **Kopirovat tekusheye zagrujeniye** (joriy yuklanishni nusxalash) buyrug'i hisob sxemasining barcha elementlari o'zlarining xususiy og'irliklaridan hosil bo'ladigan yuklardan avtomatik ravishda yuklanishini ta'minlab beradi. **Udalit sobstvenniy ves** (xususiy og'irlikni o'chirish) buyrug'i oldingiga teskari bo'lgan operatsiyani amalga oshiradi.



10-rasm. Yuklar menyu bandi.

Raschetniye sochetaniya usiliy (RSU) (hisobiy zo'riqishlar jamlamasi) buyrug'i hisobiy zo'riqishlar jamlamasi jadvallarini hamda HJZ hisobiy guruhlarini shakllantiruvchi va to'g'rilovchi buyruqlarini o'zida jamlagan menyuni ekranga chiqaradi.

Dinamika buyrug‘i dinamik ta’sirlarga hisoblashni tashkil qilish imkoniyatini yaratib beruvchi jarayonlarga ega bo‘lgan menyuni chiqaradi.

Ustoychivost (ustuvorlik) buyrug‘i sxemaning umumiy ustuvorlikka hisoblanishini bajarish haqidagi ma’lumotlarni kiritishga mo‘ljallangan muloqot oynasini chaqiradi.

Modelirovaniye nelineynix zagrujeniy (chiziqli yuklanishlarni modellashtirish) buyrug‘i qadamli protsessorning tashkil qilinishini belgilovchi ko‘rsatkichlar: yuklanishlar raqami yoki yuklanishlar kombinatsiyasi, qadam usulining modifikatsiyalari kiritiladigan muloqot oynasini ochadi.


Zadaniye montajnix tablits (montaj jadvallarini kiritish) buyrug‘i **montajnaya tablits** (montaj jadvallar) muloqot oynasini chaqiradi, bu oyna montaj bosqichlarini va ushbu jarayonda ish jarayoniga kiritiladigan yoki undan chiqarib tashlanadigan elementlar ro‘yxatini shakllantirishga mo‘ljallangan.

4.8. Opuii menyu bandi

Opsiya menyusi dastlabki ikkita guruhda foydalanuvchi muhitini sozlash buyruqlarini o‘zida aks ettirgan (11-rasm). Bu Lira PK dan foydalanuvchi o‘z xohishiga ko‘ra quyidagi tanlovlarni amalga oshira olishini bildiradi:

- ✓ ishchi kataloglarning qattiq disklarda joylashtirilishi;
- ✓ o‘lcham birliklari;
- ✓ programma interfeysi tili va hisoblash natijalarni hujjatlashtirish tili;
- ✓ shriftlar;
- ✓ modelni ekranda tasvirlash shakllari.

